hurfikrlikka sabab bo'lgan istiqloq tufayli o'zligini anglayotgan va ajdodlarining kim ekanligi, tarixiy ildizlari qaysi davrlarga borib taqalishi bilan qiziqayotgan har bir vatandoshimiz uchun tarixiy manbalar bilan bir qatorda shu mavzudagi badiiy asarlar ham g'oyat nodir tarixiy xotira sarchashmasi vazifasini o'taydi. Mustaqillikka erishgach o'zbek xalqi qalbida chuqur iz qoldirgan ajdodlarimiz tarixi, ular yaratgan moddiy va ma'naviy meroslari qayta tiklandi. Bobolarimiz yaratgan boy ma'naviy merosni o'rganish, o'lkamizning haqqoniy tarixini yaratish, o'zining bebaho tafakkur qudrati tufayli madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy hayotimizda, xalqimiz ruhiy-ma'naviy olamida o'chmas iz qoldirgan ulug' ajdodlarimizning mo'tabar asarlarini keng ommaga taqdim etish imkoniyati yuzaga keldi. Ajdodlarimiz shaxsiyatini to'liq anglab yetishimiz uchun ko'plab badiiy asarlar va turli kinofilmlar yaratildi. Ularga misol qilib Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Amir Umarxon kabi ajdodlarimizning hayotiy faoliyatiga bag'ishlangan asarlarni keltirish mumkin. Xalqimiz tafakkuri taraqqiyotida va ma'naviy yuksalishida ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'rni beqiyos. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Chindan ham tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilm-u ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilish hech qachon to'xtamagan..."¹⁸ [Karimov,2008: 49]. Bundan tashqari o'zbek millatining etnik shakllanishida alohida o'ringa ega bo'lgan Muhammad Shayboniyxonni e'tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur.

Temuriylardan keyin hokimiyat tepasiga shayboniylar sulolasi keldi. Shayboniylar hukmronlik qilgan deyarli bir asrlik zamonda ham, bir oz tanaffus bilan, bunyodkorlik ishlari davom ettirildi. Bu sulolaning asoschisi Muhammad Shayboniyxon haqida birinchi prezidentimiz Islom Karimovning xolisona fikr bildirishi katta ahamiyatga ega bo'ldi, chunki to shu paytgacha sho'rolar davrida chiqqan tarixiy kitoblarda ham, badiiy adabiyot romanlarda ham, umuman, Shayboniylar sulolasi, xususan, sulolaboshi Muhammad Shayboniy haqida har tomonlama, chalkash-u noto'g'ri fikrlar bildirildi, ayniqsa videofilmlarda to'pori dasht odami sifatida tasvirlandi. Birinchi prezidentimizning o'sha suhbatda "Shayboniyxon Buxoro madarasalarida tahsil ko'rgan, o'qimishli odam bo'lgan. Buxoroda olgan ilm-ma'rifatini hokimiyat tepasiga kelgach, yana el-yurtiga qaytarib bergan" deb xolis va to'g'ri fikr bildirgan edi. Ushbu fikrning ham ma'naviy, ham tarixiy, ham siyosiy ahamiyati bor. Yurtboshimizning Shayboniyxon haqida bildirgan fikrining tarixiy ahamiyati shundaki, o'tmishda o'tgan tarixiy shaxsga baho berishda uning qaysi bir sulola vakili bo'lganiga qarab emas, balki faoliyatiga qarab, el-yurtiga qanday xizmat qilganiga, o'zidan keyin nimalar qoldirganiga qarab baho berish lozimdir. Ushbu

¹⁸ Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 49 - b.

fikrning siyosiy ahamiyati shundaki, XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida, sanani Shayboniyxonning Samarqand taxtini egallashidan belgilasak, 1500 -yili yurtimizda hokimiyat almashuvi yuz berdi, hokimiyat temuriylardan shayboniylar qo'liga o'tdi, el-yurt o'z joyida qolaverdi, o'zbek milliy davlatchiligi davom etaverdi.

¹[Ibrohimov, 2001: 29-30].

O'zbek adabiyotidagi tarixiy romanlarga e'tibor bersak, ulardagi tarixiy shaxslar hayoti ba'zi o'rinlarda tarixiy haqiqatga mos, lekin ba'zi voqealarda haqiqiylikdan chekinib to'qima ishlatilgan joylarga duch kelamiz. Chunki yozuvchi asar yozish davomida o'z badiiy mahoratini kitobxonga yetkazib bera olishi uchun badiiy to'qimadan foydalanishi shubhasiz. Agar faqat tarixiy faktlarni keltirsa, bu tarixiy voqealar keltirilgan manba sifatida badiiy asarlar qatoridan joy ololmasligi mumkin. Xususan, O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov qayd etganidek: "Tarixiy romanda ilmiy haqiqat bilan badiiy haqiqatning munosabati g'oyat nozik va munozarali masala. Adabiyot tarixida shunday asarlar borki, ular ilmiy jihatdan asoslangan tarixiy faktlarga to'la mos keladigan xujjatlarga tayanib yozilgan... Ayni zamonda shunday tarixiy asarlar ham borki, ularda umuman hayotiy haqiqatga tayanilmagani holda yozuvchi xayoloti – fantaziyasi orqali tarixiy faktni qayta idrok etish muhim o'rin tutadi, tarixiy hodisalar, shaxslar muallif badiiy niyati asosida o'zgacha talqin etiladi. Adabiyot tarixida bunday misollar ko'p. Navoiy dostonidagi Iskandar tarixiy shaxs Aleksandr Makedonskiydan keskin farq qiladi. Mariya Styuartni Shipler o'zgacha, Volter Skott boshqacha, Stefan Sveyg yana o'zgacha talqin etadi... Shaxsan men tarixiy asarda yozuvchi xayoloti – fantaziyasiga to'la erk berish, "tarixchi olim ishi tugagan joyda yozuvchi ishi boshlanadi", degan qarash tarafdoriman."² [Yoqubov,1999].

Yuqoridagi fikrga nisbatan Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanidagi bosh obrazlar hisoblangan Bobur va Shayboniyxonni olaylik. Asarda Bobur nafaqat shoh va shoir, balki adabiyotshunos, tarixchi sifatida tilga olinadi. Lekin Shayboniyxon obrazi keltirilgan o'rinlar deyarli qora bo'yoqlarda aks etadi. Quyida "Yulduzli tunlar" romanidan ba'zi misollarni keltiramiz.

Shayboniyxon o'zining va Mahmudxonning hayotiy tajribalariga asoslanib chingiziylar saltanatini qurishda xalqni ishontirish va o'z niyati ostida birlashtirish maqsadida islom dinining ta'sir kuchidan foydalanadi.

"...Oralarida Qur'onni menchalik yaxshi qiroat qiladigan imomlari yo'q. Shuning uchun hammalari meni «Imomi zamon!» deb tan olurlar!

¹Abduqahhor Ibrohimov. Bizkim, o'zbeklar... "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2001. 29-30 betlar.

² Odil Yoqubov. So'z. Birinchi kitob. – T.: 1999. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati.

— Ko‘pchilikning boshini qovushtirish uchun nimayiki zarur bo‘lsa, hammasini qiling. Eng muhimi, ahillikdadir. O‘zaro urushlar temuriylarning boshiga yetmoqda. Siz bilan biz bir yoqadan bosh chiqarsak, Islom bayrog‘ini temuriylardan ko‘ra balandroq ko‘tarsak, barcha musulmonlar bizga ergashgay!

— To‘g‘ri aytdingiz, hazratim! Hozir bobokalonimiz Chingizxonning mafkurasi bilan ish yuritib bo‘lmagay! Endi faqat islomning sunniy mazhabi bizga mos kelur. Mahmudxon Shayboniyxonning bu fikrini ham ma‘qul ko‘rdi. Ularning maslakdosh ekanliklari, ayniqsa Shayboniyxonga qo‘l keldi. Mahmudxonning yordami bilan Shayboniyxon avval Turkistonni, so‘ng Buxoroni noshud temuriyzoda Sulton Ali mirzodan tortib oldi. Vaziyat yetilishi bilan Shayboniyxon Samarqandni ham egallaydi.”¹

[Qodirov, 2018: 174]

Shayboniyxon Samarqandni o‘ziga bo‘ysundirishda, dastlab jangsiz, harbiy talafotlarsiz egallashni afzal ko‘radi. Shuning uchun u harbiy hiyla tuzadi. O‘sha paytda Samarqandni Sulton Ali mirzo va onasi Zuhra begim boshqarardi. Zuhra begim beva bo‘lganligi sababli, agar jufti halol bo‘lishga rozi bo‘lsa, mamlakatni birga boshqarish taklifini beradi va oshiqlik maktubini yo‘llaydi. Ushbu o‘rinda ayollarni hiyla yo‘li bilan kamsituvchi shaxs sifatida tilga olinadi.

Zuhra begim malikalik va onalik sha‘nidan nafsini afzal ko‘radi va Shayboniyxonning tuzog‘iga ilinadi. Oqibatda Samarqand jangsiz Shayboniyxon qo‘l ostiga o‘tadi. Harbiy hiyladan so‘ng Shayboniyxon Samarqandga kirib borishga shoshilmas edi. Chunki u o‘z qo‘l ostidagi odamlar ko‘nglida faqat shaharni egallash emas, balki dushman tarafning o‘zidan ojiz ekanligini va o‘z nafsini o‘ylab mamlakatini ham dushmanga sotib ketishlarini isbotlamoqchi bo‘ladi. Sulton Ali mirzo va mamlakat piri hisoblangan Xo‘ja Yahyoning gunohlaridan kechganligi Shayboniyxonning avliyolik darajasini yanada yuksakka ko‘tarardi.

“— Manavi xo‘ja bilan mirzog‘a, — dedi Shayboniyxon, — ming azob berib o‘ldirsak haqqimiz bor. Biroq insofu imon qanchalik bo‘lishini bularga yana bir ko‘rsatib qo‘yaylik. Mayli, qonlaridan kechaylik, jonlari omon qolsin!”² [Qodirov, 2018: 207]

Shayboniyxon Zuhra begimning taqdirini ham hal qiladi. Aslida xon uning ta‘rifini eshitib, chindan ham o‘z nikohiga olmoqchi bo‘ladi. Lekin Zuhra begim uning oldiga kelganda tomirlari bo‘rtib turgan qo‘llarini ko‘rib fikridan voz kechadi. Yolg‘on gapirganligi uchun ko‘ngli g‘ash bo‘lib turgan xon yuragi a‘yonlarning Zuhra

¹ P.Qodirov. Yulduzli tunlar.Bobur. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.Toshkent-2018. 174-bet

² P.Qodirov. Yulduzli tunlar.Bobur. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.Toshkent-2018. 207-bet.

beginning buzuqligi haqida nafratlanib aytgan gaplari orqali taskin topadi. Shayboniyxon Zuhra begimni Mansur baxshi ismli mulozimiga nikohlab beradi. Ushbu holat Hirotdagi Muzaffar mirzoning onasi Xadicha begimga nisbatan ham ishlatiladi.

Temuriylar mamlakatini ko'pdan beri kuzatib yurgan Shayboniyxon ularning mamlakatida Xo'ja Ahror kabi diniy rahbarlar mustaqil hukmdor bo'lib olib, temuriylar saltanatini ichidan zaiflashtirganini bilar edi. Shu o'rinda Shayboniyxon dinni niqob qilib olgan inson sifatida qalamga olinadi.

“...Shayboniyxon xonlik hokimiyati bilan diniy hokimiyatni o'z qo'lida birlashtirib, temuriylarga nisbatan katta bir ustunlikka erishmoqda edi. U Buxoroda madrasada o'qib yurganda shariat va tariqat ilmini yaxshi o'rgangan, qur'onni yod bilar edi. Hozir Shayboniyxonning qarorgohida islom dinini undan yaxshi biladigan, qur'onni qiroat bilan o'qishda undan o'tadigan odam yo'q edi. Uning imomlik va xalifalik unvonlari shundan ham kelib chiqqan edi. Shayboniyxon markazlashgan ulug' bir davlat tuzishga intilar ekan, bu maqsadga tezroq yetish uchun qo'l ostidagi odamlarning ixlos va e'tiqodini ham qozonishga, ularning mafkurasini o'ziga bo'ysundirib, hammasini bir dohiy atrofiga jipslashtirishga alohida e'tibor berar edi. U o'z davrining eng zo'r mafkurasini — diniy mafkura ekanligini yaxshi bilardi.”¹ [Qodirov, 2018: 206]

Yuqoridagi fikrlarni badiiy asarda o'qigan kitobxonda, albatta, Shayboniyxonga nisbatan nafrat tuyg'ulari shakllanadi. Aslida esa “Yulduzli tunlar” asari yozilgan davr mafkurasini yozuvchini shunga majbur etadi. Bobur obrazini ochib berish uchun ham Shayboniyxonning salbiy jihatlari oshirib, bo'rttirib beriladi.

Mustaqillikdan so'ng tarixiy asarlardagi shaxslar haqidagi haqiqatlar ham asta sekin o'z isbotini topmoqda. Xususan, Shayboniyxon obrazi Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani yoki Sa'dulla Siyoyevning “Dashti qipchoq lochini yoxud Muhammad Shayboniyxon” qissasida yorqin ranglarda tasvirlanadi.

Isajon Sulton Shayboniyxon obrazini mohir sarkarda, adabiyot va san'at homiysi, o'z askarlarining munosib yo'boshchisi va kerakli o'rinlarda askarlari talab ketgan joylarni ortga qaytib haqini to'lab ketuvchi insofli shaxs sifatida tasvirlaydi.

“Muhammad Shayboniyxon barvasta gavdali, yuzi dasht shamollarida qoraygan, yanoqlari turtib chiqqan, qisq ko'zli yigit edi. Ayni chog'da u o'n sakkiz yoshda bo'lib, chaqqonlik va o'zg'irlikda Dashti Qipchoqda unga teng keladigan biror kishi yo'q. Shayboniyxon chingiz saltanatining quyoshi tamomila botganini ko'rib qattiq ezilar, el ulug'lari qoshiga borib dardu iztirobini to'kib solib, ularni ruxsatini olib,

¹ P.Qodirov. Yulduzli tunlar. Bobur. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2018. 206-bet.

o‘zbek xonlari shuhratini tiklash va barchani qudratli bir qo‘l ostida birlashtirish orzusida yashardi...

Dasht uning o‘z uyi edi. Qayga bulut chiqdi, yomg‘ir yog‘di, qayga sel keldi, qayda ne o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, samoga qarab bilardi. Sira yumshoq ko‘rpa-bolishlarda yotmas, lozim bo‘lsa otining egarini boshiga qo‘yib, tagiga po‘stinini to‘shab mizg‘ib ketaverar, taom ham tanlamas, askar ne yesa, u ham shuni yerdi. Yana qadim qo‘shiqlarni xush ko‘rardi, do‘mbirachi yoki qo‘bizchisini chorlab, xalq dostonlarini aytirib o‘tirardi. Bu uning ilm yoki boshqa san’atlardan uzoq emasligini bildirardi, zotan, o‘zi ham abyotdan yaxshigina xabardor va duppa-durust g‘azallar bitardi”.¹[Sulton, 2021: 162-163]

Roman voqealari shiddatli tus olar ekan Abu Said vafotidan so‘ng temuriylar taxtiga Husayn Boyqaro keladi. Ushbu vaqtni poylagan ko‘plab taxt ixlosmandlari dog‘da qoldi. Ko‘plari birlashib Husayn Boyqaroga qarshi fitna tuzishni boshlaydilar. Ammo Shayboniyxon Xo‘ja Ahmad Yassaviyni pir tutganligi va temuriylarni do‘st bilgani uchun qarshi chiqmaydi. Keyinchalik esa Alisher Navoiy hurmati yuzasidan ham Hirotda qarshi yurish qilmay turadi. Navoiy vafoti voqeasini eshitgan Shayboniyxon holati quyidagicha tasvirlanadi:

“- Nizomiddin Mir Alisher Navoiy Xiriyda bandalikni bajo keltiribdi.

Shayboniyxon o‘rnidan turib ketdi.

-Hay Oллоh! Hay Oллоh!

-E voh!-dedi so‘ng, siyrak sochli boshini quyi egib.-Turk eli boshiga kelgan eng qattiq musibat mana shu bo‘lmish. Men Xurosonni Navoiy bo‘lgani sababli bosmagay erdim.

Keyin “Axir, u yerda Lut bor-ku!” oyatini o‘qidi.

-Musibatning sopol toshlari ulus boshiga yog‘ilibdi,-dedi Shayboniyxon qayg‘uda. –Mundin so‘ngra bu el boshig‘a unday zot kelgay, yo kelmagay. Hay Oллоh!... Cherikka ma‘lum qiling, Xuroson yurishiga hozirlik ko‘rilsin!”² [Sulton,2021: 437]

Yuqoridagi parcha orqali Shayboniyxonni adabiyotdan uzoq bo‘lmagan va unga homiylik qiluvchi, bundan tashqari Alisher Navoiyga nisbatan cheksiz ehtiromini his etamiz.

S.Siyoyevning “Dashti qipchoq lochini yoxud Muhammad Shayboniyxon” asarida Shayboniyxon temuriylar birlashtira olmagan Markaziy Osiyoni qo‘l ostida birlashtirgan, lashkarboshilik jihatlarini, shuningdek shoir, islohotchi, olim va mutaffakkir sifatlarini namoyon etgan shaxs ekanligi ko‘rsatilgan. Asar voqealari

¹ Isajon Sulton. Alisher Navoiy. Toshkent -2021. 162-163-bet.

² Isajon Sulton. Alisher Navoiy. Toshkent -2021. 437-bet.

Shayboniyxonni tanishtirishdan boshlanadi, asl ismi Abdulfatx Muhammad otanasidan erta yetim qolganligi, unga va ukasi-Sulton Mahmudga Mazid tarxon homiylik qila boshlaganligi aks etgan. Shayboniyxonning diniy ta'lim olishida Mazid tarxonning hamda ustoz Shayx Mansurning xizmatlari katta bo'lgan.¹ [Soliyev,2022: 434]

Shayboniy yollanma qo'shin boshlig'idan xon darajasiga ko'tarilgan tarixiy shaxsdir. U nafaqat sarkarda balki, Shohbaxt, Shoyboq, Sheboni, Shohibek, Shayboniy taxalluslari bilan g'azal, ruboiylar bitgan shoir hamdir. Shayboniyxonning adabiy me'rosidan bizgacha bir nechta o'zbekcha g'azal, ruboiy va «Bahr-ul xudo» nomli dostoni va 1507-1508-yillarda yozilgan o'g'li valiaxd Temur sultonga atalgan pand-nasihatlardan iborat kitobi mavjud.

S.Siyoyev quyidagi parcha orqali Shayboniyxonning savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi, ta'lim sohasiga qo'shgan hissasiga alohida to'xtalib o'tadi: "Biz, Turkiston elining sultoni, Samarqand podshosi Muhammad Budog' o'g'li Shayboniyxon mundaq qaror qilduk: Shahar bozori buzib tashlansin, o'rnida keng, obod, sarishta dehqon bozori bunyod etilsun. Toshkentda to'qqizta yangi hovuz qazilsinki, xalq ichkilik suvig'a zor bo'lmag'ay. Bo'zsuv anhoridan shahar ichkarisiga kichik-kichik ariqlar o'tkazilsin. Madrasalar ta'mirlansin, mudarrisning maoshi ikki barobar oshirilsin, tolibi ilmlarga beriladigan nafaqa ham ikki hissa ko'paytirilsin. Ularga Ramazon va Qurbon hayiti bosh-oyoq libos berilsin. Bozorda o'z molini sotib o'tirgan dehqon ahlidan soliq oz olinsin. Harajatlar baytul-mol hisobidan qoplansun. Muhrimizni bosdik. Imom uz-zamon, xalifat-ur rahmon Shayboniyxondirmiz. Hijriy 907 sana, shavvol."²[Siyoyev,2021: 39]

Shayboniyxon tarixni sevgan va tarixiy asarlar yaratilishida o'zi shaxsan ishtirok etgan. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Shayboniyxon o'zbek (turk) tilida bitilgan o'ziga xos manba — "Tavorixi guzidayi nusratnoma" asarining yozilishida bevosita ishtirok etgan.³[Xayrullayev,1999: 26] Shayboniyxonning islom dini borasida yaxshi bilimga ega ekanligini hatto Bobur ham tan oladi. Shayboniyxon Qur'onni yaxshi bilgan va diniy ulamolar, shoirlar bilan suhbat qurishni xush ko'rgan.⁴[Bobur,1989: 128]

Shuning uchun bo'lsa kerak Shayboniyxon o'zini chin musulmonlar, ya'ni sunna mazhabidagi musulmonlarning boshlig'i va ularning ximoyachisi deb hisoblardi. Shuning uchun ham Shayboniyxon davrida yashagan olimlar xususan, shoir va

¹ Soliyev Shoxrux. Sa'dulla Siyoyevning "Dashti Qipchoq lochini yoxud Shayboniyxon" asarida Shayboniyxon obrazi muqolasi. „Turkiy xalqlar filologiyasida fundamental tadqiqotlar va innovatsion ta'lim texnologiyalari“ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami.2022. 435-bet.

² Sa'dulla Siyoyev. Dashti Qipchoq lochini yoxud Muhammad Shayboniyxon. – Toshkent:Navro'z, 2021. 39-bet.

³ Xayrullayev M.M. Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. 26-bet.

⁴ Zahiriddin Muhammad Bobur Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha nashriyoti, 1989. 128-bet.

tarixchilar uni "Xalifa ur-Rahmon" va "Imom az-Zamon" ya'ni "davr imomi" va "tangrining yerdagi xalifasi" deb ulug'laganlar. Bu nom Shayboniyxonga Hirot olingan yili berilgan.

Shayboniyxon o'z hayoti davomida Alisher Navoiyga cheksiz ehtirom tuyg'usi bilan yashaydi. Qissada ham ushbu o'rinlar kiritib o'tiladi va kitobxonda Shayboniyxon shaxsiga nisbatan ijobiy tuyg'ular shakllanadi.

Shayboniyxon o'zini Alisher Navoiyning ma'naviy shogirdi hisoblar, o'nlab g'azallarini yod bilar va o'z qo'li bilan ilk devonini ko'chirgan edi. Shayboniyxon turkiy tilni nihoyatda qadrlagan. U Hiroda bundan boshlab devon ishlari turkiy tilda yurgizilishi haqida buyruq beradi. Shuningdek, asarda Shayboniyxon turkiy til haqida kuyunib shunday deydi: " – Ajab maxluq erkan bu odamzod deganlari. Bir burda non umidida tuvg'on tilidan kechib, begona alfozda chuldiramakni afzal ko'radir. Oллоh, olloh! Iftixor qani? Mir Alisher "Muhokamat ul lug'atayn" da bizlarga ne deb vasiyat qilmishlar" ¹ [Siyoyev,2021: 92]

Shayboniyning ma'rifatparvarligi xususida so'z borganda uning faoliyatini yaxshi o'rgangan olim H. Vamberining ushbu fikrlari esga tushadi: "...bu urush odami maorif va madaniyat haqida o'z davrining ruhidan to'la xabardor va zamonasidagi tengdosh shoirlarning aksariyatidan ortiq darajada qalam sohibi bo'lgan. Chunki uning she'rlari, dushmanlari fikrining teskarisi o'laroq, buyuk bir iqtidor va go'zal tabiatga molik ekanini, u ham turkiy, ham forsiy, ham arabiy tillardan asosli suratda voqif ekanini ko'rsatmoqda... U maorif jihatidan oldingi Temur shahzodalarning aksaridan past emas edi".

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tarixiy romanda tarixiy haqiqat va badiiy to'qima o'rtasidagi muvozanat bo'lishi shart hisoblanib, tadqiqotchi tarixiy romanlar poetikasini o'rganishda buni yodda tutishi lozim bo'ladi.

¹ Sa'dulla Siyoyev. Dashti Qipchoq lochini yoxud Muhammad Shayboniyxon. – Toshkent:Navro'z, 2021. 92-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 49 -b.
2. Odil Yoqubov. So'z. Birinchi kitob. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati.
3. P.Qodirov. Yulduzli tunlar.Bobur. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.Toshkent-2018. 174-bet
4. Sa'dulla Siyoyev. Dashti Qipchoq lochini yoxud Muhammad Shayboniyxon qissasi. -Toshkent: Navro'z, 2021. – B.144
5. Xayrullayev M.M. Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti, 1999.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha nashriyoti, 1989. – B.386
7. Isajon Sulton. Alisher Navoiy. Toshkent -2021. 437-bet.
8. Soliyev Shoxrux. Sa'dulla Siyoyevning “Dashti Qipchoq lochini yoxud Shayboniyxon” asarida Shayboniyxon obrazi mqolasi. „Turkiy xalqlar filologiyasida fundamental tadqiqotlar va innovatsion ta'lim texnologiyalari“ mavzusidagi xalqaro ilmiyamaliy anjuman materiallari to'plami. 435-bet.

IMPACT OF GLOBALIZATION ON THE ENGLISH LANGUAGE IN THE MODERN EDUCATIONAL SPACE

Murtazayeva SH.K.

Academy of Banking and Finance of the Republic of Uzbekistan.

noza_j.lo@mail.ru

ABSTRACT

The article examines the main characteristics and role of the globalization process in the modern world, as well as its connection with the English language, which occupies the place of the language of world communication in the XXI century.

KEYWORDS

Globalization, English, global English, intercultural communication, international culture, an international language.

Globalization is considered one of the social phenomena of the information society, the peculiarity of which is the disappearance of barriers and the emergence of interethnic cultures. It is considered a historical phenomenon of the modern era and is understood as a series of processes that make up the unity of the world. In the XXI century, a person has every reason to be proud of his achievements. Significant political, economic, social, demographic and cultural changes are taking place in the modern world. Technological progress has accelerated the pace of globalization, and development, competition, interconnection and cooperation have become key features of the international economy and foreign policy. Economic, political and ideological borders between the countries began to blur, and the process of world integration began, inspiring hope and faith in establishing peace and maintaining stability in relations. However, the future of an interdependent world remains uncertain. Whether the idea of community and cooperation of nations coexisting in a world without barriers will become a reality, and whether we will eventually be able to come to international solidarity, depends on how relations between peoples and countries are built and how great the potential for communication in the world community [1].

Several urgent problems faced by modern man in the XXI century, such as global warming, ecology, the fight against AIDS, terrorism, and drug trafficking, are becoming millennium problem that requires a "global approach" in perception and thinking, as well as "global" responses. It is quite difficult to deny the fact that scientific and technological progress and the development of a modern communication system

are taking place against the background of the rapid spread of the English language around the world. Today it is the most popular language among students. It is also worth noting its dominant role in the field of science, where 70-80% of all publications are published in English. English is the official language of most international organizations and has official status in countries around the world. None of the existing languages has such a privileged status in the EU as English, although within this organization there is an official policy of ensuring equal status for all official languages of the EU. Only English is the language of contact between people speaking different languages [2]. Currently, English has already established itself as the lingua franca, the language of international communication. An international language is a language that can be used to communicate by a significant number of people around the world. [3] In ancient times, ancient Greek was an international language, then for more than a thousand years, Latin was the most important international language used for international communication in all spheres of human life. Negotiations were conducted on it, trade deals were concluded, and scientific papers were written. In the XVI-XVII centuries, Spanish was used as an international language. At the beginning of the XVIII century, French became the most important language of international communication in Europe. In the XIX century, the German language also acquired great importance due to the high achievements of German scientists of that time. In parallel, English and Spanish were developing as international languages, thanks to the colonies of these countries scattered around the world [4]. At the end of the XX century, English became the most important international language. Now thousands of newspapers and magazines of recent years are full of headlines of this kind. This statement seems so obvious that most of us are unlikely to dispute its validity. English is the language of international communication. All over the world, English is becoming the language of popular publications, international business and diplomacy, scientific conferences, sports arena, popular music, cinema and advertising. In modern society, it is in greater demand than ever before in history. Proficiency in this language opens up huge opportunities for those who want to keep up with the times. The uniqueness of the situation also lies in the fact that the number of people using it as a foreign language is significantly more than native speakers (currently this ratio is 3:1). So, it can be argued that the English language largely provides access to the treasury of world knowledge, especially in areas such as science and technology, and this is the basis of education. The reason why in recent years many countries have given English the status of an official language or have chosen it as the main foreign language in their schools is the possibility of getting a good education. Since the 60s, English has been taught at universities in many countries. Since most students are constantly confronted with

monographs and periodicals in English, it would be advisable to train them to better prepare them for this work. In many cases, teachers also face a multilingual audience since universities and colleges are constantly increasing the intake of international students. All this speaks in favour of English as the most common language of international communication. It would be a mistake to believe that the globalization of the English language is the result solely of economic and political superiority. It is necessary to pay attention to the peculiarities of the English language, which predetermined its victory in a kind of race for world linguistic dominance. Firstly, it is the richness and depth of the lexical composition. The 20-volume Oxford Dictionary of Modern English includes more than 615 thousand words (for comparison, the 20-volume Large Academic Dictionary of the Russian language contains about 215 thousand words). Taking into account scientific and technical terminology, the total lexical composition of the English language will exceed one million words, which makes it the largest in the world. According to some estimates, the vocabulary of the English language is currently being actively replenished with new words: from 8000 to 20,000 lexical units annually. In general, about 200,000 English words are used, which is at least 2 times more than words, for example, German, Russian or French. The presence of a large number of synonyms, and the phrasal and idiomatic richness of the English language contain the potential to express a variety of meanings and solve any communicative tasks - from everyday communication to high poetry. Secondly, English has an important quality of flexibility. Flexibility manifests itself at different levels of the language system. The word order, the accompanying category, the possibility of using the same word as a noun and verb, and large derivational possibilities - all this works for the flexibility of the English language as a communicative tool. Thirdly, the grammar of the English language has a higher degree of unification than most languages of the world. For example, the gender category is completely conveyed by the word and does not require additional manifestation using articles, as in German or Spanish. A predicate can easily do without a subject. The case forms of nouns in English are practically absent (except for some personal pronouns), which, compared, for example, with Finnish, which has fifteen forms for each noun, or Russian with its 12 forms, is an example of the highest degree of grammatical unification of the system. The same should be said about the verb: if, for example, in Latin, the verb had 120 possible forms, and in modern German - 16, then English operates with only 5 forms, of which only 3 are actively used. Fourth, English is considered relatively simple in terms of spelling and pronunciation: it does not require mastering subtle tonal variations of pronunciation, like Cantonese, nor a bizarre, sometimes to the point of extravagance, the combination of consonants, like Welsh or

Gaelic. Of course, English includes some sounds that are usually difficult for foreigners to pronounce or sounds that have many possible variants of graphic fixation. However, the relative phonetic and graphical simplicity of the English language is supported by regularity in the pronunciation of consonants and freedom from diacritics of vowels and consonants. In addition, borrowings from foreign words in English, as a rule, retain the original spelling. Phonetic predictability of graphic transmission in English is quite high (84% [5]), while those who know Latin but do not know English are unpredictable in pronunciation, will write no more than 3% of English words (those about which English learners playfully say: "write Manchester - read Liverpool"). Fifthly, the globalization of the English language is facilitated by its cosmopolitan nature: it actively accepts thousands of words from other languages with which it has historically come into contact, which gives it a sense of closeness and accessibility, a kind of linguistic hospitality, unlike languages such as, for example, French, which does everything possible to prevent other languages from influencing him, - this is an extreme manifestation of linguistic. The linguistic factors of the attractiveness of the English language listed above are of great importance for obtaining global status, but they cannot provide it without well-known extra-linguistic factors: technological, political and economic. Therefore, even though in the modern world English as a global language is in an impregnable position, its future as such is not necessarily guaranteed. In the Middle Ages, Latin seemed to have established itself forever as the universal language of education and culture. He seemed unchanged but changed. First of all, it should be remembered that among the languages of international communication, there have historically been contenders for worldwide distribution, but their claims, however, did not go beyond the territories of multinational state entities (Roman, Byzantine, Mongolian, and French empires). Many scientists reasonably claim that in the fields of business, science, computer science, education, transport, politics, sports, entertainment and mass consumption, English has become a global language of interethnic communication [6]. Moreover, it is not only a source but also an intermediary for the export of lexical units and grammatical constructions. In addition, it is important to take into account that the fact of fluency in English today is not as important for linguistic globalization as the fact of its active use. For comparison, the most widely spoken language in the world - the Mandarin dialect of Chinese - has about 1 billion native speakers, and English - has about 400 million, but according to the British Council, about 2 billion more people regularly use English (not being native speakers). In addition, global Internet communication, the main tool of which has historically been the English language, inexorably expands the composition of the "users" of the global language. When representatives of the "gadget generation" make

up the majority of the world's population, the consequences of these trends will worsen. Signs of this can still be seen today. For example, the UN currently uses five official languages: English, French, Spanish, Russian and Chinese, but about 90% of international organizations use English as at least one of their official languages (while French already makes up less than 50%). Moreover, about a third of international organizations (OPEC, ASEAN, etc.) use English exclusively as the official language, and this figure is growing - more than 90% among Asian international organizations. To understand the prospects for the development of a global language, it is necessary to take into account the opposition of two trends - towards the universalization of instruments of intercultural interaction, on the one hand, and the preservation of national identity, on the other. The dominance of an external language or culture can lead to a negative reaction. Although most of the former British colonies retained English as their official language after independence, discontent with the cultural dominance of English is growing in some countries. Paradoxically, the latter trend is especially noticeable in the United States (the quantitative growth of the Latin American population, the formalization of the Spanish status in some states, etc.) with their dominance in economic, technical and political terms. It is the United States that is the driving force of the English language in the modern world. However, if the United States loses its dominant position in these areas, the linguistic loyalty of other countries may decrease significantly until it is replaced by a new dominant force. And here we encounter another paradox. The only possible candidate to compete with the United States in technological and economic (but not political) aspects in the foreseeable future is China. But China is one of the most active exploiters of the global English language [6]. The increase in the number of people who speak English to one degree or another has reached a historical maximum of 2 billion, mainly due to the population of India and China. Perhaps that is why the long-term future of English as a global language is in the hands of Asia. The latter partly explains why Chinese, whose main dialect (Mandarin) is spoken by about a billion people, is far from the status of not only global but also sub-global. At the same time, the key to the stability of the global status of the English language is the fact that this language has become the main tool of Internet communication, which today involves more than 5 billion people who cannot do without knowledge of the Latin alphabet and a minimum set of several dozen words that make up the vocabulary of a modern Internet user, starting with the most common globalism-ok (okay, OK). It should be noted that, although the coincidence of some extra-linguistic factors was important for obtaining the global status of the English language, linguistic factors themselves were crucial for maintaining this status. The fact of American influence in the modern world cannot be denied. The

globalization of trade, the economy and the spread of the American way of life - what is called "Americanization" - contributed to the development of American English. Having become the world language of entertainment, business, and science, American English laid the foundation for the further expansion of American culture. Global markets and a global entertainment and travel network are followed by global communication in an international language. Again, it is permeated through and through with American national characteristics, which cannot always be understood and accepted by other people. E-mail and the Internet are used all over the world today, and it is undoubtedly a very convenient, fast and effective means of communication. Only one "but": people in different countries are forced to adapt to the language and features of electronic means of communication, which were created, of course, for the English language. To communicate in another language, they have to resort to various technical tricks. For example, superscript characters adopted in different European languages cannot be used in most mail programs, the same applies to non-Latin alphabets (Russian, Greek, Chinese, Japanese, etc.). In addition, "fast English" has its etiquette and standards of politeness, which many are horrified by. For example, the standard "best wishes" and "warm wishes" automatically placed at the end of letters simply cannot be accepted by those for whom English is not their native language. Worse, all these communication innovations are shared by people. Even with traditional methods of communication (for example, face-to-face meetings, telephone conversations), non-native speakers always find themselves in a more difficult situation. It is not only English that is difficult. The difference in cultures and mentalities is an additional obstacle. Non-native speakers continue to think in their native language, trying to express the specifics of their thinking in English. And he's not always perfect for it. The efforts of a person trying to communicate in a foreign language should at least be appreciated and supported. A native speaker should be aware that he is in a better position and help his foreign interlocutor: speak slowly, articulate clearly, choose the right words, and avoid slang, jargon and complex sentences. 66 In conclusion, we can say that, although today English can be considered the language of international communication or a global language, we cannot say with absolute certainty that it can hold these positions and strengthen them. Therefore, thinking about the future of the English language as a world language, we must analyze some patterns and trends that may interfere with this phenomenon [7]. There are situations when residents of the country experience such a hostile attitude to the English language that they refuse to give it the status of an official or first foreign language. Such an attitude arises as a reaction to the protection of one's language - a symbol of national identity and individuality. Most people have a natural desire to

speak their native language, to see its further development. Imposing the language of another culture does not cause them positive emotions. Many peoples associate English with the colonial period when society despised local languages. If a certain number of countries take such a position, then the decision on assigning the status of the world language to English will be very problematic. Nevertheless, the influence of the English language in the world is great and continues to grow every year.

List of literature:

1. Giddens, A. The global third-way debate / A.Giddens. – Massachusetts: Polity Press Malden, 2001. – 431 p.
2. Grin, F. European Economic Integration and the Fate of Lesser-Used Languages / F. Grin // Language Problems & Language Planning. – 1993. nNo. 2. – P. 101-116.
3. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language / D.Crystal // Cambridge University Press. – 1995. – 499 p.
4. Pei Mario. The story of language. – Philadelphia, P. Lippincott company, 1949. – 508 p.
5. Crystal D. English as a Global Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1997. 212 p.
6. Ronen S., Goncalves B., Hu KZ, Vespignani A., Pinker S., Hidalgo CA Links That Speak: The Global Language Network and Its Association with Global Fame [Electronic resource] // Proceedings of the National Academy of Sciences. URL: <http://dx.doi.org/10.1073/pnas.1410931111> (accessed date: 1.02.2020).
7. Dolgenko A. N., Kozyreva M. S. Internationalism and Globalism // Ethnosocium and interethnic culture. 2016. No. 6 (96). pp. 120-126.

ABU NASR FAROBIY HAYOTI VA ILMIY MEROSI

Muxammadiyev Islomjon G‘ayrat o‘g‘li

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat

Pedagogika Universiteti

Tarix fakulteti 2-kurs talabasi

Tarix fanlar nomzodi. **N.O‘.Hidirova**

***Annotatsiya.** Hozirgi kunda erishilayotgan yutuqlarning barchasi o‘rta asrlarda yashab o‘tgan allomalarimizning yozib qoldirgan ilmiy meroslar orqali yuzaga kelgan. Bu davrda Sharq mutafakkirlarining asarlari barcha soha bo‘yicha butun dunyo uchun asosiy qo‘llanma hisoblangan va hozirgi kunda ham o‘z ta‘sirini yuqotmagan. Abu Nasr Farobiy falsafa, mantiq, matematika, astranomiya, musiqa kabi bir qancha sohalarda faoliyat olib borgan. Abu Nasr Farobiyning asarlari yunon faylasuflari asarlariga izoh va tahlil bilan yozilgan. Shu kabi allomalarimizning asarlaridan hozirgi kunda ham foydalanib jamiyat rivojlanishi uchun katta hissa qo‘shib kelinmoqda.*

***Kalit so‘zlar:** falsafa, mantiq, Abu Nasr Farobiy, optika, riyoziyot, damashq, buxoro, Sharq uyg‘onish davri, “al -Muallim as-soniy”, “Sharq Arastusi”.*

***Аннотация:** Все достижения, которые достигаются сегодня, были созданы благодаря научному наследию наших ученых, живших в Средние века. В этот период труды восточных мыслителей считались главным ориентиром для всего мира во всех областях и не утратили своего влияния и сегодня. Абу Наср Фараби активно работал в нескольких областях, таких как философия, логика, математика, астрономия, музыка. Работы Абу Насра Фараби написаны с комментариями и анализом произведений греческих философов. Работы наших ученых до сих пор используются, чтобы внести большой вклад в развитие общества.*

***Ключевые слова:** философия, логика, Абу Наср Фараби, оптика, математика, Дамаск, Бухара, Восточное Возрождение, «ал-Муаллим ас-Сани», «Восточный Аристотель».*

***Annotation.** All the achievements that are being achieved today were created through the scientific heritage of our scholars who lived in the Middle Ages. During*

this period, the works of Eastern thinkers were considered the main guide for the whole world in all fields and have not lost their influence even today. Abu Nasr Farabi was active in several fields such as philosophy, logic, mathematics, astronomy, music. The works of Abu Nasr Farabi were written with comments and analysis of the works of Greek philosophers. The works of our scholars are still being used to make a great contribution to the development of society.

Key words: *philosophy, logic, Abu Nasr Farabi, optics, mathematics, Damascus, Bukhara, Eastern renaissance, "al-Muallim al-Sani", "Eastern Aristotle".*

Abu Nasr Farobiy (to‘liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon Forobiy) - falsafa va mantiq sohasida ulkan ishlarni amalga oshirgan faylasuf, o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan mutafakkirlaridan biridir¹. U nafaqat falsafa balki, matematika, astranomiya, tabobat, musiqa, til va adabiyot fanlari doirasida ham faoliyat yuritgan. Shu bois Abu Nasr Farobiy “al -Muallim as-soniy” (“Ikkinchi Muallim”), “Sharq Arastusi” nomlariga sazovor bo‘ldi. U 873-yilda Aris daryosining Sirdaryoga qo‘yiladigan joyida – Shosh - hozirgi Toshkentdan 200-260 km shimoli-g‘arbda joylashgan Farob (O‘tror) degan joyda turkiy qabilaga mansub harbiy xizmatchi oilasida tug‘ilgan. O‘sha davrda Movarounnahrda Somoniylar sulolasi hukmronlik qilayotgan edi. Bo‘lajak faylasuf boshlang‘ich bilimni O‘trorda olgandan so‘ng, o‘qishini Toshkent, Samarqand va Buxoroda davom ettirdi. Abu Nasr Farobiy o‘z bilimlarini yanada chuqurlashtirish maqsadida Arab xalifaligining madaniy markazi- Bag‘dodga yo‘l oladi. Olim yo‘l-yo‘lakay Eronning Ray, Hamadon, Isfahon kabi yirik shaharlarida ham ta‘lim oladi. Bu vaqtda Bag‘dodda Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridan kelgan talaba va olimlar to‘plangan edi. Shu bois u ko‘zga ko‘ringan olimlar bilan tanishadi, yunon falsafiy maktabi, turli fan sohalari namoyandalari bilan uchrashib, ulardan ilm sirlarini o‘rganadi. Masalan, Abu Bashir Matta ibn Yunusdan (870—940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Hiylondan (860—920) esa tibbiyot va mantiq ilmini o‘rgandi. Ba‘zi tarixiy manbalarda keltirilishicha, Farobiy 70 dan ortiq tilni bilgan. Taxminan 941-yildan boshlab Abu Nasr Farobiy Damashqda yashab, kamtarona va g‘aribona hayot kechiradi². Abu Nasr Farobiy ilm-fan tarixida yirik mantiqshunos, faylasuf sifatida mashhurdir, uning tarjimai holi haqida tibbiyot tarixiga oid kitob bitgan arab olimi Ibn Abi Usaybia (1203-1270) shunday yozadi: “Abu Nasr Farobiy bir qancha vaqt Bag‘dodda yashaydi, keyin Shom (Suriya)ga ko‘chib kelib, umrining oxiriga qadar shu yerda turib qoladi. U yetuk faylasuflardan, fozil donishmandlardan edi, hikmat-falsafaga oid fanlarni mukammal bilardi. Riyoziyot

¹Irisov Abdusodiq. Farobiy adib. – Toshkent.: O‘zSSR FA. Fan.1975. – B. 3.

² Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: “O‘zbekiston milliy ensiklopidiyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2012. – B. 3

(matematika), falakiyot (astronomiya) ilmlariga mohir, pokiza, yirik alloma kishi edi. Mol-dunyo bilan ishi yo‘q edi, “o‘lmas ovqat”ga chidab yashaydigan qanoatli odam edi. Uning fe‘l atvori xuddi qadimgi faylasuf-hakimlar odobiga uxshardi. U tib ilmidan ham durustgina xabardor edi. Bu ilmga oid nazariyani yaxshi bilar edi”¹.

Abu Nasr Farobiy Aleppo (Halab) hokimi Hamdamid (hukmronlik yillari 943—967) davriga kelib olimlarning homiysi sifatida taniladi va Halabdagi hayoti sermahsul bo‘ladi, bu yerda o‘zining ko‘plab asarlarini yozadi. Abu Nasr Farobiy 949—950 yillarda Misrda, so‘ngra Damashqda yashaydi va shu yerda umrining oxirgi kunlarini o‘tkazadi. U Damashqdagi “Bob as-Sag‘ir” qabristoniga dafn etilgan. Xuddi shu ma‘lumotlarni Ibn Abu Usaybia, Ibn Xallikon, Abu-l-fido o‘z asarlarida keltirib o‘tadi. Ammo al-Bayhaqiy takidlashicha “Abu Nasr Farobiy Damashqdan Asqalonga safar qilgan vaqtda yo‘lda qaroqchilar to‘dasi tomonidan qatl etiladi. Bundan habardor bo‘lgan Shom amirlari qaroqchilarni topib, Farobiy ko‘milgan qabrga yog‘och qoqib qaroqchilarni shu yog‘ochga osib qo‘yishadi”².

Olimning ilm-fan oldidagi xizmatlaridan biri uning yunon mutafakkirlari asarlarini sharhlaganligi va ularni yangi g‘oyalar bilan boyitganligidir. Abu Nasr Farobiy Platon, Arestotel, Zepon, Aleksandr Afrodiziy, Yevklid, Ptalomey, Porfiriy asarlariga sharh yozgan³.

Abu Nasr Farobiy 160 dan ortiq asar yozgan. Lekin ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Shunday bo‘lsada, Abu Nasr Farobiyning boy merosi hozirgi kunda keng o‘rganilmoqda va o‘zbek, qozoq, rus tillariga tarjima qilinib nashr etilmoqda. Abu Nasr Farobiyning asosiy asarlari: “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g‘risida”, “Falsafiy savollar va ularga javoblar”, “Ensiklopediyadan mantiq bo‘limining bir qismi”, “Taliqot” (sharhlar), “Inson a‘zolari haqida risola”, “Bo‘shliq haqida maqola”, “Donolik asoslari”, “Falsafaning ma‘nosi va kelib chiqishi”, “Hayvon a‘zolari, funksiyasi va potensiyasi”, “Mantiq to‘g‘risidagi risolaga muqaddima”, “Mantiq ilmiga kirish”, “Ilmlarning kelib chiqishi haqida”, “Musiqqa haqida katta kitob”, “Baxtsaodatga erishuv haqida”, “Masalalar mohiyati”, “Buyuk kishilarning naqlari”, “Ihso al-ulum”, “Hikmat ma‘nolari”, “Aql to‘g‘risida”, “Ilmlar va san‘atlar fazilati”, “Qonunlar haqida kitob”, “Substansiya haqida so‘z”, “Falak harakatining doimiyliigi haqida”, “She‘r va qofiyalar haqida so‘z”, “Ritorika haqida kitob”, “Hajm va miqdor haqida so‘z”, “Musiqqa haqida so‘z”, “Fizika usullari haqida kitob”, “Fazilatli xulqlar”, “Fozil shahar aholisining fikrlari”, “Jismlar va aksidensiyalarning ibtidosi haqida”, “Aristotel “Metafizika” kitobining maqsadi

¹ Abu Nasr Farobiy. Fazilat baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent.: “Mutafakkir” xalqaro xayriya jamg‘armasi. Yozuvchi. 2001. – B. 3

² Irisov Abdusodiq. Farobiy adib. – Toshkent.: O‘zSSR FA. Fan. 1975. – B. 13

³ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2022. – B. 5

to‘g‘risida” va boshqa Abu Nasr Forobiy asarlari XX-asrning 70—80-yillarida Toshkent va Olmaotada “Falsafiy risolalar”, “Mantiqiy risolalar”, “Matematik risolalar”, “Ijtimoiy-axloqiy risolalar”, “Tadqiqotlar va tarjimalar” nomlari ostida rus tilida nashr etilgan.

Abu Nasr Farobiy ilk o‘rta asrda, Sharq Uyg‘onish davrida ijod etdi. Bu davr ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘ssishi, hunarmandchilik, irrigatsiya inshootlarining yuksalishi, yangi shaharlarning bunyod etilishi, madaniy va ma‘naviy hayotning ravnaq topishi bilan ajralib turadi. Abu Nasr Farobiy ilmlarni quyidagicha tasniflaydi: 1) til haqidagi ilm. U yetti bo‘limdan iborat (grammatika, orfografiya, she‘riyat, to‘g‘ri yozuv va boshqalarni o‘z ichiga oladi); 2) Mantiq. Sakkiz bo‘limdan iborat bo‘lib (tushuncha, muhokama, xulosa, sillogistika, dialektika, sofistika va boshqalarni o‘z ichiga oladi); 3) Matematika, yetti mustaqil ilm (arifmetika, geometriya, astronomiya, mexanika, optika, sayyoralar, musiqa va og‘irlik haqidagi ilmdan iborat); 4) Tabiiy ilmlar, ilohiy ilmlar yoki metafizika; 5) Shahar haqidagi ilm (siyosiy ilm, fiqh, axloqshunoslik va kalom kiradi)¹.

Abu Nasr Farobiyning fanlar tasnifida tabiiy va ijtimoiy fanlar o‘z vazifasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, matematika, tabiatshunoslik va metafizika ilmlari inson aql-zakovatini boyitishga xizmat qiladi, grammatika, she‘riyat va mantiq esa fanlardan to‘g‘ri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga to‘g‘ri tushuntirish, ya‘ni akliy tarbiya uchun xizmat qiladi. Siyosat, axloqshunoslik va pedagogikaga oid bilimlar kishilarning jamoaga birlashuvi, ijtimoiy hayotning qonun va qoidalarini o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda Abu Nasr Farobiy IX-XII asrda yashab faoliyat yuritgan boshqa Sharq allomalari kabi ko‘plab fan sohalarida ijod qildi va ularni rivojlanishiga munosib hissa qo‘shdi. U yunon olimlarining asarlariga murojat qilib ayrim asarlariga sharhlar yozdi. Abu Nasr Farobiyning ilmlar tasnifi to‘g‘risidagi ma‘lumotlari o‘rta asrda turli fanlarning rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘lib va keyingi davrlarda yashagan olimlar uchun qo‘llanma vazifasini o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.Mirziyoyev. Islom taraqqiyot banki 46-yillik yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Forobiy>
3. Irisov Abdusodiq. Farobiy adib. – T.: 1975.
4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: 2012.
5. Abu Nasr Farobiy. Fazilat baxt-saodat va kamolot haqida. – T.: 2001.
6. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: 2022.

¹ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2022. B. 7-8

INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA DIFFERENTIAL TASHXIS

Rahmonova Dilnoza Rahmatxon qizi

Namangan davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti

Annotatsiya

Texnik inspektor lavozimiga oliy yoki o'rta texnik ma'lumotga ega bo'lgan, shu tarmoqdagi ishlab chiqarishda uch yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega bo'lgan mutaxassislar tayinlanadi. Texnik inspektor doimiy xizmat ko'rsatadigan tashkilotga borib, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish talablarini bajarilishini nazorat qiladi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligini ta'minlanishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatishga, mehnat sharoitini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishga, baxtsiz hodisalarni va professional kasalliklarni oldini olishga erishadi, bo'yruqnomalarning korxonada tashkillashtirishni tekshiradi va ishni xavfsiz olib borilishi bo'yicha ishchilarni o'rgatadi, muhandis–texnik xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha olib borilgan ishlarni, xodimlarning mehnatni muhofaza qilish qoida va normalarni bilishini, mehnat qonunchiligining holatini va hokazolarni nazorat qilib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aminov A.M. Neft va gaz quduqlarini qurish asoslari. Toshkent – 2010, 410 bet.
2. Aminov A.M., Eshpo‘latov T.P. Neft va gaz ishida falokat va asoratlar. T. : O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2010. – 320 b.
3. Amirov A.A. “Gorizontal quqlarda mahsuldor qatlamlarni ochish va quduqlarni o‘zlashtirish texnologiyasini takomillashtirish”, Qarshi MII2014 y.-88 bet.
4. Асилбеков, Б.К., Калиланова, К.А., Жапбасбаев, У.К. Об эффективности технологии радиального бурения по сравнению с вертикальной скважины. Республиканский журнал «Izdenis»-«Поиск». Алматы. 2009. №4. – С.54-58.
5. K. Hakimov B. Soatov A. Ravshanov «Совершенствование схемы расположения геотехнологических скважин» Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7

“KOORDINATSION BIRIKMALARDA IZOMERIYA” MAVZUSIDAGI DARSNI TASHKIL QILISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Bosimov Sulton Dilshodjon o‘g‘li

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti magistranti

sultonbekbosimov125@gmail.com

Ismoilov Hakim Musurmon o‘g‘li

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti magistranti

Xujakulova Feruza Uralovna

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompleks birikmalarda izomeriya mavzusidagi dars jarayonlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib dars samaradorligini oshirish bo‘yicha darsni talabalar ongida shakllantirishda yangi texnologiyalardan foydalanish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, animasiya, kompyuter, ekran, proektor, slaydlar, davriy jadval.

Аннотация: В данной статье говорится об использовании новых технологий при формировании урока в сознании учащихся для повышения эффективности урока с использованием новых педагогических и информационных технологий в процессах урока по теме изомерии в сложных сочетаниях.

Ключевые слова: информационные технологии, анимация, компьютер, экран, проектор, слайды, периодическая таблица.

Abstract: This article talks about the use of new technologies in the formation of the lesson in the minds of students to increase the efficiency of the lesson using new pedagogical and information technologies in the lesson processes on the topic of isomerism in complex combinations.

Key words: information technologies, animation, computer, screen, projector, slides, periodic table.

KIRISH.

Davlatimiz tamonidan yosh avlodning ta'lim tarbiyasiga qilinayotgan g'amxo'rliklari milliy ta'limning shakl va tamoyilida muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda ularni barkamol, jismonan va ruhan sog'lom shaxs sifatida Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, bolalarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, fidoyilik, keng dunyoqarashga ega komil inson bo'lishga intilish tuyg'usini shakllantirish maqsadida ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi. Bu borada o'qituvchidan darsga zamonaviy talablar asosida yondashishni talab etadi.[1-2]

Darsning texnologik xaritasi

Dars maqsadi: Kompleks birikmalarning izomeriyalari haqidagi tushunchalarni shakllantirish. Koordinatsion birikmalarda izomeriya jarayonining mohiyatini tushuntirish.

Ta'lim beruvchi: Talabalarda komplekslar izomeriyasi haqidagi tushunchalarni shakllantirish va chuqur o'zlashtirishni Power Point dasturida yaratilgan slaydlar asosida tasavurlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.

Rivojlantiruvchi: komplekslar izomeriyasi haqidagi tushunchalarni shakllantirish va ular orasidagi farqlarni ko'rgazmali tarzda ko'rsatish va kompleks moddalar izomeriyasi to'g'risidagi bilimlarni rivojlantirish va kengaytirishni davom ettirish, ularni amaliyotda qo'llashni talabalar ongida shakllantirish.

Tarbiyalovchi: ekologik tarbiya bilan birga kimyoviy idishlar va reaktivlar bilan mustaqil ishlash malakasi, tartibli, odobli, diqqatli va olingan natijalar ma'suliyatini his qilishlikni kengaytirishni davom ettirish.

Ko'rgazmali vosita: kompyuter, ekran, proektor, slaydlar, davriy jadval, animatsiyalar.

Dars bo'limlari:

- I. Tashkiliy qism (3 daqiqa)
- II. Asosiy qism (32 daqiqa)
- III. Yakuniy qism (10 daqiqa)

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, yo'qlama, sinf tozaligi va boshqalar.


II Asosiy qism: Koordinatsion birikmalarda xuddi organik birikmalardagi kabi izomeriya hodisasi keng tarqalgan. Ularda uchraydigan izomeriyani ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi tuzilish izomeriyasi va ikkinchisi stereo izomeriyadir. birinchi gruppaga a) koordinatsion izomeriya, b) ionlanish izomeriyasi, v) gidrat izomeriya, g) koordinatsiyali polimerlanish, d) bog'lanish izomeriya, e) o'rinbosar izomeriya, j) ligandlar izomeriyasi, z) konformatsion izomeriya, i) holat izomeriyasi,

k) elektron izomeriya, l) transformatsion izomeriya va m) formal izomeriyalar kiradi. Ikkinchi gruppaga: a) geometrik izomeriyaning *cis* — va *trans* – holatlari, b) optik izomeriya kiradi.

Ularni alohida – alohida ko‘rib o‘tamiz. Koordinatsion birikmalarni tashkil etgan tarkibiy qismlari uning ichki qavatlarida turlicha joylashishi mumkin. Bu turdagi izomeriya turli markaziy ionlari va ligandlaribo‘lgan ikkita kompleks iondan tuzilgan birikmalarda uchraydi. Masalan, $[\text{Cr}(\text{NH}_3)_6] \cdot [\text{Co}(\text{C}_2\text{O}_4)_3]$ geksaaamminxrom (III) – trioksalat kobalt (III) – dan tashkil topgan, u och – yashil rangli yaproqchalar shakliga ega; uning izomeri $[\text{Co}(\text{NH}_3)_6] \cdot [\text{Cr}(\text{C}_2\text{O}_4)_3]$ geksaaamin kobalt (III) -, trioksalat xrom (III) – esa yashil rangli ignasimon kristallardan iborat.[3]

Ionlanish izomeriyasi. Bir xil tarkibli, lekin eritmada boshqa – boshqa ionlarga parchalanadigan koordinatsion birikmalar ionlanish izomeriyasi uchun misol bo‘la oladi.

Masalan, $[\text{Co}(\text{NH}_3)_5\text{Br}]\text{SO}_4$ va $[\text{Co}(\text{NH}_3)_5\text{SO}_4]\text{Br}$ o‘zaro ionlashgan izomerlardir. Birinchi tuzning suvdagi eritmasiga bariy xlorid qo‘shilganda cho‘kma tushadi, ikkinchi tuz eritmasi bariy ionlari bilan cho‘kma bermaydi.



Bir xil tarkibga ega bo‘lib, o‘z tarkibidagi suv molekularining joylanishi bilan bir – biridan farqlanadigan moddalar **gidrat izomerlar** deb ataladi. Masalan, xrom (III) – xloridning geksagidrati $\text{CrCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ uch modifikatsiyada uchraydi. Ulardan

birinchisining suvdagi eritmasi och – binafsha rangli; agar bu eritmaga kumush nitrat qo‘shsak, koordinatsion birikma tarkibidagi xlorning hammasi kumush ioni bilan bog‘langan holda cho‘kmaga tushadi; eritmaning molekulyar elektr o‘tkazuvchanligi 4 ta ionga parchalanadigan elektrolit eritmasining molekulyar elektr o‘tkazuvchanligiga yaqin keladi. Demak, xlor ionlari koordinatsion birikmaning tashqi sferasiga joylashib, suv molekulalari ichki sferani band qiladi; uning formulasi $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_6\text{Cl}_3]$. ikkinchi tuzning suvdagi eritmasi yashil rangli, unga AgNO_3 qo‘shsak, barcha xlor ionlarining faqat uchdan bir qismi kumush xlorid holida cho‘kadi. Demak, uning tashqi sferasida 1 xlor ioni va 2 molekula suv bo‘ladi, ya’ni $[\text{Cr}(\text{N}_2\text{O})_4\text{Cl}_2]\text{Cl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$. Uchinchi izomer ham yashil rangli eritma hosil qiladi. Uning eritmasiga kumush nitrat qo‘shsak, xlorning uchdan ikki qismi cho‘kadi. Uning formulasi $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_5\text{Cl}]\text{Cl}_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$ bo‘ladi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, bunday izomeriya faqat tuzlarning gidratlarida uchragina qolmay, balki suv, piridin va boshqa moddalar bo‘lganda ham uchrashi mumkin.

Koordinatsiyali polimerlanish. Koordinatsion polimer kompleks birikmalar o‘zaro bir – biridan faqat ligandlarning joylashishi bilan emas, balki o‘zining molekulyar massasi bilan ham farq qiladi. Koordinatsiyali polimerlanish kobalt, xrom, rodii va boshqa elementlarning kompleks birikmalarida ko‘p uchraydigan hodisadir. Masalan, empirik formulasi $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$ bo‘lgan modda 4 shaklda uchraydi: 1) $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]$, 2) $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_4] \cdot [\text{PtCl}_4]$, 3) $\text{Pt}(\text{NH}_3)_4] \cdot [\text{Pt}(\text{NH}_3)\text{Cl}_3]_2$, 4) $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_3\text{Cl}]_2 \cdot [\text{PtCl}_4]$.

Bog‘lanish izomeriyasi. Ba’zi ligandlar, masalan, CN^- , SCN^- , NO_2^- va boshqa shunga o‘xshash ligandlar tarkibida ikkita donor atom bo‘ladi, shu sababli ular markaziy atom bilan turlicha koordinatsiya holatida bo‘lishi mumkin. Bu esa izomerlarning xossalari farq paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday zarrachalar ko‘pincha ambidentat ligandlar deb ataladi. Ksanto tuzlar mineral kislotalar ta’sirida parchalanmaydigan sariq tusli moddalardir. Lekin, izoksanto tuzlarga mineral kislota qo‘shilsa, ular parchalanib nitrit kislota ajralib chiqadi. Izoksanto tuzlar och – jigir rangliligi bilan ksanto tuzlardan farq qiladi. Izoksanto tuzlariga mineral kislota qushilganda HNO_2 ning ajralib chiqishi kompleks birikmaning ichki sferasida $\text{O} = \text{N} - \text{O}$ – grupp borligini bildiradi.

O‘rinbosarlar izomeriyasi (yig‘indi izomeriya). Bunday birikmalarning koordinatsion qavatidagi ligandlardagi ba’zi atomlarning umumiy miqdori bir xil bo‘lsa ham, ular turli ligandlar tarkibida har xil miqdorda bo‘lishi mumkin.

Ligandlar izomeriyasi. Koordinatsion qavatda markaziy atomga birikkan ligandning o‘zi turli izomerlar holatida bo‘lishi mumkin. Masalan, koordinatsiyada aminobenzoy kislotaning orto-, metava para – izomerlari qatnashganda ligandlarning

o‘zi bir – biridan farq qiladigan xossalari natijasida ularning hosil qilgan koordinatsion birikmalari ham bir biridan farq qiladi. Bunga misol tariqasida propolendiamin bilan trimetilendiaminni yoki piridinkarbonkislolaning turli fazoviy izomerlarini keltirish mumkin.

Konformatsion izomeriya. Bunday birikmalarda koordinatsion qavatda ligandlarning o‘zi fazoviy jihatdan farq qiladigan holatda bo‘ladi. Masalan, 1,3 – propilendiamin – $\text{H}_2\text{N} - \text{CH}_2 \text{CH}_2 - \text{NH}_2$ “kreslo” yoki “vanna” holatida markaziy atomga koordinatsiyalangan bo‘lishi mumkin.[4]


Holat izomeriyasi. Bu turdagi izomeriya geometrik izomeriyaga yaqin turadi, lekin o‘ziga xos xususiyatga ega.

Elektron izomeriya. Bunday izomeriyaga yagona misol tariqasida tarkibi $[\text{Co}(\text{NH}_3)_5\text{NO}]\text{Cl}_2$ bo‘lgan moddani keltirish mumkin. Uning bir izomeri qora rangli va paramagnit xossaga, ikkinchisi qizil rangli va diamagnit xossaga ega. Taxmin qilinishicha, birikmalarning birida kobaltning oksidlanish darajasi +2, ikkinchisida esa +3 bo‘lishi mumkin, ular bir biridan markaziy iondagi faqat bitta elektron soni bilan farq qiladi.

Transformatsion izomeriya. Bunday birikmalar ligandlaridagi atomlar soni bir xil, lekin ligandlar orasida genetik bog‘lanish bo‘lib, ular turli kimyoviy xossalarga ega bo‘ladi.[4]

Formal (rasmiy) izomeriya. Bunday izomerlarni hosil qilishda qatnashgan ligandlar rasmiy jihatdan bir biriga miqdorlari teng bo‘lgan atomlarga ega bo‘ladi. Bunday izomeriyaga $[\text{Pt}(\text{NH}_3)(\text{C}_2\text{H}_5\text{NH}_2)\text{Cl}_2]$ va $[\text{Pt}(\text{CH}_3\text{NH}_2)_2\text{Cl}_2]$ lar misol bo‘la oladi. Yuqorida aytilganidek, stereoizomeriya ikki ko‘rinishda bo‘ladi: a) geometrik yoki *sis* – va *trans* – izomeriya, b) optik izomeriya.

Masalan, glitsin nomli aminokislota mis sulfat bilan reaksiyaga kirishganida misning ichki kompleks birikmasi hosil bo‘ladi: $2\text{NH}_2\text{CH}_2\text{COOH} + \text{CuSO}_4 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 + [\text{Cu}(\text{NH}_2\text{CH}_2\text{COO})_2]$ bis (glitsinato) mis (II) komplekslar, sendvich va π – komplekslar ham shu sinfga kiradi.



Tarkibi bir xil, ligandlari markaziy atom atrofida turli tartibda joylashgan koordinatsion birikmalar o‘zaro geometrik izomerlar deb ataladi. Birinchi navbatda koordinatsion soni 4 ga teng bo‘lgan koordinatsion birikmalarni ko‘rib chiqamiz.

Bunday koordinatsion birikmalar tekis kvadrat yoki tetraedr shaklida bo'lishi mumkin. $[MA_2B_2]$ tarkibli koordinatsion birikma uchun ikkita geometrik izomeriya ma'lum. Agar kompleks birikma geometriyasi kvadrat shaklida desak, bu koordinatsion birikma izomerlarida ligandlar joylashadilar. Agar kompleks ligandlari tetraedr cho'qqilariga joylashadi deb faraz qilsak, u holda $[MA_2B_2]$ tarkibli koordinatsion birikma faqat bir izomerdan iborat bo'lishi kerak, bu esa tajribaga zid keladi. Demak, $[MA_2B_2]$ tarkibli koordinatsion birikma tetraedr shaklida bo'lganda bunday izomeriya kuzatilmaydi. Masalan, $[Pt(NH_3)_2Cl_2]$ ni olaylik. Bu formulaga ikkita tuz mos keladi: 1) qovoq rangli Peyrone tuzi sis – tuzilishiga ega. Bu tuzda ikkala xlor ioni va ikkala ammiak molekulasi yonma – yon joylashadi. U o'zining to'rtta ligandini tiomochevinaga almashtira oladi: $[Pt(NH_3)_2Cl_2] + 4CS(NH_2)_2 \rightleftharpoons [Pt\{CS(NH_2)_2\}_4]Cl_2 + 2NH_3$.

Reyze tuzi trans – tuzilishiga ega, u och – sarg'ish rangli o'zining faqat ikkita xlorini tiomochevinaga almashtira oladi: $[Pt(NH_3)_2Cl_2] + 2CS(NH_2)_2 \rightarrow [Pt(NH_3)_2\{CS(NH_2)_2\}_2]Cl_2$ turdagi koordinatsion birikmalarda ham ikkitadan geometrik izomer bo'lishi mumkin. MAVSD turdagi koordinatsion birikmalarda esa uchta izomer bo'ladi. I.I.Chernyayev 1926 yilda $[Pt(NO_2)(NH_3)(NH_2OH)(C_5H_5N)]Cl$ tarkibli koordinatsion birikmaning uchta izomerini sintez qildi. Tarkibi MA_6 bo'lgan koordinatsion birikmalar geometrik izomerlarga ega emas, chunki oktaedrdagi 6 cho'qqi ligandlari bir – biridan farq qilmaydi. Bu xulosa tajribada ham tasdiqlangan. Agar MA_6 dagi bitta ligand A ni ligand B ga almashtirsak, MA_5B turdagi koordinatsion birikma hosil bo'ladi. Ligand B oktaedr cho'qqisining qaysi biriga joylashmasin, baribir uning oktaedrdagi 5 ta ligand A larga munosabati o'zgarmaydi. Agar MA_5B dagi yana bir ligand A ni ligand B ga almashtirsak, MA_4B_2 turdagi koordinatsion birikma hosil bo'ladi. Bu koordinatsion birikma 2 ta geometrik izomerga ega. Sis – va trans – izomerlar boshqa – boshqa kimyoviy xossalarni namoyon qiladi. Ular o'zining rangi va eruvchanligi bilan ham bir – biridan farq qiladi. Bunday tuzilishli birikmalarda yuza – izomer deb ataladigan bir xil tabiatli ligandlar (OH- yoki NO₂-) oktaedrning bir uchburchakli yon tomoniga tegishli cho'qqini egallaydi, meridional izomerlarida esa shunday ligandlarning ikkitasi markaziy atomning ikki qarama – qarshi tomonida bir o'q ustida joylashadi. Bunday izomerlarni sis – va trans – izomerlar deb atash to'g'ri bo'lmaydi. Koordinatsion birikmalarda boshqa – boshqa tarkibli ligandlar soni ortgan sari izomerlar soni ham ortadi.

Rus olimlaridan A.D.Gelman va L.N.Essen $[Pt(NH_3)(C_5H_5N) \cdot NO_2ClBr]$ tarkibli oktaedrik koordinatsion birikmaning bir necha izomerlarini sintez qilishga muvaffaq bo'ldilar. Nazariy mulohazalar bunday tarkibli oktaedrik koordinatsion birikmada 15 ta geometrik izomer bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Agar bu izomerlarning har biri

uchun ikkitadan optik izomer to'g'ri kelishini hisobga olsak, jami 30 ta izomer mavjudligini bilib olish mumkin.[5]

Optik izomeriya. Molekulari simmetriya markaziga yoki simmetriya tekisligiga ega bo'lmagan va molekulyar massasi teng bo'lgan moddalar o'zaro optik izomerlar deb ataladi. Bu moddalarning biri yorug'likning qutblanish tekisligini o'ngga (d - shakl), ikkinchisi chapga buradi, boshqacha aytganda ular optik faollik namoyon qiladi. d – shakldagi moddani l – shakldagi moddaning ko'zgudagi aksi deb qarash mumkin. Masalan, $[\text{CoEn}_2\text{NH}_3\text{Cl}]\text{X}_3$ sis – koordinatsion birikma quyidagi ikki optik izomer hosil qiladi.

Optik izomeriya hodisasi koordinatsion ionning fazoda turlicha joylanishidan kelib chiqadi. Ayni koordinatsion birikmaning ikkala shakli bir xil molekulyar elektr o'tkazuvchanlik va kislota – asoslik xossalariga ega bo'ladi. Lekin ular boshqa optik faol moddalar bilan reaksiyalarga kirishishi va birikishi jihatidan bir – biridan farq qiladi. Masalan, $[\text{CoEn}_3]\text{Br}_3$ koordinatsion birikmaning I - shakli I – kvargga, d – shakli esa d – kvargga birikadi. Optik izomeriya ham koordinatsion birikma tarkibidagi atomlarning fazoda boshqa – boshqa tarzda joylashishi natijasida hosil bo'ladi. To'rtta ligandi bir – biridan farq qiladigan tetraedrik tipdagi kompleks $[\text{M}(\text{ABSD})]$ ni ko'rib chiqaylik. Bu shakllarning biri ikkinchisi ustiga qo'yilganida ularning ayrim o'xshash nuqtalari bir – birini qoplamaydi. $\text{M}(\text{ABSD})$ tarkibli tetraedrik koordinatsion birikmada ichki simmetriya tekisligi mavjud emas. Bu koordinatsion birikmaning markazni kesib o'tgan tekislikning ikkala yon tomonida ham ikkitadan turli xil ligandlar joylashgan bo'ladi.[5]

III. Yakuniy qism: Mavzuni mustahkamlash uchun tarqatma materiallar. Testlar yordamida talabalar bilim darajalari nazorat qilinadi. Mustaqil yechish uchun masalalar beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.
2. Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi “oliy ta'lim muassalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida”gi 824 – son qarori.
3. Yusupov V.G., Parpiyev N.A., Toshev M.T. Koordinatsion birikmalar kimyosi.: Toshkent.: “Universitet”, 1996 – y.
4. Q.Q.Otaxonov, A.S.Xojiqulov. “Koompleks birikmalar kimyosi”(o'quv – uslubiy majmua).: Andijon – 2021 y.
5. Arxiv.uz

IQBOL MIRZONING GRADUONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Rajabova Nilufar Qadamboyevna

Qarshi davlat universiteti lingvistika:

o'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada el suygan shoir Iqbol Mirzo ijodida uchraydigan graduonimlarning umumiy tavsifi haqida so'z boradi. Graduonimlarga misollar keltirish uchun shoirning turfa ijod namunalari murojaat qilingan.

Kalit so'zlar: Graduonimiya, lug'aviy graduonimiya, sinonimiya, antonimik ma'no, oppozitsiya.

Tilshunoslikda yana bir emotsionallikni oshiruvchi hodisa graduonimiyadir. Graduonimiya — darajalanish so'zini tilshunoslik atamasi sifatida birinchilardan bo'lib R.Safarova va "Sistem leksikologiya tezislari" mualliflari tomonidan qo'llanilgan.

Lug'aviy graduonimiyaning mohiyati bir necha so'zning ma'lum bir belgining oz-ko'pligiga qarab lug'aviy ma'noviy qatorda tizilishida namoyon bo'ladi. Lug'aviy graduonimik qatorlar ko'pgina hollarda alohida bir yetakchi so'z (dominanta) atrofida birlashadi va lug'aviy ma'no guruhlari oldiga qo'yiladigan barcha talablarga to'la-to'kis javob beradi.

Graduonimik paradigma a'zolari esa sinonimik qator a'zolaridan farqli o'laroq, aynan bir tushunchani emas, balki ma'lum tushunchani miqdoran darajalab ko'rsatadi. Bunda miqdoriy belgi paradigma a'zolari o'rtasida **ko'payib yoki kamayib borish xususiyatiga ko'ra darajalanadi**. Graduonimiya umumiy ma'noda ma'noviy darajalanish hodisasidir. Graduonimiya bugungi kun hodisasi emas, balki necha asrlar ilgari adabiyotimizning buyuk allomasi A. Navoiy o'zining tilshunoslik sohasiga bag'ishlangan ikki til muhokamasi "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ilk bor tilshunoslikda darajalanish hodisasi borligini **yig'lamoq** fe'lining kuchayib borish darajasiga qarab o'sib borishini aytib o'tgan. Ya'ni yig'lamoq masdar fe'lining yuzdan ortiq sinonimlarini sanam graduonimik holatda sanab o'tgan.

Darajalanish hodisasini barcha so'z turkumlari doirasida ko'rishimiz mumkin. Masalan: Otlarda graduonimik qatorlar juda ko'pdir buning sababi ular predmetni ifodalaydi. Predmet esa ma'lum bir belgilar majmuasi sifatida yuzaga chiqadi va otlarda belgi ma'nosi ulardagi ma'no tarkibining muhim tarkibiy qismidir. Shuning uchun o'zbek tilida ko'pchilik muayyan (konkret) otlar va bir qator mavhum

otlar graduonimik qatorlarni tashkil etadi. Xususan, numerativ soʻzlarda toʻla-toʻkis graduonimik munosabatlar asosida quriladi.

Mm—Sm—dm—metr—km (koʻpayib boorish tartibida)

Boʻgʻim—barmoq—qarich—gaz (koʻpayib boorish tartibida)

Sifat soʻz turkumida ham graduonimik paradigmalar juda koʻp uchraydi. Misol qilib rang-tus sifatlarini koʻrishimiz mumkin:

Gulobi—pushti—qizgʻish—qizil—qirmizi—ol—alvon (belgining koʻpayib boorish tartibida)

Sifat soʻz turkumi belgi bildiradi. Belgi bildiruvchi paradigma aʼzolari oʻrtasida darajalanish hodisasi juda keng namoyon boʻladi. **Xunuk** leksemasi A. Hojiyevning sinonimlar lugʻatida quyidagicha berilgan:

Xunuk, badbashara, badburush, badqovoq, tasqara, bedavo, taʼviya, beoʻxshov, besoʻnaqay, sovuq, badsurat, nadomat. (koʻpayib boorish tartibida)

Bu birliklarni darajalarda quyidagicha ifodalasak maqsadga muvofiq:

Sovuq, beoʻxshov, besoʻnaqay, badburush, badqovoq, badsurat, xunuk, bedavo, tasqara, taʼviya.

Feʼl soʻz turkumida darajalanish qatorini quyidagilar orqali misol qilishimiz mumkin *Iljaymoq—tabassum qilmoq—kulimsiramoq—kulmoq—xandon otmoq—xoxolamoq—xandon otmoq (koʻpayib borish tartibida)*

Yigʻlamoq: Ingramoq—singramoq—yigʻlamsiramoq—siqtamoq—yigʻlamoq—oʻkurmak—hoy-hoy yigʻlamoq. (koʻpayib borish tartibida)

Buyuk mutafakkir bu soʻzlarning barchasini bir umumiy iztirob chekmoq maʼnosi ostida birlashtiradi. Bunda ovoz chiqarmasdan ichdan yigʻlamoq (ingramoq) dan, ovoz chiqarib (hoy-hoy yigʻlamoq) gacha belgi darajasining oshib borishini ifodalab beradi. Graduonimiya va sinonimiya oʻzlarining asos belgilariga koʻra keskin farqlanadi. **Sinonimiyada** ikki va undan ortiq leksema yoki frazemaning aynanligi, **graduonimiya** esa ikki va undan ortiq sememalarning semalaridagi gradatsiyali farqlanuviga tayanadi. Graduonimik paradigma aʼzolari oʻrtasida miqdor belgining oshib yoki kamayib borishidan darajalanish hosil boʻlganda, graduonimik paradigmaning 1- va oxirgi aʼzosi oʻrtasida bilinar-bilinmas **antonimik maʼno** hosil boʻladi.

Kulba—hujra—uy—hovli—qasr—saroy—koshona

Uy leksemasining hajm jihatdan kichikdan kattaga qarab oshib borishi. Bunda kulba va koshona leksemalari oʻrtasida **oppozitsiya** borligini koʻrish mumkin.

Quruq- nam –hoʻl – shalabbo sifatlarida ham gradionimiya hodisasi boʻlib, belgi kuchayib borgan va quruq soʻzi bilan shalabbo soʻzi oppozitsiyada turibdi.

Badiiy ijodda graduonimlardan foydalanish oʻta muhim hodisa sanaladi. Chunki shoirning qalbida joʻsh urgan tugʻyonlarini kuchayib yoki soʻnib borish holatlarini

yorqin tasvirlashda undan- da qulay vosita yo'qdir. Tadqiqotimizning ushbu faslida Iqbol Mirzo she'rlarida qo'llangan graduonimlarni tahlil qilish asosiy vazifadir. "Sizni kuylayman" she'rlar to'plamiga e'tibor qaratamiz:

Birdan ehtirosiga to'ldingiz,

Yondingiz, kuydingiz, so'ndingiz...

Iliyapti ummon, dengizlar,

Eriyapti ming yillik muzlar...("Mendan soviyapti") 27- bet.

Ikkinchi misradagi **yondingiz - kuydingiz - so'ndingiz** graduonimlari fe'l turkumiga oid bo'lib, harakatning kuchlidan kuchsizga tomon borishi tartibida joylashgan. Bunda oshiq qizning jo'shqin ehtirosiga to'lgan muhabbati tezda yongani, so'ngra hovur pasayib, kuyish va so'nish holatigacha borgani alamli tarzda o'z ifodasini topadi. Xalqimizda "Tez yongan tez so'nadi" degan maqolning poetik isboti sifatida ushbu misralar yaratilgandek.

Yondingiz - yuydingiz - so'ndingiz

Ushbu graduonimiyada oppozitsiya mavjud. Ya'ni **yonmoq** fe'li **so'nmoq** fe'li bilan antonimik juftlikni hosil qilgan.

Shorning "Yoningizda qolmoqchi edim" she'rida ikki his graduonimiyani kuzatishimiz mumkin. Birinchi misrada **alamim, hasadim, ginam**kabi mavhum otlar, uchinchi misradagi **Sog'insang, o'rtansang, yig'lasang** fe'llari darajalanishni hosil qilgan. **Alam** - jismoniy qiynoq, azob va og'riq, ruhiy azob, iztirob, qasd, o'ch, qasos, g'azab, nafrat qahr kabi ma'nolarni ifodalaydi. **Hasad** esa kimsaga xos unga tegishlinarsa fazilat va shu kabilarni ko'ra olmaslik, xush ko'rmaslik tuyg'usidir. **Gina** esa biror kimsaga nisbatan dilda saqlangan xafalik, norozilik, kek, shikoyat, arz- hol. Ushbu graduonimlar ruhiy qiynoqning kuchayib borish tartibida joylashgan. Sog'inish holati o'rtanish va oxirida yig'lash bosqichigacha ko'tariladi.

Alamim, hasadim, ginam tufayli,

Ehtimol ustingdan kulmoqchi edim.

Sog'insang, o'rtansang, yig'lasang mayli,

Men sening yodingda qolmoqchi edim (3-bet)

Shoir she'rlarida ruhiyatning ajib chizgilari mohir rassom singari tasvirlanadi. Quyidagi she'rda beparvo yorga nisbatan alamli iztirob va ta'kid aks etgan:

Milyon yilda meni yaratdi hayot,

Meni so'rab, tog'lar qator cho'kdi tiz.

Nahot anglamaysan, bilmaysan nahot,

Axir men bittaman, yagona, yolg'iz. ("Yolg'iz" she'ri 4- bet)

Bittaman, yagona, yolg'izkabi graduonim leksemalarmi qdorning kuchayib ta'kidlanganini ko'rsatadi. Bitta - dona sonni bildirgan leksema, yagona va yolg'iz sifat so'z turkumiga tegishli so'zlardir. Yolg'iz so'zida miqdor ma'nosidan tashqari yolg'izlikdan qiynalayotgan lirik qahramon tasviri ham bo'rtib turadi.

“Go‘yo” nomli she‘rida ham graduonimiyaning kuchayib borish darajasida kelganiga guvoh bo‘lamiz:

Shul irmoqning huzurida kim bo‘ldim?

To‘xtab qoldim, til tishladim, mum bo‘ldim.

Hasrat keldi, ko‘z yoshimga lim bo‘ldim,

Eski ko‘ngil endi to‘lmaydiganday.

To‘xtab qoldim, til tishladim, mum bo‘ldim ushbu graduonimiya fe‘l turkumiga tegishli bo‘lib, harakat darajasi kuchayish tartibida joylashgan. Kutilmagan holatga duch kelgan lirik qahramon tasviri aks etgan.”Til tishlamoq”, “mum bo‘lmoq” iboralari gapira olmay jim qolish ma'nosini ham bildiradi.

O‘zbek xalqi juda ko‘p ijobiy sifatlarga ega xalq.; tanti, saxiy, olijanob, oriyatli va hokazo. Shoir noyob so‘z topilmalarini topishga nihoyatda usta. Bu she‘rning “Bug‘doyso‘z” deb nomlanishida ham ko‘rinib turibdi:

Tuproqdek hokisor, saxiy, tanti zot,

Ushbu kun valiylar alqab turibdi.

Oriyat, hamiyat, lafz va e‘tiqod

Sening timsolingda yashab yuribdi.(19- bet)

She‘rda **hokisor, saxiy, tanti** sifatlari belgining kuchayishini ifodalaydi. Saxiylik belgisida ko‘ra ham tantilik kuchli darajani ifodalaydi.

Navbatdagi she‘rda vaqtni ifodalovchi so‘zlar kun- hafta- oy –yil kuchayib boorish tartibida keltirilgan. “Izsiz ketdi” she‘rida:

Bu yo‘l menga sayr edi, sayil edi,

Sevgisiz kun – hafta edi, oy – yil edi.

Men qizlarni aldashni ko‘p istamasdim,

Qizlar o‘zi aldanishga moyil edi.

Oshiq yigit holati nihoyatda samimiy. She‘rda sevgini qadriga yetmay aldashga moyil qizlarni qoralangani aks etib turadi. Lirik qahramon sevgisiz kunn haftaga, oyni yilga teng ekanligini aks ettiradi.

Shoirning “Ajoyib qiz haqida hikoya” she‘rida **erkalardi- suyardi –o‘oib-o‘pib qo‘yardi** fe‘llari harakat va ruhiy holatni kuchayib borish tarzida keltirilgan,

Kimdir mening o‘g‘limni

Erkalardi, suyardi.

Mittigina qo'lini

O'pib-o'pib qo'yardi. (113- bet)

Iqbol Mirzoning “Singlimga” she’rida singlisiga dalada qanchalik zo’r ishlaganligini maqtanmoqchi bo’lgan aka portreti bor. ***Sho’x –urushqoq – bezori*** sifatlari belgining kuchayib borish tartibida graduonimiyani hosil qilgan.

Sho’x edim, urushqoq, bezori edim,

Haydalgan paykallar tayyor jangmaydon.

Qahramonligimni sen ko’rsang derdim,

Maqtangim kelardi senga, singiljon.

Xullas, Iqbol Mirzo she’riyatida graduonimiya hodisasidan mahorat bilan foydalangan. Belgi, holat, payt va harakatning ba’zan kuchayib, ba’zan kamayib borish tartibidagi graduonimiya hodisasidan ham ustalik bilan qo’llagan. Shuning uchun hamm shoir she’rlari o’zining betakrorligi, yuksak notalariga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. A.Hojiyev. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent. 1974.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: “O.,qituvchi”, 2001. – 556 b
3. Iqbol Mirzo. Seni bugun ko’rmasam bo’lmas. Toshkent. G‘afur G‘ulom. 2018.
4. IqbolMirzo. Ko’nglingda nimabor, bilmayman. – Toshkent: Sharq, 2020
5. Iqbol Mirzo. Ko’zlaringga termulsaydim. Toshkent. Sharq -2020.
6. Iqbol Mirzo . Agar jannat ko ‘kda bo’lsa .. Toshkent. Sharq-2018.
7. Iqbol Mirzo. Seni bugun ko’rmasam bo’lmas. – Toshkent: “Istiqlol”, 2005. – B. 27.
8. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. –

УДК: 582.232:275.574.5.633

ЮКСАК СУВ ЎСИМЛИКЛАРИНИНГ ОҚАВА СУВЛАРИНИ ТОЗАЛАШДАГИ ЎРНИ

¹ Шерназаров Шавкат Шухратович., ² Базарбаев Зокир

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси,
чорвачилик ва биотехнологиялар университети

Аннотатсия: Ушбу мақолада оқава сувлар уларни биологик услублардан фойдаланиб тозалаш шу билан биргаликда сувдан яна қайтадан фойдаланиши. Сувларни тозалашда юксак сув усимликларидан фойдаланиши ва уларнинг ахамияти хақида фикр юритилади

Калит сўзлар: оқава сувлар, кичик рясканинг, физик - механик, “*Letna minor L.*”, гектар, вегетатив, рентабеллик, биоген, тузлардан, фотосинтез, бактериялар.

Бугунги кунда дунё миқёсида сув ресурсларидан мукамал фойдаланиш, сув ҳавзаларининг ҳар хил чиқиндилар билан ифлосланишини олдини олиш ва ишлаб чиқаришнинг тобора кенгайиши натижасида тоза сувларнинг қайта ифлосланиш даражаси ортиб бориши билан боғлиқ бўлган экологик муаммолар атроф-муҳитга ва аҳоли саломатлигига ҳам ўз таъсирини кўрсатмоқда. Шунинг учун, табиий ва сунъий сув ҳавзаларига аҳоли турар жойларидан, саноат ва қишлоқ хўжалик корхоналаридан чиқадиган сувлар тозаланмасдан бевосита оқава сувларга айланиб бормоқда. Шу ўринда, чиқинди сувларни самарали тозалаш усуллари янада такомиллаштириш ҳамда бундай сувлардан самарали фойдаланиш тизимини яратиш ва уни амалиётга жорий этиш бўйича катта эътибор берилмоқда.

Сув объектлари ифлосланишининг олдини олишда саноат ва коммунал - маиший корхоналари оқава сувларини дарё ва бошқа сув ҳавзаларига ташлашдан олдин уларни тозалаш умумқабул қилинган усул ҳисобланади. Ҳозирги кунда уларни тозалашда, асосан, физик - механик, физик-кимёвий ва биологик усуллардан фойдаланилади. Буларнинг ичида оқава сувларини тозалашда биологик усул энг самарадор усул бўлиб ҳисобланади. Амалиётда нордон сувларни шламли ёки оҳак сутли бақда нейтраллаштириш усули ҳам кенг қўлланилмоқда ва натижада ундан нейтраллашган сув оқиб чиқади. Республика

бўйича очиқ сув ҳавзаларига тушаётган оқава сувлар умумий ҳажмининг 20-30 фоизини коммунал-маиший оқава сувлар ташкил этади. Қолган қисми, яъни 70-80 фоизи саноат оқава сувларига тўғри келади [1; 21-б]

Республикамизда аҳоли зич яшайдиган туман ва шаҳарлар марказларида шаклланган оқава сувлар марказлашган канализация орқали тозалаш иншоотларига туташган. Корхоналар, ташкилотлар ва инсонлар томонидан чиқарилаётган чиқиндилари сув объектларига ташлашни назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси “Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида” ги қонуни асосида амалга оширилади [2; 38-39-б]. Ҳозирги кунда инсонларнинг кўпайиши натижасида атроф – муҳитни ифлосланишига олиб келмоқда. Халқимиз орасида “Сув етти юмалаб, тоза бўлади” деган тушунча бор. Табиат меъёрида бўлса, турли оқава сувлар ва чиқиндиларни зарарсизлантириш, табиий ҳолда кечиши мумкинлиги ўрганилган.

Сув танқислиги кучли бўлган йилларда унинг салбий оқибатларини камайтириш мақсадида ҳамда дарё сувларининг етиб бориши қийин бўлган ҳудудларда минераллашганлиги ўртача бўлган (3-5 г/л) зовур сувларини “*Lemna minor L.*” сув ўсимлиги ёрдамида биологик тозалаб, ғўзанинг Бухоро- 6 навини суғориш натижасида унинг ҳосилдорлиги-32,3 гектар ҳисобига центнер бўлиб, рентабеллик даражаси - 16,0 % ни ташкил этганлиги ўрганилган [3; 78-79-б]

Кичик рясканинг барг узунлиги 2 - 4,5 мм, энига 2 - 3 мм. Бу ўсимлик фотоавтотроф бўлганлиги сабабли, улар асосан минерал муҳитларда фаоллик билан ривожланади. Кичик ряска фаоллик ривожланиши учун ҳарорат 28-320С ва ёруғлик 20-60 минг люкс атрофида бўлиши керак. Кичик ряска ўсимлиги пастки ҳарорат ва соя жойларда ҳам ривожланиши аниқланган. Кичик ряска ўсимлигини органик моддаларни сақловчи сув ҳавзаларида фаоллик билан ривожланиши ўрганилган. Кичик ряска ўсимлиги вегетатив йўл билан кўпаяди. Ҳар икки кунда барг поядан янги илдизча чиқиб, ундан янги кичик ряска ҳосил бўлади. Кичик ряска ўсимлигини кўпайтириш мақсадида лаборатория, ярим ишлаб чиқариш ва ишлаб чиқариш шароитида илмий-тадқиқот ишлари олиб борилган [2; 83-б]. 27 Сув танқислиги кучли бўлган йилларда унинг салбий оқибатларини камайтириш мақсадида ҳамда дарё сувларининг етиб бориши қийин бўлган ҳудудларда минераллашганлиги ўртача бўлган (3-5 г/л) зовур сувларини “*Lemna minor L.*” сув ўсимлиги ёрдамида биологик тозалаб, ғўзанинг Бухоро- 6 навини суғориш натижасида унинг ҳосилдорлиги-32,3 гектар ҳисобига центнер бўлиб, рентабеллик даражаси - 16,0 % ни ташкил этганлиги ўрганилган [3; 78-79-б].

Хоразм вилояти шароитида биологик ховуларда оқова сувларни тозалашда юқори биофилтрлик хусусиятига эга тропик ва субтропик мамлакатлардан олиб келиб иқлимлаштирилган пистия, азолла ва эйхорния каби ўсимликлардан фойдаланилган. Бу ўсимликларни оқова сувларда ўстириб қуйидаги натижаларга эришиш мумкинлиги ўрганилган. Оқова сувни юксак сув ўсимликлари биоген тузлардан, яъни: - аммиак, нитрит, нитрат, сульфатлар, хлоридлардан тозалаш; - фотосинтез натижасида сувдаги кислороднинг миқдори бир неча баробар кўпайиши; - оқова сувдаги касаллик туғдирувчи ичак ва бошқа аъзолар касалликларини келтириб чиқарувчи бактериялардан тозалаш; - сувдаги муаллақ ҳолдаги моддалар ушлаб қолиб ўзлаштирилиши ва тозалаш; - сувда эримайдиган моддаларнинг миқдори камайиши ўрганилган [4; 8-10-б]

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ҳайитов Ё.Қ. Зарафшон воҳаси қайтарма-оқова сувларининг шаклланиши, уларни тозалаш ва иккиламчи фойдаланиш // Дисс. автореф. ...геог.фан.док. Тошкент, 2017, 21 б.
2. Мирхонова З., Зайниева С. Оқова сувларни тозалаш иншоотлари билан боғлиқ бўлган муаммолар // Барқарор ривожланишнинг муҳим экологик омиллари. -Бухоро, 2013.-Б. 38-39.
3. Жўраев О.Ж., Эшқобилов Ш.А., Қаюмова Л.Ш. Енгил саноат оқавасувларини маҳаллий шароитда тозалашда қўлланиладиган услублар таҳлили// Минтақада юзага келган экологик муаммоларни юмшатиш омиллари.- Бухоро, 2019.-С. 78-79.
4. Йўлдошев К.Р., Салаева Р.А. Оқова сувларни табиий ва махсус усулларда тозаланишида сув ўсимликларининг камайиши // Хоразм маъмун академияси ахборотномаси. -Хива, 2019. -Б. 10-12.
5. Shernazarov S. S., Tashpulatov Y. S. Species Composition of Algae in the Food Tract of Common Silver Carp (*Hypophthalmichthys molitrix* vab.) in Growing Conditions. – 2020.

INGLIZ TILI MATNLARIDA APOSTROF (‘) TINISH BELGISINING ISHLATILISHI

G‘afurova Nigora Sa‘dullayevna

“TIQXMMI”MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti ingliz tili o‘qituvchisi.

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tilidagi tinish belgilaridan biri apostrof (‘) belgisining ishlatilish mohiyati va aynan o‘zbek tilida qanday ma’nolarni ifodalashi misollar bilan yoritib beriladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi matnlarda bu tinish belgining ishlatilishi va o‘zining mazmun-mohiyatini saqlab qolganlik darajasini tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** tinish belgilari, apostrof, egalik shakli ot, otlarning ko‘plik shakli, qisqartmalar, harflar tushib qolishi, sifat.*

***Annotation.** This article analyzes and the use and semantic features of apostrophe (‘) with some examples within the text and how it means in the uzbek language . Moreover, the use of this punctuation mark in social digital contexts and the level of changing its function is discussed in this article.*

***Key words:** punctuation, apostrophe, possessive case, plural form of nouns, contractions, omission of letters, adjective.*

Tinish belgilari yozuvning tarkibiy qismi hisoblanib, yozuv takomillashib rivojlanib borgan sari tinish belgilarining ishlatilishi ham o‘zgarib bormoqda. Garchi internet lingvistikasiga e’tibor 30 yillik tarixga ega bo‘lsa-da, tinish belgilarining aynan ijtimoiy tarmoqlarda ishlatilishi tilshunoslar tomonidan yaqin yillarda o‘rganilayapti va filolog olimlar orasida qizg‘in bahslarga sabab bo‘lmoqda.

Tinish belgilarining o‘zgarishi bilan gap mundarijasi - gapning mazmunida ham, ohangida ham, qurilishida ham o‘zgarish yuz beradi. [Bahriddonova,2015:10] Ayrim olimlar fikriga ko‘ra esa, tinish belgilari yozuvchining fikrlarini o‘quvchiga aniqroq yetkazib berishga xizmat qiladi. [Keyn,1983:69]. Shunday ekan ijtimoiy tarmoqlarda ham yozuvchi va o‘quvchining yuzma-yuz muloqoti sodir bo‘lmaganligi sababli tinish belgilari ma’no yetkazib berishda yordamga chaqiriladi. Yozuvning rivojlangani sari tinish belgilari ham birgalikda rivojlanib boradi.

Ingliz tilida bir nechta tinish belgilari mavjud. Apostrof (‘) tinish belgisi ingliz tilida keng qo‘llanib keladigan tinish belgilaridan biri hisoblanadi. Ammo ingliz tili

lingvistikasida apostrof yaqin o'tmishga ega, chunki bu belgidan oldin foydalanilmagan, bu belgi qaratqich kelishigini ifodalash uchun yaratilgan. [Bredley,1943:48] Bu tinish belgi bir necha vazifalarni bajaradi. Ulardan biri birlikdagi otga 's qo'shimchasi qo'shib qarashlilikni ifodalaydi va o'zbek tiliga –ning deb tarjima qilinadi:

Child's pen-bolaning ruchkasi

Lekin ot ko'plikda kelsa, u holda s harfidan keyin faqatgina apostrof (') belgisi ning ma'nosida qo'llaniladi:

Girl's hat- qizning shlyapasi

Girls' hats- qizlarning shlyapalari

Ayrim otlar ko'plikda o'zagini o'zgartirganligi sababli ularning oxirida apostrof (') belgisi ham –s qo'shimchasi qo'shiladi:

Children's balls- bolalarning koptoklari

Ayrim qisqartirib yozilgan so'zlarda nuqta va apostrof (') belgisi undan keyin esa –s qo'shimchasi keladi. Masalan:

Co.'s balance- kompaniyaning balansi

Aynan shu so'zning ko'pligiga -s qo'shilsa, nuqtadan keyin yoziladi:

Cos.' balance- kompaniyalarning balansi

Ingliz tilida qo'shma otlarda apostrof (-') so'zning eng oxiriga qo'yiladi

My mother in-law's new car- mening qaynonamning yangi mashinasi

Attorneys general's appointments – bosh prokurorlarning tayinlanishi

Bir narsa har ikkala kishiga tegishli bo'lsa, u holda egalikni bildiruvchi apostrof (') va –s, ya'ni –s ikkinchi otga qo'shiladi:

Brown & Nelson's store- Braun va Nelsonning do'koni

Soldier and sailor's house- askarlar va dengizchilar uyi

Agar alohida egalik har ikkala shaxs yoki narsaga tegishli bo'lsa u holda apostrof belgisi (') har bir otga qo'shiladi:

Men's, women's, and children's clothing- erkaklar, ayollar va bolalarning kiyimlari

Mr. Fox's and Mr. Green's wives- Janob Foks va Janob Greyning rafiqalari

Ingliz tilidagi joy nomlari, firma va tashkilot nomlari, institut va universitet nomlari tarkibidagi '-s qo'shimchasi o'zgarimas va rasmiy nomlar sifatida qabu qilinadi:

St. Peter's Church –Avliyo Peter ibodaxonasi

St. Elizabeth's hospital- Avliyo Elizabetta kasalxonasi

Workers' Union- Ishchilar uyushmasi

Ingliz tilidagi shaxssiz va noaniq olmoshlarga egalikni bildirish uchun -s harfidan oldin apostrof (') belgisi qo'yiladi.

One's home- kimningdir uyi

Another's idea-boshqaning fikri

Each other's books – bir-birlarining kitobi

Birlik egalik shakli quyidagi kabi umumiy atamalar tarkibida ham apostrof birlikdagi egalik shaklida keladi:

Arm's length-qo'l uzunligi

Printer's ink- printerning rangi

Attorney's fee- advokat to'lovi

Ingliz tili matnlarida qisqartmalar tarkibida va ayrim harflarning tushib qolganligini ko'rsatish uchun apostrof tinish belgisi kelishi mumkin.

I've- I have

don't-do not

It's- it has/ it is

ne'er-never

e'er-ever

Shuningdek faqatgina harflar emas, balki raqamlar tushib qolganligini ham ifodalashi quyidagi misollarda ko'rinadi:

class of '08 (2008)- 2008-yil sinfi

spirit of '76(1776)- 1776- yil ruhi

Ingliz tili matnlarida harflarning ko'pligini nazarda tutilganda ham apostrof belgisini ishlatiladi:

He never crosses his t's- U hech qachon o'zining t harfilarini chiziqchasini chizmaydi.

a number of s's- s harflarining soni

his resume had to many I's- uning rezyumisida juda ko'p I harfi bor.

Shuningdek quyidagi so'zlarda garchi egalik hamda qisqartma shakllar bo'lmasa ham apostrof thish belgisi ishlatilgan va ko'plik ma'nosini ifodalaydi:

Do's and don't's – dollar va don'tlar

Which's and that's –whichlar va thatlar

Ba'zan egalik shakli of ning o'rniga keladi:

1 day's labour- bir kunlik mehnat

2 week's pay- ikki haftalik to'lov

2 hour's traveltime- ikki soatlik sayohat vaqti

Nutqda ohangdorlik, jozibadorlikni ifodalash uchun –s va –ce harf va harf birikmalari bilan tugagan otlardan keyin –s harfi bilan boshlanadigan so'zlar kelsa, faqatgina apostrof (') qo'yiladi. Buni quyidagi misollarda uchratishimiz mumkin:

for old times' sake- eski vaqtlar haqi uchun

for acquaintances' sake- tanishganimiz uchun

Ingliz tilida egalik shakldagi ot sifat o'rnida kelsa ham apostrof ishlatiladi:

He is a friend of John's- u Jonning do'stlaridan biri

Stern's running sale- Stern savdosi

Gerund shaklidagi fe'ldan oldin kelgan ot ham apostrof (') belgisi va –s harfi bilan keladi:

In the event of Mary's leaving- Merining jo'nashi voqeasida

Apostrof tinish belgisi savdo belgilari nomlaridan keyin ham apostrof tinish belgisi keladi, ammo bunday holatlarda bu tinish belgisi egalik ma'nosini ham, qisqartirilgani ham ifodalaymaydi. Bu holatda bu tinish belgilari shu savdo belgilarining o'zgaras bir qismi hisoblanadi va apostrof (') belgisi hech qachon tushirib qoldirilmaydi:

We are going to Mcdonald's to have lunch- Biz tushlik qilish uchun Makdonaldga bormoqchimiz.

Ba'zan atoqli otlarning ko'pligini yasash uchun ham bu tinish belgidan foydalaniladi:

There are two Macy's in this county- Bu kountlikda ikkita Mekiy bor.

Harflar qisqartmasi fe'lga aylanganda ya'ni o'z xususiyatini yo'qotib fe'l vazifasini bajarganda uning tarkibida apostrof tinish belgisini kuzatishimiz mumkin:

He OK'd- U okey dedi.

Bu tinish belgisi ba'zan boshqa tinish belgilari bilan ham kelishi mumkin:

"The suspects told me they were just 'walkin' and talkin','" the detective recalled.

Quyidagi misolda apostrof tinish belgisi (') qo'shtirnoq (" ") va vergul (,) bilan birga kelmoqda va o'quvchi bu yerda apostrofnı qo'shtirnoqni apostrof belgisi bilan adashtirishi mumkin. Yuqoridagi misolda talkin' bilan birga kelgan belgi qo'shtirnoq belgisi bo'lib, bu yerda tushib qolgan g harfini o'rniga kelgan . 'walkin' dan oldin kelgan talkin', dagi verguldan keyin kelgan tinish belgilari bittalik qo'shtirnoq deyiladi va bu misolda shu ikki so'z kinoya va estehzo bilan aytilganini yozuvda ifodalab kelmoqda.

Apostrof belgisi agar gap oxirida kelib egalikni ifodalasa nuqtadan oldin qo'yiladi:

The phone number he called was the Wilsons'.

Ijtimoiy tarmoqlarda tinish belgilarining ishlatilishi turli munozaralarga sabab bo'lmoqda. Chunki Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari bu tinish belgisidan foydalanishda mavjud qoidalarni chetlab o'tmoqda. Montkleyr Davlat Universiteti professori Jay Livingston quyidagi gaplarni apostrof belgisining noto'g'ri qo'llanilganligiga misol tariqasida keltirib o'tadi: *No exchange or return on DVD'S. All sales are final.*

Bu yerda apostrof belgisi o'rinsiz ishlatilgan, bu yerda shunchaki oting ko'plik shakli kelishi kerak.

Tinish belgilardan foydalanish faqatgina norasmiy ijtimoiy guruhlarda emas, balki rasmiy electron manbalarda ham kuzatilmoqda . Bunga misol qilib AQSh sobiq

prezidenti Donald Tramp twitter rasmiy sahifasida yozilgan quyidagi xabarni ham olishimiz mumkin: *It was honor to welcome Mayor's from across America to WH. My administration will always support local government and listen to the leaders who know their communities best.*

Ushbu misolda ham bu tinish belgi o'rinsiz ishlatilgan. Tinish belgilarining ishlatilish qoidasiga ko'ra, otlarning ko'pligi nazarda tutilganda tinish belgilari ishlatilmaydi, ya'ni bu yerda shunchaki Mayors yozilishi kerak edi.

Til uzviy rivojlanib boradi. U bilan birga uning bir qismi yozuv va tinish belgilari ham mukammalashib bormoqda. Bu ayniqsa elektron matnlar va ijtimoiy tarmoqlarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Tinish belgilari matnda yozuvchining o'y fikrlarini o'quvchiga yanada yorqinroq yetkazib berishga xizmat qilmoqda. Elektron matnlardagi tinish belgilari ba'zan yangi ma'no ifodalab, o'zining vazifasini yanada kengaytirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bahriddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari.- Toshkent, Akademnashr, 2015.
2. Kasagrand J. The best punctuation, period.-Berkeley, Ten speed press,2014.
3. Kaufman L. The Blue book of Grammar and punctuation.- The USA San-Francisco, Jossey Bass, 2014.
4. Qilichev , Z. M., & Aralov , M. M. (2023). TOPOGRAFIK CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING GRAFIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 674–679. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1100>
5. Aralov, M. M. (2022). Muhandislar tayyorlash ta'limining muammolari va yutuqlari. *international conference on learning and teaching*, 1(4), 107–111. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2630>.
6. Ibragimov Utkir Nurmamat o'g'li, and Aralov Muzaffar Muxammadiyevich. 2022. "Topografik kartalar yaratishning asosiy usullari". *arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali* 1 (4):31-33. <https://www.sciencebox.uz/index.php/arxitektura/article/view/4913>.
7. Мирмахмудов Э.Р., Ниязов В.Р., Аралов М.М. Анализ точности геодезических пунктов топографических карт вблизи промышленных объектов // *Universum: технические науки: электрон. научн. журн.* 2021. 2(83).

URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11285> (дата обращения: 25.02.2021).

8. Мирмахмудов Э.Р., Ниязов В.Р., Аралов М.М. Проектирование геодезической сети сгущения в окрестности промышленных объектов // Вестник науки. Научный журнал. №5-1(7), С. 212-220.

9. Э.Р.Мирмахмудов, Э.Эгамбердиев, М.М.Аралов. Рекогносцировка пунктов геодезической сети в окрестности г. Карши. Современная наука в условиях модернизационных процессов: проблемы, реалии, перспективы. 2021. 261-267.

10. Аликулов, Ф., & Аралов, М. (2022). Рельефнинг рақамли моделларини учувчисиз учиш аппаратлари ёрдамида яратиш. *Innovatsion Texnologiyalar*, 1(4), 131–134. Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/127>.

11. Aralov, M. M. (2022). Muhandislar tayyorlash ta'limining muammolari va yutuqlari. *International conference on learning and teaching*, 1(4), 107–111. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2630>

THE NATURE OF TRANSLATION TRANSFORMATIONS

Nargiza Savrievna Zokirova

Assistant teacher of Bukhara State university, Uzbekistan

narghiza.zokirova@gmail.com / n.s.zokirova@buxdu.uz

ABSTRACT

Though many linguists addressed and did research about transformation in translation, there is no consensus among scientists regarding the very concept of translation transformation. This article deals with the problems which translators face during their interpreting and translating. We discuss the methods and strategies used by well-known scholars for linguistic transformations and try to explain made mistakes while translating from one language into another one.

Key words: *translation, transformation, technique, strategy, translator, source language, translated text, content, recipient, equivalence.*

INTRODUCTION. The use of translation transformations is by no means a mechanical process, but requires a certain creative effort. This translation technique is a very effective tool for solving the difficulties associated with achieving translation equivalence in the absence of the possibility of translation along linguistic parallels. Therefore, the solution of problems associated with translation transformations seems to us relevant for the theory and practice of translation. Appropriate use of translation transformations in appropriate places is aimed at keeping the translation content as complete as possible, an important issue for translation studies. The complete preservation of the translation content ensures its alternativeness and, ultimately, its high quality. It should be noted that the formal application of translation transformations cannot fully ensure the quality of translation. There are four main approaches to translation. They include linguistic, cultural, pragmatic and sociolinguistic approaches. In the process of translation, these can be theoretically separated. However, in practice, they cannot be separated from each other, because they require each other and serve to complement each other. In fact, based on the above-mentioned approaches, taking into account their principles determine the extralinguistic factors of the translation and ensures the adequacy of the translation.

METHODS. Many well-known translators have more or less addressed to the issue of translation transformations in particular: L.S. Barkhudarov, V.G. Gak, O. Kade, V.N. Komissarov, L K. Latyshev, Ya.I. Retzker, A.D. Schweizer. However,

E‘tiborli jihati shundaki, so‘zlarni morfologik va leksik omonimligi bo‘yicha guruhlanishi tabiiy tilni qayta ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahmud Koshg‘ariy asari, o‘zi ta‘kidlashicha, “oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma‘lum bo‘lmagan alohida bir tartibda” tuzilgan. Unda ko‘p shevashunoslikka oid qiyosiy qoidalar, grammatik, morfologik, leksik, semantik alomatlar ko‘rsatilgan. Asar foydalanuvchilarga osonlik tug‘dirish uchun sodda va lo‘nda yozilgan. Unda qadim turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar, orfoepik va orfografik qoidalar puxta tushuntirib berilgan. Lug‘atda turkiy so‘z tuzilishi an‘analari, jumladan so‘z tartibi, fe‘l shakllari, so‘z etimologiyasiga oid fikrlar bayon etilgan. Muallif ko‘rsatishicha, kitob 8 bo‘limdan, muqaddima va xulosadan iborat. Har bir bo‘limda ot-ism so‘zlar, fe‘llar qulaylik uchun alohida ajratib berilgan. “Devon” da 7500 dan oshiq turkiy so‘z va iboralar izohlangan. “Devon-u lug‘atit turk” ham adabiy til, ham asosiy turkiy shevalarni qamrab olgan bo‘lib, undagi adabiy til, sheva unsurlari nisbati o‘rtacha adabiy tildagi 10–12 so‘zga, shevaga oid bir so‘zga to‘g‘ri ke-ladi, ya‘ni umumturkiy adabiy tilga ayricha ahamiyat ajratilgan. Xulosa qilib aytganda, bu asar tilshunoslik imkoniyatlari uchun, til sathlari uchun dastlabki asar sanaladi. Bu asar o‘sha davr islom mintaqasida turkiy adabiy til qancha keng tarqalgani va mustahkam mavqega ega bo‘lganini tasdiqlovchi qat‘iy dalildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. - T.: O‘qituvchi, 1982.
2. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008.
3. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. - T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
4. Mirzayev .M. Hozirgi zamon o‘zbek tili .Mashqlar to‘plami . Toshkent : O‘qituvchi , 1963 . 143-bet.
5. Mengliyev B., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Qarshi, 2005.

FAVVORA QUDUQLARIDA ASFALTMOLAPARAFIN TO‘PLANISHIGA QARSHI KURASHNING KIMYOVIY, MEXANIK VA BOSHQA USULLARI

Usmonov Kuvonchbek Mannonovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

quvonch_uz2@mail.ru

***Annotatsiya.** Asfaltsmolaparafin (ASP) to‘planishiga qarshi kurash texnika va texnologiyasining rivojlanishi uzoq tarixga ega. Lekin hozirgi kunga kelib bu muammoni yechish bilan bo‘lgan qiyinchiliklar bartaraf etilmagan.*

***Abstract.** The development of techniques and technology to fight against the accumulation of asphalt tar paraffin has a long history. But until now, the difficulties of solving this problem have not been solved.*

***Kalit so‘zlar:** Asfaltsmolaparafin, kimyoviy, mexanik, tebranma, silliq qoplamlar, ekspres, sovuq silindr.*

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki smolaparafinli moddalar to‘planishini oldini olish nisbatan samarador hisoblanadi. Chunki bunda nisbatan ishonchli va neft koni jihozlarini halokatsiz ishlashga, neftni qazib chiqarish va o‘zatishtga xarajatlarning kamayishiga erishiladi.

Neft qazib chiqarish sanoatiga ASPT ga qarshi kurashning nisbatan keng tarqalgan va faol foydalaniladigan bir qancha usullari mavjud. Lekin konlarni ishlatish sharoitlarining turli xilligi va qazib chiqariladigan mahsulotning har xil tavsifi alohida munosabatni va hatto yangi texnologiyalarini ishlab chiqishni talab qiladi [1].

Parafin to‘planishiga qarshi kurash texnika va texnologiyasining rivojlanishi uzoq tarixga ega. Lekin hozirgi kunda kelib bu muammoni yechish bilan bo‘lgan qiyinchiliklar bartaraf etilgan deyish mumkin emas. Konlarni ishlatishning turli sharoitlari va qazib chiqariladigan neftning xarakteritikasi individual yondoshuvni talab qiladi.

***Kimyoviy usullar.** Hozirgi vaqtda asfaltsmolaparafin hosil bo‘lishini bartaraf qilish bo‘yicha keng qo‘llaniladigan yo‘nalish natijada quyidagi aniqlangan tadqiqotlarga asoslangan: neft yoki neft emulsiyasiga ma‘lum xossalarga ega bo‘lgan kimyoviy birikmalarni qo‘shish to‘plamlar hosil bo‘lishini kamaytiradi, ko‘picha butunlay bartaraf qiladi.*

Parafin to‘planishiga qarshi ingibitor reagentlarning asosida suyuq fazani va qattiq sirt bilan oralig‘i yuzasida bo‘ladigan adsorbsion jarayonlar yotadi.

Ana shu belgilariga ko‘ra ingibitorlar quyidagilarga bo‘linadi: hullovchi (smachivayushiye), modifikatorlar, depressatorlar va dispergatorlar.

Hullovchi agentlarning ishlash mexanizmi metal quvirlar yuzasida gidrofil plenka hosil qilib quvirlarga parafin kristallari agdeziyasiga to‘sqinlik qiladi va ularni suyuqlik oqimi bilan chiqib ketishiga imkon yaratadi. Bu guruh agentlarini samarali ishlashi uchun ular qo‘llanilmasdan avval quvirlarning yuzasi toza bo‘lishi lozim.

Modifikatorlar parafin molekullari bilan o‘zaro ta’sirlashib kristallarning mustahkamlanish jarayonini susaytiradi. Bu suyuqlikni harakatlanish jarayonida kristallarni muvallaq holatda ushlab turishga imkon yaratadi.

Depressatorlarning ishlash mexanizmi ularning molekullarini parafin kristallariga adsorbsiyalanishidan iborat bo‘lib, ularni agregatsiyalanishi va to‘planishini qiyinlashtiradi.

Dispergatorlar – neftning issiqlik o‘tkazuvchanligini oshirishna ta’minlaydigan va, natijada parafinning kristallanish jarayonini sekinlashtiradigan kimyoviy reagentlardir.

ASPT ga kimyoviy ta’sir ko‘rsatish prinsipiga ko‘ra reagentlarni birlashtirib quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

1-jadval

1	2
Erituvchilar sinflari	Erituvchilar
Individual erituvchilar	Tolual; 2-metil-metil-bisamin; 4,1,1-propelin-1,3-dioksan; 4,4-metil-5,6-digidrofin; 2-metilfurin; oltingugurtli uglerod; dixlorpropan
Tabiiy xarakterdagi organik birikmalarning turli sinfdagi erituvchilari	Gazkondensat; gazli benzin; siqilgan neft gazlarining aralashmasi; pirokondensat; MON-47D-; D-13; uglevodorod qobig‘i; oraliq mahsulotlar; “Voljskiy 1,2,3,4”
Organik birikmalarning bir yoki turli sinflari aralashmasi – neft kimyosi va neftni qayta ishlash mahsulotlari	Yengil neft; kerosin fraksiyasi; xlorlangan uglevodorodlar; piperilen fraksiyasi; atsetatlar aralashmasi; alfa-olefin fraksiyasi; uayt-spirt; kerosin
1	2
SFM (PAV) qo‘shilgan organik aralashmalar	Gaz benzini bilan SFM; aromatlashirilgan benzin bilan piperilen fraksiyasi va SJK; Aromatlashirilgan kondensat neft va sulfanol yoki SFM OP-10 bilan; izobetenning diamer va trimerlari OP-10 va I-1-A bilan; eritmalar alkiralir birikmali oksietil efir bilan; eritmalar katalizator bilan; SNPX-7R-1; izoparafinlar sulfanot natriy bilan.
Kimyoviy va neft kimyosi mahsulotlarini aralashtirishga yo‘naltirilgan organik kompozitsiyalar	Kerosinli distillyat atseton bilan; kerosin fraksiyasi atseton bilan; perxloretlen benzin fraksiyasi bilan; spirtlar va ketonlar kerosin bilan; SNPX-7r-2; ML-72; polietilenamin eritmasi; shaffof emulsin.

Suv asosidagi eritmalar va ko'p komponentli aralashmalar	Oksialkilirlangan mahsulotlar eritmaları; alyumin, magniy, kalsiy xloridlari ishqor, emultal va organik erituvchilar bilan; lignin ishqorlarning suvli eritmasi bilan; disulfid uglerod benzol, etilenglikol efiri, spirt, tuz kislotasi yoki boshqa kislotalar bilan; alifatik va aromatik uglevodorodlar aralashmasi ko'p atomli va past spirtlar efiri bilan; PAV-1, PAV-2; erituvchi ishqor va emulgator bilan; kaustik.
--	--

Eritmaning massasi ortishi bilan sterjnda hosil bo'lgan smolaparafin to'plamining miqdori aniqlanadi. Ingibitorning samaradorligi E quyidagi formula bilan anqlanadi:

$$\Theta = \frac{G_1 - G_2}{G_1} 100\%$$

bu yerda, G_1 , G_2 – muvofiq ravishda nazorat va ishchi tajribadagi to'plamlar miqdori.

Mexanik usullar. Mexanik usullar nasos kompressor quvirlarda hosil bo'lgan ASPT ni bartaraf qilishni ko'zda tktadi. Bu maqsadda turli konstruksiyadagi bir qancha gamma qirg'ichlar (skrebki) ishlab chiqilgan.

Ulardan birinchi qo'llanlanilgani bukilgan shtanga va u bo'ylab siljiydigan disk-qobig'dan iborat qiruvchi moslama bo'lgan. Moslama quduqqa shtangalar yoki kanatda tushirilgag. Tushirish boshlanganda pichoq shtanganing bukilgan qismigacha ko'tariladi va unda vertikal holatga ega bo'ladi. Bu uni quduqqa erkin tushishini ta'minlagan. Ko'tarilganda disk pastga tushagan va gorizontal holatga kelib NKQ tizmasi devoridan ASPT tazalagan. Bu tozalash usulining mavjud kamchiligi uning davriyligi hisoblanadi. Bu jarayonni nazorat qilish imkonini bermaydi va tozalaganda tiqin hosil bo'lishiga olib keladi.

Yonlama kesuvchi qismga ega bo'lgan qirg'ichlar birlamchi doimiy kesimli yonlama pichoqlar bilan jihozlangan va ixtirochilarning fikriga ko'ra yuqoriga va pastga harakatlenganda parafinni kesishi lozim bo'lgan. Qirg'ichlar ko'pinchi tiqilib qolgan, ular tushirilgan simlar uzilib ketgan, bir qancha murakkabliklarni yuzaga keltirgan va quvirlarni ko'tarish bilan yakunlangan. Pichoqlarining kesimi o'zgaradigan qirg'ichlarni konstruksiyasiga siljiydigan pichoqlar qo'yilgan: ular tushirilganda yig'ilib kundalang kesimi kichraygan, kutarilganda kengaygan. Qirg'ichlarni tushirish qo'l kuchi yordamida lebetdka orqali amalga oshirilgan, bu ko'p vaqt oladi va qiyin jarayon hisoblanadi. Keyingi yillarda muhandislar va konstruktorlarning e'tibori bu jarayonning mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga yo'naltirilgan.

Tebranma usullar. Bu usullar parafin hosil bo'lish zonasida parafin kristallariga ta'sir ko'rsatib quvirlarning devoriga to'planishiga to'sqinlik qiladigan ularning mikrosiljishini yuzaga keltiruvchi ultratovush tebranishlarni hosil qilishga asoslangan.

Gidravlik tebratgichlarni sinash natijalari bo'yicha nashr qilingan materiallar qarama-qarshi. Taxmin qilishga asos bor, tebranish NKQ ning rezkali birikmalarining mustahkamligiga ta'sir ko'rsatadi hamda ularning yemirilishi va yechilib ketishiga imkon yaratadi.

Quduqda ishlaydigan nasos jihozlari, ayniqsa makazdan qochma nasos qurilmalari ham quvirlarning tebranishiga olib kelishini hisobga olganda sistemaning avariyalarga olib keladigan rezonansli tebranishi yuzaga kelishi mumkin.

Parafinga qarshi kurash maqsadlari uchun tebratgichlarni qo'llash keng tarqalmagan.

Silliq himoya qoplamalarini qo'llash. Tadqiqotchi olimlar tomonidan aniqlanganki, himoya quvurlari va ko'tarilish tizmasi yuzasining g'adir-budirligi ASPT hosil bo'lishiga imkon yaratuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra yuzaning g'adir-budirligi oshib borishi bilan parafin to'planishi ortib boradi. Yuzaning g'adir-budirligi qancha yuqori bo'lsa, parafin hosil bo'lishishuncha jadal bo'ladi.

Keyingi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, lak, shisha, emaldan hosil qilingansilliq yuzada parafin to'planishi ahamiyatsiz bo'ladi.

Ma'lumki, kon sharoitlarida ishlatilganda NKQ lar tashish, ko'tarib-tushirish operatsiyalari va quduqlarda ahamiyatli zarbli, cho'ziluvchi, siqiluvchi, bukuvchi va boshqa yuklamalarga uchraydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday sharoitlarga epoksid va emal qoplamali quvurlar ko'proq mos keladi.

Shishali qoplama uning mo'rtligi, ahamiyatli qalinligi va quvur metali bilan bog'lanishi bo'lmaganligi sababli ishonchli emas va ko'tarib-tushirish operatsiyalarida yemirilib ketdi. Bu NKQ tizmasida shisha tiqinini hosil bo'lishi va nasosning tiqilib qolishiga olib keladi. Bundan tashqari, shisha va emal qoplamalarni hosil qilish texnologiyasi quvurlarni 700-800 oS gacha qizdirishni ko'zda tutadi, bu metal strukturasi qaytarib bo'lmaydigan jarayonlarni va rezbalar uchlarining erishiga olib keladi. Keyingisi quvurlar rezkali birikmasini mustahkamligini pasayishiga olib keladi va uzilishlarni yuzaga keltiradi.

Markazdan qochma nasos qurilmalari bilan ishlatiladigan quduqlarda qoplamali liftlardan foydalanish ayniq samarador hisoblanadi, chunkiyuqori debitli quduqlarga qirg'ichlarni tushirish qiyin, ko'pincha mumkin emas. Qirg'ichni tushirish uchun nasosni to'xtatish kerak, lekin busimlarni o'ralib qolishi va bir qator hollarda yer osti ta'mirlash bilan tugaydigan boshqa murakkabliklardan xoli emas.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, qoplamali liftlardan foydalanish quduq ishlashining ta'mirlash oralig'i davrini 30-40 % ga oshiradi. Qoplamali quvurlar bilan ko'tarib-tushirish operatsiyalari odatdagi quvurlar bilan bajariladigan operatsiyalardan farq qilmaydi. Faqatgina quvurlarni ko'tarish va tushirish tezligini 0,25 m/s gacha kamaytirish lozim.

Shuni nazarda tutish lozimki, maxsus qoplamali xalqalar bilan himoyalangan quvurlarning birikmalarida parafin to'planadi. Shuning uchun bunday liftlarda xalqalarni albatta o'rnatish kerak.

Qoplamalarni hosil qilishda quvurlarni qizdirish uning deformatsiyalanishiga olib keladi. Quvurlarni quduqqa tushirishda yuklama qo'yish jarayonida u to'g'rilanb shishaning yorilishiga va qoplamaning yemirilishiga olib keladi. Bundan tashqari, bunday qoplama quvurlarni 100-150 oS haroratgacha qizdirilib hosil qilinadi, shuning uchun quvurlar metali strukturasi deformatsiya ham bo'lmaydi.

Ammo epoksid smolalarining yetarli darajada bo'lmagan termo- va sovuqqa chidamliligi ularni keng qo'llashdagi chegaralovchi omil hisoblanadi.

Shu pozitsiyalardan kelib chiqib shishaemal bilan qoplangan NKQ lar eng yaxshi hisoblanishi mumkin. Emaoning mustahkamligi va agdeziyasi yuqori. Tushirish-ko'tarish operatsiyalari va tashish jarayonida yorilishlar kuzatilmaydi. Yoyilishga katta qarshiligi, past issiqlik- va elektr o'tkazuvchanligi emal qoplamali quvurlarni qo'llash istiqbollarini ochadi.

ASP to'planishini oldini olish va bartaraf qilish usullarining samaradorligi tahlili. ASPT ning hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan murakkabliklar ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishga tizimli yondoshuvga qaramasdan hozirgi kunda to'liq bartaraf qilingan emas. Bu ahamiyatli darajada neftdagi og'ir organik birikmalarning holatini yetarli darajada tushunib yetmaslik bilan bog'liq. Eng avvalo neftdagi asfaltenlarning holati haqidagi savol hamon ochiq qolmoqda. Bularning hammasi neftda bo'lib o'tadigan negativ jarayonlarni ishonchli modellashtirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan, neftli sistemalarni holatini tavsiflovchi matematik modellarni yaratish imkonini bermaydi [3].

Hozirgi vaqtda bu muammolarni yechish uchun ASPTni bartaraf qilishning ko'p miqdordagi usullaridan foydalanilmoqda. ASPT ni bartaraf qilishning nisbatan universal usuli turli konstruksiyadagi qirg'ichlardan foydalaniladigan mexanik tozalash usuli hisoblanadi. Turli issiqlik manbalaridan olinadigan harorat hisobiga ta'sir ko'rsatish yo'li bilan to'plamlarni eritishga asoslangan issiqlik usullari keng qo'llanilmoqda. Bunda issiqlik yuborish uchun qaynoq neftni haydash, bug' bilan ishlov berish va elektr qizdirgichlardan foydalaniladi. Shuningdek amaliyotda bu usullar birgalikda keng qo'llaniladi. Ammo, qator holatlarda bu usullar qo'llab

bo'lmaydigan yoki kam samarador hisoblanadi. Shuning uchun keyingi vaqtlarda ASPT ga qarshi kurashda kimyoviy reagentlar – ingibitorlar muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda [2, 3, 4, 5, 7].

Ingibitorlarni tanlash qoidaga muvofiq neftning tarkibini hisobga olmagan holda amalga oshiriladi: past- va yuqori molekulyar uglevodorodlar, smola-asfaltenli moddalar miqdori hamda neftli cho'kmalarning tarkibi va xossalari ularning ta'siri [6].

XULOSA

Hozirgi vaqtda neft konlari jihozlarida asfaltsmolaparafin to'plamlari hosil bo'lishini bartaraf qilishning ma'lum bo'lgan usullari bu muammoni to'liq yechish imkonini bermaydi va to'plamlarni bartaraf qilish muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

1. Birinchi marotaba Navoiy shahridagi "Tehno millenium" ilmiy ishlab chiqarish korxonasi ishlab chiqariladigan "Atsetatlar aralashmasi" quduqlarni ASPT dan tozalash uchun sinab ko'rildi va ijobiy natijalar olindi.

2. Quduqlarda asfaltsmolaparafin to'planishini oldini olish va ularni bartaraf qilish uchun foydalaniladigan har qanday kimyoviy reagentlarning, xususan "Atsetatlar aralashmasi"ning konsentratsiyasi va ishlov berish texnologiyasini har bir quduq uchun uning texnik-texnologik sharoitlari, qazib chiqariladigan maxsulotning fizik-kimyoviy xossalari va boshqalarni hisobga olgan holda alohida tanlash maqsadga muvofiqligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Глуценко В.Н., Юрпалов И.А., Шипигузов Л.М. Оценка эффективности ингибиторов асфальтсмолопарафиновых отложений // Нефтяное хозяйство. №5. 2007. С. 84-87.

2. Юдина Н.В., Прозорова И.В., Турфикини Л.М., Лоскутова Ю.В. Композиции для очистки нефтепромыслового оборудования от асфальтсмолопарафиновых отложений // Химия в интересах устойчивого развития. №7. 1999. 315-319.

3. Агаев Г., Землянский В.О., Гультияев С.В., Яковлев Н.С. Парафиновые отложения в условиях добычи нефти и депрессорные присадки для их ингибирование // Журнал прикладной химии. №8. 2006. Т.79. 1373-1373.

4. Абузова Ф.Ф. Борба с потерями нефти и нефтепродуктов при их транспортировке и хранении. М.: Недра, 1981. С.248.

5. Малышев А.Г. Выбор оптимальных способов борьбы с парафинообразованием // Нефтяное хозяйство. 1997, №1, С. 62-69.

6. Бешагина Е.В. Состав и структурно-реологические свойства асфальтосмолопарафиновых отложений в зависимости от условий их образования и химического типа нефти // Автореферат дис. канд. хим. наук, - Томск.; 2009.

7. Отчет х/д №138/10 по теме «Разработка и опытно-промышленное испытание новых отечественных химреагентов на базе местного сырья для повышения эффективности нефтедобычи на месторождений ОАО «Джаркурганнефть»» заключенного в рамках III Республиканской ярмарки инновационных идей, технологий и проектов. Карши 2012.

8. Axmedov X.R., Panjiyev H.A., Usmonov K.M. Surxandaro neftgazli regionidagi yuqori qovushqoqli neft konlarida quduqlarning qazib chiqarish samaradorligini oshirish texnologiyasi. Academic Research in Educational Sciences. January 2022.

9. Axmedov X.R., Panjiyev H.A., Usmonov K.M. Yuqori qovushqoqli neft va tabiiy bitum konlarini qazib chiqarish samaradorligini oshirish. Academic Research in Educational Sciences. November 2022.

SUG‘ORISH REJIMINI OLMA DARAXTI HOSILDORLIGIGA TASIRI

Xolmatova Shahodat O‘ralovna

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”

Milliy tadqiqot universiteti

“Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish” kafedrası magistranti

shahodatxolmatova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yanada barqaror rivojlantirish, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish chora-tadbirlari kompleksini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirishni so‘zsiz ta‘minlash hamda suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish hamda intensiv bog‘larni sug‘orishda maqbul sug‘orish rejimi ushbu maqolada ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: *suv tejovchi, olma bog‘lari, sug‘orish usuli, sizot suvlar sathi, sug‘orish rejimlari, -Chegaraviy dala nam sig‘imi (ChDNS).*

THE INFLUENCE OF THE IRRIGATION REGIME ON THE PRODUCTIVITY OF THE APPLE TREE

ABSTRACT

Unconditional provision of timely and high-quality implementation of a set of measures for a more sustainable development of agricultural production, improvement of reclamation of irrigated lands and development of irrigation systems, as well as the rational use of water and land resources, as well as the optimal irrigation regime for irrigating intensive gardens.

Key words: *water saving, apple orchards, irrigation method, seepage water level, irrigation regimes, Limiting field moisture capacity (CFS).*

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishda, suv xo‘jaligining ahamiyati katta. Shu bois bu sohada ilmiy va amaliy tadqiqotlarni talab darajasida tashkil etish, ekinlarni sug‘orishda yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalarni sinab ko‘rish va keng maydonlarga joriy qilishni talab qiladi.

Mintaqamizda hozirgi kunda ortib boryotgan suv taqchilligi sharoitida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqarorligi va rivojlanishi ko‘p jihatdan sug‘orish texnologiyalarining samaradorligiga bog‘liq. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish

usullari orasida tomchilatib sugʻorish tizimi samarali resurs tejamkor texnologiyalaridan biri hisoblanadi.

Qishloq xoʻjalik ekinlari egatlar orqali sugʻorilganda oʻq ariqlardan sugʻorish suvining tuproq qatlamlariga shimilishi, bugʻlanishi natijasida behuda yoʻqotishlar kuzatiladi. Bundan tashqari, qishloq xoʻjaligi ekinlari hamda bogʻ va uzumzorlarga ishlov berilishini oʻz vaqtida amalga oshirilmasligi natijasida sugʻorish suvlari katta miqdorda isrof boʻladi. Bogʻ, uzumzorlar va sugʻoriladigan hududlarini sugʻorish meʼyorini ilmiy asoslash hamda kunlik evapotranspiratsiyani hisobga olish muhimdir. Ananaviy sugʻorilganda sizot suvlar sathi yer yuzasiga yaqinlashganligi sababli vegetatsiya davrida namlikning bugʻlanishi yuqori boʻladi va ildiz tizimi rivojlanadigan qatlamda zararli tuzlarning toʻplanishi sodir boʻladi. Shu boisdan suv taqchilligini hisobga olib suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish, sugʻorishda ilgʻor zamonaviy innovatsion suv tejamkor texnologiyalarni qoʻllash dolzarb masala hisoblanadi. Suvdan tejamli va samarali foydalanish, mineral oʻgʻitlar, oʻsishni sozlovchi (stimulyatorlar) moddalarni suv bilan aralashtirib berishga imkoniyat beruvchi istiqbolli usullardan biri bu tomchilatib sugʻorishdir. Respublikamizda tomchilatib sugʻorish tizimi turli tabiiy-iqlim sharoitlarida tajriba, tajriba ishlab chiqarish va ishlab chiqarish maydonlarida sinovdan oʻtkazilgan. Biroq qishloq xoʻjaligi ekinlarini tomchilatib sugʻorish rejimlarini Respublikamizning tuproq-iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilmagan. Bu esa oʻz navbatida ilmiy asoslangan resurs tejamkor tomchilatib sugʻorish tartiblarini ishlab chiqishda ushbu maqola muayan darajada xizmat qiladi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi: Namlik tanqisligi boʻyicha sugʻorish meʼyori aniqlash. Namlik tanqisligi boʻyicha Sugʻorish meʼyorini aniqlash. Tomchilatib sugʻorish tizimi uchun sugʻorish meʼyori quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$m_{nt} = 100 \cdot h \cdot \alpha \cdot S \cdot (W_{dn} \cdot W_i); m^3 / ga$$

Bu yerda: α - tuproqning hajmiy ogʻirligi, t / m^3 ;

h-hisobiy qatlam chuqurligi. m;

S-umumiy maydonga nisbatan namlantiriladigan maydon;

W_{dn} -chegaraviy dala nam sigʻimi, % quruq tuproq massasidan;

W_i -sugʻorish oldi namligi, % quruq tuproq massasidan.

Bunda bizga kerak boʻlgan maʼlumotlar, tuproq hajmiy massasi va dala nam sigʻimi

Hajmiy massasi g/sm ³	Chegaraviy dala nam sigʻimi %	Chirindi % 0-10 sm chuqurlikda	Chirindi % 10-25 sm chuqurlikda	Chirindi % 25-40 sm chuqurlikda	Chirindi % 40-70 sm chuqurlikda
1,3	24	1,2	07	0,35	-

1 jadvalda berilgan. Ushbu ma'lumotlar asosida turli hil sug'orish rejimlari bo'yicha aniqlangan sug'orish me'yorlari quyidagi 2 jadvalda keltirilgan.

2- jadval. Namlik tanqisligi bo'yicha sug'orish me'yorlari va davomati

№	CHDNS ga nisbatan sug'orish oldi tuproq namligi, %	Sug'orish me'yorlari m ³ /g			
		Namlantirish qatlami chuqurligi, 0,6 m	Sug'orish davomati, soat	Namlantirish qatlami chuqurligi, 0,8 m	Sug'orish davomati, soat
1	70	187	27,5	249,3	36,6
2	75	155,8	23	207,8	30,5
3	80	124,6	18,3	166,23	24,4

Vegetatsiya davomida sug'orishlar soni o'rganilayotgan variantlar bo'yicha sug'orish oldi namlik tanqisligi va tuproqni namlantirish chuqurligiga bog'liq bo'lib, ushbu miqdor turli hil rejimda turlicha bo'ladi. Agar namlantirish chuqurligi qiymati qancha yuqori bo'lsa sug'orishlar soni ham shuncha kamayadi.

3- jadval. Vegetatsiya davomida sug'orishlar soni

O'rganilayotgan variantlar bo'yicha			
№	CHDNS ga nisbatan sug'orish oldi tuproq namligi, %	Mavsumiy sug'orishlar soni	
		Namlantirish qatlami qalinligi, 0,6 m;	Namlantirish qatlami qalinligi, 0,8 m;
1	70-70-70	20	15
2	80-70-80	26	19
3	75-75-75	26	19
4	70-75-80	27	21
Nazorat variant bo'yicha			
№	Variant	Mavsumiy sug'orishlar soni	
1	Nazorat	6	

4- jadval. Mavsumiy sug'orish me'yorlari

O'rganilayotgan variantlar bo'yicha			
	CHDNS ga nisbatan sug'orish oldi tuproq namligi, %	Mavsumiy sug'orish me'yori m ³ /ga	
		Namlantirish qatlami qalinligi, 0,6 m;	Namlantirish qatlami qalinligi, 0,8 m;
	70-70-70	3740	3735
	80-70-80	3863,6	3822
	75-75-75	4050,8	3948,2
	70-75-80	3987,6	3989,24
Nazorat variant bo'yicha			
	Variant	Mavsumiy sug'orishlar soni	
	Nazorat	5600	

Dala tajribalari davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki intensiv bog'larda parvarishlanayotgan mevali daraxtlar tuproq namligiga bo'lgan talabi dala nam sig'imiga nisbatan 70–80% bo'lishini taqozo etadi. Ushbu talab bajarilgandagina daraxtlar yaxshi o'sib rivojlanadi. Egatlab sug'orilganda tuproqda namlik keragidan ortib ketdi va daraxtlar suvga bo'kishi hisobiga tuproqda kislorod yetishmasligi sezildi. Ko'pchilik o'simliklar uchun tuproqda suvning yetishmasligi singari mevali daraxtlarda ham tabiiyki namning haddan tashqari ortiqcha bo'lishi ham zararlidir. Tomchilatib sug'orilganda esa suv ekinnining talabiga qarab berilib tajriba maydonining hamma yeri bir xil namlandi va tuproqda ortiqcha namlik 65 yuzaga kelmadi. Intensiv bog'larda yetishtirilayotgan meva daraxtlatining ildiz tizimi popuk ildiz bo'lib, ildiz sistemasi asosiy qismi tuproqning 50-80 sm chuqurlikda joylashganligini sababli qurg'oqchilikka chidamsizligi aniqlandi. Egatlab sug'orilganda sug'orishlar orasi uzoqligi sababli tuproq qurib daraxtlar suvsiz qoldi. Daraxtlarga suv yetishmaganligi sababli, ular erta va tezroq gulladi. Bu esa o'z navbatida meva tugishini kamaytirdi va ko'p meva to'kilishiga olib kelib, daraxt hosiliga sezilarli darajada salbiy tasir ko'rsatdi. Bu masalaning birinchi tomoni masalaning ikkinchi tomoni esa agar o'simlik yetarlicha nam bilan taminlanmagan tuproqda o'sib rivojlansa, uning ildizi suv qidirib tuproqning nam qatlamiga qarab intiladi va ildiz tizimi tuproqqa chuqur kirib, yon tarafga keragidan ortiq tarqalib ketadi. Bu jarayon esa intensiv bog'larda daraxtlarni kuchli o'sishini keltirib chiqaradi va hosilni kamayishiga olib keladi. Ushbu holat yuzaga kelganda intensiv bog'larda qo'shimcha xarajatni talab etadigan daraxt ildizlarini qirqish ishlari bajariladi. Tajriba sxemasi bo'yicha tomchilatib sug'orish qo'llanilgan variantlarda daraxt ildiz qatlamining namligi bir hilda ushlab turildi. Tuproq nam bilan yaxshi ta'minlanganligi

sababli ildiz tuproqqa ko'p chuqur kirmasdan tuproq yuzasiga yaqin joylashdi va mevali daraxtlar o'z energiyasini ko'p qismini hosiliga sarfladi.

5-jadval. Variantlar bo'yicha hosildorlik

№	CHDNS ga nisbatan sug'orish oldi tuproq namligi, %	Hisobiy qatlam chuqurligi, m	Hosildorlik, s/ga	Nazorat varianti bo'yicha hosildorlik, s/ga	Nazorat variantiga nisbatan hosildorlikni ortishi
1	70-70-70	0,6	65	35,76	29,24
		0,8	66,67		30,91
2	80-70-80	0,6	74,2		38,44
		0,8	77,6		41,84
3	75-75-75	0,6	69,09		33,33
		0,8	71,96		36,2
4	70-75-80	0,6	70		34,24
		0,8	73,79		38,03

O'tkazilgan dala tajribalarida eng yuqori hosildorlikka CHDNS ga nisbatan sug'orish oldi tuproq namligi 80-70-80 % hisobiy qatlam chuqurligi 0,8 m bo'lgan variantda erishilib, hosildorlik 77,6 s/ga ni tashkil etdi. Eng kam hosildorlikka esa nazorat variantida erishildi. Tomchilatib sug'orish usuli qo'llanilgan har bir variantda egatlab sug'orish usuli qo'llanilgan nazorat variantiga nisbatan yuqori hosil olishga erishildi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, tomchilatib sug'orish tizimi qo'llanilganda hosildorlik albatda ortadi va suv resuslari an'anaviy usullarga nisbatan kam sarf bo'ladi.

Xulosa

Havodagi namlikni yetarli bo'lishi mevali daraxtlarga ijobiy tasir ko'rsatadi. Shu sababli mamlakatimiz sharoitida yangi barpo qilingan bog'larda qator oralig'iga oraliq ekinlar ekib foydalanish bog'ni va mevali daraxtlarni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, yerdan foydalanish samaradorligini hamda tuproq unumdorligini oshiradi. Bog' qator oralaridan foydalanishda oraliq ekinlar to'g'ri tanlashni bilish lozim. Chunki ba'zi o'simliklar baqlajon, qalampir, pamidor kasalliklar tarqatish xususiyatiga ega uchun ularni qator oralariga oraliq ekin sifatida ekmagan maqul. Intensiv bog'ni mevali daraxtlarning rivojlanish fazalaridagi suvga bo'lgan talabini inobatga olgan holda sug'orish rejimini belgilash juda muhim masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1-martdagi 144-sonli “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida” qarori
2. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20-aprelda 201-sonli “2022-2026 yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori
3. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. –Toshkent 2007., 176-b.
4. Toshmatov M. – Suv resurslarini tejovchi texnologiya. O‘zRQVSV, PSUYeAITI, IKARDPA, IVMI o‘tkazgan xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya ma’ruzalari asosidagi maqolalar to‘plami. Toshkent – 2007, 76 – bet.
5. Astraxova S. A - “Meva sabzavotchilik” Toshkent 2005-yil.
6. Bespalov. N. F - O‘zbekistob qishloq xo‘jalik jurnali. 5-son. 11-bet.
7. Shukurlayev X.I, Mamataliyev A.B, Shukurlayeva R.T Qishloq xo‘jaligi gidrotexnika melioratsiyasi Qishloq xo‘jaligi gidrotexnika melioratsiyasi Toshkent 2007 y. 238 b
8. Kolishkov. N. M.- O‘zbekistob qishloq xo‘jalik jurnali. 1985-yil.8-son
9. <http://www.ab-centre.r>
10. uzsmart.uz

BOJXONA XIZMATI XODIMLARI FAOLIYATIDA MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Qodirov Mirzaakram Sobirjonovich

Bojxona instituti Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti "Psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish" markazi boshlig'i, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Usmonov Sarvarbek Ulug'bek o'g'li

Toshkent viloyati bojxona boshqarmasi xodimi hamda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tinglovchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bojxona xodimlari faoliyatida muloqot ko'nikmalarining ahamiyati va bu ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan usullar o'rganiladi. Bojxona xodimlari yuklarni tekshirish, yo'lovchilar bilan suhbatlar o'tkazish va bojxona qoidalariga rioya qilish kabi vazifalarni bajarishlari uchun samarali muloqot zarur. Maqolada muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning turli yondashuvlari, masalan, faol tinglash, nizolarni hal qilish, og'zaki bo'lmagan muloqot va hissiy intellekt tushunchalari va ularni qo'llash muhokama qilinadi. Shuningdek, bojxona kasbining rivojlanib borayotgan tabiati, bojxona xizmati xodimlari har kuni duch keladigan odamlar va vaziyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda, muloqot ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirish va takomillashtirish zarur hisoblanadi. Umuman olganda, maqola bojxona xodimlari faoliyatida muloqotning o'rni haqida qimmatli nuqtai nazarni taqdim etadi va ushbu muhim ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali usullari haqida tushuncha beradi.

Kalit so'zlar: *bojxona xizmati xodimlari, muloqot, muloqot qobiliyatlari, chegara, muloqot psixologiyasi, faol tinglash, hissiy intellekt.*

DEVELOPMENT OF COMMUNICATION SKILLS IN THE ACTIVITIES OF CUSTOMS OFFICERS

ABSTRACT

This article will study the importance of communication skills in the activities of customs officers and the methods used in the formation of these skills. Effective

communication is necessary for customs officers to perform tasks such as cargo inspection, passenger interviews, and compliance with customs regulations. The article discusses various approaches to the development of communication skills, such as active listening, conflict resolution, nonverbal communication, and the concepts of emotional intellect and their application. It is also necessary to constantly develop and improve communication skills, taking into account the evolving nature of the customs profession, the variety of people and situations that customs officers face every day. In general, the article presents a valuable point of view on the role of communication in the activities of customs officers and provides an understanding of effective ways to develop these important skills.

Keywords: *customs officers, communication, communication skills, borderline, communication psychology, active listening, emotional intellect*

KIRISH

Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sogʻlom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta eʼtibor berilmoqda. Komil insonning muhim sifatlaridan biri uning muloqoti va madaniyatidir. Yetarlicha shakllanmagan muloqot madaniyatisiz sogʻlom ijtimoiy munosabatlarni oʻrnatish mushkul. Bojxona xizmati organlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarni yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash - bugungi kunning dolzarb va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda bojxona xizmatida amalga oshirilayotgan islohotlarning rivoji xodimlarning maʼnaviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga ham koʻp jihatdan bogʻliq. Bu vazifalarni amalga oshirish insonning oʻzaro munosabatlarida demokratik tamoyillarning teran tafakkur etishni taqozo etadi. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat roʻyobga chiqariladi. Muloqot psixologiyasi sohasidagi bilimlarni xodimlarga yetkazish ularda psixologik savodxonlikni oshiradi, ularning maʼnaviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishga, boʻlgʻusi faoliyatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Shu sababli bojxona xizmati xodimlarining oʻzaro va ularning fuqarolar bilan muomala madaniyatini oshirishda muloqot psixologiyasining oʻrni beqiyosdir.

Muloqot faqat insonlarga xos boʻlgan jarayondir. Kishilar faoliyat jarayonida bir-birlari bilan muloqotda boʻlish ehtiyoji tugʻiladi. Oʻzaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi. Odamlar oʻrtasidagi muloqot va uning umumiy qonuniyatlari odam turmush tarzining barcha jabhalarida boshqa odamlar bilan boʻladigan oʻzaro munosabatining eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Odamning aqli, irodasi, hissiy madaniyati, tarbiyalanganligi

va shu kabilarning barchasi muloqot tufayli shakllangan xislatlardir. Muloqot madaniyatiga birinchidan, o'zini-o'zi bilish va boshqa odamlarni tushuna olish qobiliyati, ya'ni ularning psixologik xususiyatlarini to'g'ri baholay olish, ikkinchidan ularning xulqi va holatlariga nisbatan mos munosabat bildira olish, uchinchidan, har bir odamga nisbatan uning shaxsining individual xususiyatlarga eng ma'qul keladigan muloqot shakli, usullarini tanlay bilish kiradi. Muloqot psixologiyasi shaxsiy tarkibda xizmat olib borayotgan va o'qiyotgan xodimlarning ma'naviy dunyosini boyitish, yangicha tafakkurni shakllantirish, muloqot madaniyatini o'zlashtirishni ta'minlash kabi maqsadlar qo'yadi [5].

Globalashgan dunyoda xalqaro savdo va odamlar va tovarlarning transchegaraviy harakatlanishi tez-tez sodir bo'lib, milliy iqtisodiyotlarning rivojlanishi uchun zaruriy holga aylandi. Bojxona xodimlari sayohatchilar va yuklarning shaxsini hamda tarkibini tekshirish va nazorat qilish orqali ushbu harakatlarning xavfsizligi va qonuniyligini ta'minlash uchun javobgardir. Samarali muloqot bojxona xodimlari ishining muhim jihati hisoblanadi, chunki bu ularga sayohatchilar, hamkasblar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan muloqot qilish, o'z vazifalarini samarali va unumli bajarish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kishining kundalik hayotining asosiy qismi mehnat qilish, tahsil olish va boshqa jamoat ishlarini bajarish bilan o'tadi. Har bir inson o'zining tashqi ko'rinish, ma'naviy-axloqiy go'zalligiga ega, shu bilan bir qatorda muloqot va muomala ham muhim ta'sir etuvchi vositadir.

O'z kasbiy faoliyatlari jarayonida bojxona xodimlari shaxsni o'rganish maqsadida qo'llaniladigan muloqot psixologik metodidan doimiy ravishda foydalanadilar. Shu boisdan ham bugungi kunda bojxona xodimlarining muloqotchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishni tadqiq qilish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Avvalo muloqot tushunchasiga berilgan bir qator fikrlar bilan tanishib chiqadigan bo'lsak: A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida muloqot ikki va undan ortiq kishilar o'rtasidagi axborot ayriboshlash, o'zaro ta'sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon sifatida e'tirof etiladi. M.G.Davletshin muallifligida chop etilgan "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilar orasidagi affektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashinishidan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir"- deb ta'kidlanadi. Psixologiya lug'atida muloqot tushunchasiga ikki xil ta'rif beriladi:

1. Muloqot — hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'ratish va uni rivojlantirish jarayoni;

2. Muloqot — belgilar tizimi orqali subyektlarning o‘zaro ta‘sirlashuvi

“Muloqot — odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlashni o‘z ichiga oladi” [1].

Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya‘ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o‘qish, o‘yin, ijod qilish va boshqalar) o‘zaro munosabat va o‘zaro ta‘sir shakllarini o‘z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma‘lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro‘si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo‘lib, unga odam hayoti mobaynida o‘rganib boradi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Chegaralarimiz xavfsizligi va daxlsizligini ta‘minlashda bojxonachilarning o‘rni katta. Samarali muloqot bojxonachilar ishining muhim jihati hisoblanadi, chunki ular turli dunyoqarash va madaniyatga ega bo‘lgan shaxslar bilan muloqot qilishlari va nozik vaziyatlarni xushmuomalalik hamda diplomatiya bilan hal qilishlari kerak. Kuchli muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish ularning o‘z vazifalarini samarali va foydali bajarish imkoniyatini oshirishi mumkin. Ushbu maqolada biz bojxona xodimlarining muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishning ba‘zi usullarini muhokama qilamiz [2].

1. **Faol tinglash.** Faol tinglash asosiy muloqot qobiliyati bo‘lib, u boshqa odam gapirayotgan narsaga diqqat bilan qarashni va uning nuqtai nazarini tushunishni o‘z ichiga oladi. Bojxona xodimlari ko‘z bilan aloqada bo‘lish, ochiq savollar berish va olingan ma‘lumotlarni umumlashtirish orqali faol tinglash ko‘nikmalarini oshirishlari mumkin.

2. **Turli millatlar madaniyatini o‘rganish.** Bojxona xodimlari turli madaniyat va millat vakillari bilan ishlaydi. Shuning uchun ular madaniy jihatdan xabardor bo‘lishlari va boshqalarning ehtiyojlariga sezgir bo‘lishlari kerak. Turli madaniyatlar, urf-odatlar va ular to‘g‘risida tushunchani rivojlantirish bojxona xodimlariga turli millat vakillari bilan yanada samarali muloqot qilishda yordam beradi.

3. **Nizolarni hal qilish.** Nizolarni hal qilish bojxona xodimlari uchun muhim muloqot mahoratidir. Ular tez-tez xafa bo‘lgan va keskin vaziyatlarni tezda bartaraf etishlari kerak bo‘lgan odamlarga duch kelishadi. Mojarolarni hal qilish bo‘yicha

ko'nikmalarni rivojlantirish bo'xona xodimlariga nizolarni yanada samarali boshqarishga va professional xulq-atvorni saqlashga yordam beradi.

4. **Og'zaki bo'lmagan muloqot.** Og'zaki bo'lmagan muloqot samarali muloqotning muhim jihati hisoblanadi. Bo'xona xodimlari boshqalar bilan muloqot qilishda ularning tana tili, ovoz ohangi va mimikasini bilishi kerak. Og'zaki bo'lmagan signallarga e'tibor qaratish orqali bo'xona xodimlari yanada samarali muloqot qilishlari va tushunmovchiliklardan qochishlari mumkin.

5. **Hissiy intellekt.** Hissiy intellekt - bu o'z his-tuyg'ularini va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va boshqarish qobiliyati. Kuchli hissiy intellektga ega bo'lgan bo'xona xodimlari o'zlari duch kelgan odamlar bilan yanada samarali muloqot qilishlari va munosabatlarni o'rnatishlari mumkin. Hissiy intellektni o'quv dasturlari, o'z-o'zini aks ettirish va hamkasblarning fikr-mulohazalari orqali rivojlantirish mumkin.

6. **Aniq va qisqa muloqot.** Bo'xona xodimlari uchun muloqotning tushunarli va qisqa bo'lishi muhim ahamiyatga ega, chunki bu tushunmovchiliklarning oldini oladi va muhim ma'lumotlarning to'g'ri yetkazilishini ta'minlaydi. Bo'xona xodimlari boshqalar bilan muloqot qilishda sodda va tushunarli tildan foydalanishga intilishi, jargon, shevadagi so'zlar va texnik atamalardan qochishi zarur.

Bo'xona xodimlari o'zlarining muloqot ko'nikmalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish orqali o'z vazifalarini bajarish qobiliyatini oshirishlari va aholiga yanada sifatli xizmat ko'rsatishlari mumkin [4].

XULOSA

Muomala har qanday faoliyatning zaruriy muhim jihatidir. Aynan muomala jarayonida va faqat u orqali insonning mohiyati namoyon bo'ladi, o'zaro tushunishga, ishni bajarish chog'ida uyg'unlikka erishiladi, u yoki bu holatlarda bir-birlarining xatti-harakatlarini bashorat qilish qobiliyati o'sadi yoki, aksincha, nizolar va axloqiy ziddiyatlar, ishdagi kelishmovchiliklar yuzaga keladi, muloqotdagi sherigining xatti-harakatini oldindan ko'rishga qobiliyatsizlik namoyon bo'ladi. Muomala yoki kommunikatsiya - odamlarning o'zaro hamkorligi shakllaridan biridir. Mazkur maqola doirasida bo'xona tizimi sohasida o'z xizmat faoliyatini olib borayotgan xodimlarga shaxslararo muomala jarayoni haqida umumiy bilimlar berish, bo'xona faoliyatida xodimlarning samarali muloqot ko'nikmalarini takomillashtirish masalalariga, bo'xona faoliyatida uchraydigan hayotiy holatlarga qanday yondashish kerakligini izohlab berishga harakat qilindi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bo'xona xodimlari o'z xizmat vazifalarini samarali va sifatli bajarishlari uchun samarali muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishi bugungi kunning zaruriy sharti hisoblanadi..Bugungi globallashtirilgan dunyoda bo'xona

xodimlari xavfsizlikni ta'minlash bilan birga xalqaro savdoni osonlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Samarali muloqot ko'nikmalari bu rolning muhim tarkibiy qismidir va bojxona organlari o'z xodimlarida ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berishlari kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maxsudova M. "Muloqot psixologiyasi", O'quv qo'llanma, Toshkent. "TURON-IQBOL" 2006-yil
2. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
3. Ergashev P. Muloqot psixologiyasi (ma'ruzalar matni). Toshkent, 2003.
4. Aslonov I.N., Alimov X.M., Hamroqulov G'. Bojxona xodimlarining kasbiy-psixologik tayyorgarligi jarayonida samarali muomala ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: OHBI, 2008.
5. Qodirov M. Bojxona xodimining muloqot psixologiyasi. Uslubiy qo'llanma. BI. – T.: 2019.
6. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.

БОЖХОНА ЧЕГАРА ПОСТЛАРИДА ФУҚАРОЛАР БИЛАН ИШЛАШДА ПРОФАЙЛИНГ УСУЛИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАСИ

Қодиров Мирзаакрам Собиржонович

Божхона институти Қайта тайёрлаш ва малака ошириш факультети
“Психологик тайёргарликни ривожлантириш” маркази бошлиғи, психология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Мамаражабов Абдисамад Саидмурот ўғли

Сурхондарё вилояти божхона бошқармаси ходими ҳамда Ўзбекистон
Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги Ёшлар муаммоларини
ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти тингловчиси
abdusamad3918@gmail.com

АННОТАЦИЯ. Бугунги кунда ривожланган ва ривожланаётган барча давлатларда ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари томонидан ўз функционал вазифаларини бажариш давомида миллий ва глобал хавфсизликни таъминлашда, хавфларни мониторинг этиш учун психология усулларида бири бўлган профайлинг технологиясидан кенг фойдаланилмоқда. Шунинг учун муаллиф ушбу мақолада Ўзбекистон Республикаси божхона тизимида чегара божхона постларида хизмат фаолиятини ўтаётган божхона хизмати ходимлари томонидан фуқаролар билан мулоқот давомида профайлинг технологиясини қўллаш масалалари ҳақида сўз юритилган.

Калим сўзлар: профайлинг, психологик портрет, психологик кузатиш, сўров, чегара божхона пости ходими, хавфлар мониторинги.

EFFECTIVENESS OF USING THE METHOD OF PROFILING WHEN WORKING WITH CITIZENS AT CUSTOMS BORDER POSTS

ABSTRACT. Today, law enforcement agencies in all developed and developing countries are widely using profiling technology, which is one of the psychological methods for risk monitoring, in the performance of their functional tasks, in order to ensure national and global security. Therefore, in this article, the author talks about the issues of using profiling technology during communication with citizens by the customs service officers working at border customs posts in the customs system of Republic of Uzbekistan.

Keywords: profiling, psychological portrait, psychological observation, survey, border customs officer, risk monitoring

КИРИШ

Ўзбекистон халқи мустақиллик туфайли демократик давлат қуриш, иқтисодий ислохотларни амалга ошириш, тарихий хотира, қадрият ва миллий ўзликни англаш йўлида катта ютуқларга эришди. Республикамиз ўзининг юқори суръатларда ривожланаётган иқтисодиёти, ички хавфсизлиги, тинчлиги ва фуқароларининг тотувлиги билан сиёсий барқарор давлат сифатида жаҳон ҳамжамиятида обрў-эътибор қозонди. Истиклолнинг дастлабки кунларидаёқ, қисқа тарихий муддат ичида, Ўзбекистонда миллий божхона хизмати ташкил этилди ва унга ҳуқуқни муҳофаза қилиш органи мақоми берилди. Ўзбекистон Республикаси Божхона қўмитаси тизими учун малакали мутахассисларни тайёрлайдиган Марказий Осиёда ягона бўлган Миллий кинология маркази ва Божхона институти ташкил қилинди.

Божхона хизмати – давлат хизматининг муҳим таркибий қисмларидан бири сифатида ташкил этилган. У мамлакатимизнинг иқтисодий манфаатлари ҳимоясини таъминловчи идора ҳисобланади. Ватан ҳимояси осон иш эмас. Шу боис божхона ходимлари ақлан етук, жисмонан соғлом, ахлоқан пок бўлишлари лозим. Бунинг учун эса уларга, мутахассислик фанлари қаторида психология фанларини ўрганиш зарурати яққол кўзга ташланади. Замонавий кадрлар – малакали мутахассис сифатида ўзлигини, ўз қобилиятлари, индивидуаллиги, шахсий фазилат ҳамда хислатларини билиши, атрофидагилар меҳнатини оқилона ташкил этиши ва ижтимоий фойдали меҳнатнинг барча соҳаларида иқтидорли касб соҳиби бўлиб фаолият кўрсатиши шарт. Бу ўринда психология фанининг ўрни беқиёс [1].

Бугунги кунда юзага келаётган хавф-хатар ва таҳдидлар, аввало, гиёҳвандлик воситалари, халқаро терроризм, диний экстремизм, ноқонуний миграция, одам савдоси, ёшлар ўртасида халқимизга ёт ғоялар тарқалишининг тобора кучайиб бораётганлиги божхона органлари олдида ўз вақтида уларнинг олдини олиш ва уларга барҳам бериш бўйича янги вазифаларни қўймоқда [2].

МУҲОКАМА

Божхона постларидаги йўловчилар, транспорт воситалари, юкларнинг ҳажми ва иш юкламасининг юқорилиги товар ва транспорт воситаларини белгиланган тартибда тўлиқ божхона назоратидан ўтказиш имкониятини чегаралайди. Контрабандага қарши курашишни эса фақатгина объектлар бўйича мавжуд тезкор маълумотлар асосида ҳамда уларни ташувчиларни аниқлашнинг махсус усулларида фойдаланиш ҳисобига самарали ташкил этиш мумкин.

Гиёҳвандлик воситасининг кириб келиши хавфи юқори бўлган ҳудудлардан келаётган айрим йўловчиларни ҳамда юкларни алоҳида диққат-

эътибор билан кузатиш, ташқи белгилари бўйича шубҳали шахсларга диққатни жамлаш, шубҳали жўнатувчи ёки юк қабул қилиб олувчига юборилган товарларни синчковлик билан текшириш зарур.

Чегаралар орқали контрабанда ашёсини, шу жумладан гиёҳвандлик воситасини олиб ўтаётган шахсларни аниқлаш учун ходимлардан ўта синчковлик, кузатувчанлик, диққатнинг барқарорлиги ва зийраклик талаб этилади.

Айтиб ўтиш лозимки, божхона хизматчиларининг касбий фаолияти мураккаб ва масъулиятли. Унинг самарадорлиги кўплаб омилларга, шу жумладан профессионал муҳим фазилатларнинг шаклланишига боғлиқ бўлиб, улар орасида профайлинг технологиясини қўллаган ҳолда профессионал кузатувнинг муҳим психологик техникаларини қўллаган ҳолда эҳтимолий хавфга эга бўлган шахсни тутиш ҳам долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. [3]

Божхона ходими чегара орқали ҳаракатланаётган ҳар бир йўловчини синчковлик билан кузатувдан ўтказиши лозим. Ходимлар психологик кузатишнинг психологик механизмларининг хусусиятларини билиши керак, бу одамларнинг ҳолатини ва ривожланаётган ҳолатларни таҳлил қилиши ва баҳолашнинг аниқлигига таъсир қилади, бу асосан билинар-билимас даражада ишлайди. Жумладан, божхона ходими чегарада нималарга эътибор бериши лозим бўлади [4]:

- Йўловчи шахс ўзини танитгани кабини, йўқми, аниқлик киритиш;
- Йўловчи шахснинг негатив нияти борми, йўқми, аниқлаш;
- Йўловчининг юзида қўрқув, безовталиқ, айбдорлик қайғу бор ёки ҳиссиёт акс этган этмаган, аниқлаш;
- Контекст билан ташқи кўриниш мутаносиблигини аниқлаш.

Ушбу ўринда шуни айтиши жоизки, чегара божхона постларида хизмат фаолиятини олиб бораётган юқори малакали ва тажрибали божхона ходимлари юқоридаги каби мураккаб вазифаларни амалга ошириши давомида ўзлари сезмаган ва билмаган ҳолда ўзларини шахсий қобилиятларига таянган ҳолда профайлинг технологияларидан фойдаланишади.

Шунингдек, профайлинг технологиясига тўхталиб ўтадиган бўлсак, профайлинг атамаси инглизча «profile» - профил, қиёфа маъносини англатиб, бу орқали шахснинг новербал хатти-ҳаракатлари ва уларни ўзига хос хусусиятларини баҳолаш ва таҳлил қилиши орқали шахснинг ҳаракатларига ҳаққоний баҳо бериши жараёни амалга оширилади. Бунда профайлерлар асосан мимика, жестлар, хатти-ҳаракатнинг ўзига хос хусусиятларини, нутқнинг

психолінгвистик қонуниятларини ва вербал мулоқотнинг паралингвистик аломатларини ўрганиши орқали ўз мақсадига эришади. Профайлинг технологияси бир бирини тўлдирувчи иккита методдан, яъни психологик кузатиш ва сўров (суҳбат) методларидан ташкил топган. Ушбу тарифлардан шунини хулоса қилиб айтишим мумкинки, божхона ходимларининг ҳар бири ўз фаолияти давомида қайсидир маънода “профайлер” вазифасини ўтайди.

VALUE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 1160-1164.

32. Jurakulovich, S. J. (2022). ATTITUDE TO HUMAN DIGNITY IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS DYNASTY. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 43-47.

33. Shodiyev, J. (2021). JAMIYATDAGI MEHNAT MUNOSABATLARI SHAROITIDA MA'NAVIY SALOHİYAT. *Журнал истории и общества*, (2)

34. SHODIEV, J. (2021). SOCIO-POLITICAL LIFE AND THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN THE PERIOD OF UMAR KHAYAM. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).

35. Shodiyev, J. (2021). O'ZBEKISTONDA IJTIMOİY-SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SIYOSATI. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 409-416.

36. Shodiyev, J. J. (2020). U THE QUESTION OF HUMAN DESTINY AND FREE IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF OMAR KHAYYAM. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(2), 197-202.

37. Shodiev Jahongir Jurakulovich. Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. *International Engineering Journal For Research & Development* 2020/4/16.

38. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 1160-1164.

39. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. *Ilm sarchashmalari/ Urganch* – 3.2023. 19-21.

40. Салохов, А. Қ. БУХОРО МАЪРИФАТПАРВАРЧИЛИГИНИНГ ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ.

41. Салохов, А. К. К АНАЛИЗУ ИДЕЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ ТУРКЕСТАНСКОГО ДЖАДИДИЗМА В КОНТЕКСТЕ ЕЕ СОВРЕМЕННОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ШАКЛЛАНИШИНИ МОНИТОРИНГ, 464.

KIBERXAVFSIZLIK: TIZIMLAR, TARMOQLAR VA MAXFIY MA'LUMOTLARNI RUXSATSIZ KIRISH, FOYDALANISH, OSHKOR QILISH, BUZISH, O'ZGARTIRISH YOKI YO'Q QILISHDAN HIMOYA QILISH.

Xurramov Ruslan Erkin o'g'li

ruslanxurramov852@gmail.com

Termiz davlat universiteti

Axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu mavzu kompyuter tizimlari, tarmoqlar, dasturiy ta'minot va ma'lumotlar kabi axborot texnologiyalari (IT) aktivlarini kiber tahdidlardan himoya qilishni nazarda tutadi. Kiber tahdidlar turli shakllarda bo'lishi mumkin, jumladan viruslar, zararli dasturlar, fishing hujumlari, to'lov dasturi, ijtimoiy muhandislik va insayder tahdidlar. Kiberxavfsizlik ushbu tahdidlarning IT aktivlarining maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini buzishining oldini olishga qaratilgan. Bu AT aktivlarini ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, o'zgartirish yoki yo'q qilishdan himoya qilishni ta'minlash uchun bir qator amaliyotlar, texnologiyalar va siyosatlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Samarali kiberxavfsizlik choralari jismoniy shaxslar, tashkilotlar va hukumatlar uchun kiberhujumlardan himoyalaniş hamda ma'lumotlarning buzilishi, moliyaviy yo'qotishlar va obro'ga putur yetkazish xavfini minimallashtirish uchun zarurdir.*

***Kalit so'zlar.** Kiberxavfsizlik, himoya, tizimlar, tarmoqlar, maxfiy ma'lumotlar, ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, o'zgartirish, yo'q qilish, kiber tahdidlar, viruslar, zararli dasturlar, fishing hujumlari, to'lov dasturi, ijtimoiy muhandislik, insayder tahdidlar, maxfiylik, yaxlitlik, mavjudlik, amaliyotlar, texnologiyalar, siyosatlar, ma'lumotlarning buzilishi, moliyaviy yo'qotishlar, obro'ga zarar.*

Kirish. Axborot xavfsizligi muhim ma'lumotlar saqlanadigan, qayta ishlanadigan va elektron shaklda uzatiladigan bugungi raqamli asrda juda muhim muammodir. Zararli dasturlar, fishing hujumlari va ma'lumotlarning buzilishi kabi kibertahdidlarning ko'payishi axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha samarali choralar ko'rish zarurligini ta'kidladi. Axborot xavfsizligi axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini, shuningdek, ularni qayta ishlovchi va saqlaydigan AT aktivlari, tizimlari va tarmoqlarini himoya qilishga qaratilgan. Bu axborot va AT

aktivlarini ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, o'zgartirish yoki yo'q qilishdan himoya qilishni ta'minlash uchun amaliyotlar, texnologiyalar va siyosatlar to'plamini amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Bunga xavfsizlik devorlari, shifrlash, kirishni boshqarish vositalari, hodisalarga javob berish rejalari va xodimlar uchun xavfsizlik bo'yicha treninglar kabi choralar kiradi. Samarali axborot xavfsizligi jismoniy shaxslar, tashkilotlar va hukumatlar uchun kiberhujumlardan himoya qilish va maxfiy ma'lumotlarni ma'lumotlar buzilishi, moliyaviy yo'qotishlar va obro'ga putur etkazishdan himoya qilish uchun juda muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. Axborot xavfsizligi bo'yicha adabiyotlar tahlili keng va doimiy rivojlanib boruvchi sohani qamrab oladi, biroq ba'zi umumiy mavzular va tendentsiyalarni aniqlash mumkin.

Axborot xavfsizligiga kompleks va kompleks yondashuvning ahamiyati diqqat markazida bo'ladi. Bu nafaqat xavfsizlik devorlari va shifrlash kabi texnik choralarni, balki siyosatlar, protseduralar va xodimlarni o'qitish kabi texnik bo'lmagan omillarni ham o'z ichiga oladi. Axborot xavfsizligining samarali ta'minlanishi tashkilotning barcha jihatlarini, ya'ni qo'llanilayotgan texnologiyadan tortib, undan foydalanadigan odamlargacha qamrab oluvchi yaxlit yondashuvni talab qiladi.

Yana bir asosiy mavzu - axborot xavfsizligi sohasida risklarni boshqarish zarurati. Xavflarni boshqarish potentsial tahdidlar va zaifliklarni aniqlash va baholashni, ularning ehtimoli va potentsial ta'siridan kelib chiqqan holda ustuvorlikni belgilashni va tegishli choralarni ko'rishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv tashkilotlarga o'z kuchlarini eng muhim xavflarga qaratishga va resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi.

So'nggi yillarda bulutli hisoblash va mobil qurilmalarning yuksalishi axborot xavfsizligi uchun yangi muammolar va imkoniyatlarni keltirib chiqardi. Bulutli hisoblash kengaytirilgan miqyoslilik va moslashuvchanlik kabi ko'plab afzalliklarni taqdim etadi, ammo u ma'lumotlarning buzilishi va kiber hujumlar kabi yangi xavfsizlik xavflarini ham taqdim etadi. Xuddi shunday, mobil qurilmalar ham unumdorlik va hamkorlik uchun ko'plab afzalliklarni taqdim etadi, ammo ular to'g'ri himoyalangan bo'lsa, hujumlar va ma'lumotlar yo'qotilishiga qarshi himoyasiz bo'lishi mumkin.

Va nihoyat, axborot xavfsizligini ta'minlashda hamkorlik va ma'lumot almashishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Kibertahdidlar tobora murakkablashib, keng tarqalmoqda va hech bir tashkilot yakka holda ishlashga qodir emas. Tahdidlar, zaifliklar va ilg'or amaliyotlar haqidagi ma'lumotlarni almashish tashkilotlarga paydo bo'ladigan xavflardan oldinda bo'lishga va o'z aktivlarini yaxshiroq himoya qilishga yordam beradi.

Umuman olganda, axborot xavfsizligi bo'yicha adabiyotlar tahlili tashkilotning barcha jihatlarini qamrab oluvchi hamda paydo bo'ladigan tahdidlardan oldinda turish uchun hamkorlik va ma'lumot almashishni qo'llaydigan yaxlit va xavfga asoslangan yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Axborot xavfsizligini tadqiq qilish metodologiyasi aniq tadqiqot savoliga qarab farq qilishi mumkin, ammo ba'zi umumiy yondashuvlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Adabiyotlarni ko'rib chiqish: Tegishli nazariyalar, asoslar, tushunchalar va ilg'or tajribalarni aniqlash uchun mavzu bo'yicha mavjud adabiyotlarni har tomonlama ko'rib chiqish.

Vaziyatni o'rganish: Axborot xavfsizligi buzilishi va hodisalarining haqiqiy misollarini tahlil qilish, umumiy naqshlar, sabablar va oqibatlarni aniqlash va samarali kamaytirish strategiyalarini aniqlash.

So'rovlar: shaxslar yoki tashkilotlardan ularning axborot xavfsizligi bilan bog'liq tushunchalari, munosabati va xatti-harakatlari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash. Bu xodimlar, mijozlar yoki soha mutaxassislari so'rovlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Suhbatlar: Axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassislar, rahbarlar yoki tartibga soluvchilar kabi asosiy manfaatdor tomonlar bilan ularning axborot xavfsizligi bo'yicha qarashlari haqida tushunchaga ega bo'lish uchun chuqur suhbatlar o'tkazish.

Kuzatishlar: odamlar texnologiyadan qanday foydalanishi va nozik ma'lumotlarni qanday himoya qilishlari haqida tushunchaga ega bo'lish uchun ish joyi yoki jamoat joylari kabi real sharoitlarda axborot xavfsizligi amaliyotlarini kuzatish.

Tajribalar: Axborot xavfsizligi choralari yoki aralashuvi samaradorligini tekshirish uchun nazorat ostida tajribalar o'tkazish.

Aralash usullar: Axborot xavfsizligi masalalarini yanada kengroq tushunish uchun so'rovlar va amaliy tadqiqotlar kabi bir nechta usullarni birlashtirish.

Umuman olganda, axborot xavfsizligini tadqiq qilish metodologiyasi qat'iy, tizimli va tadqiqot savoliga mos bo'lishi kerak. Shuningdek, u ishtirokchilarning shaxsiy hayoti va maxfiylikini himoya qilish va tadqiqot natijalari axloqiy va mas'uliyatli tarzda tarqatilishini ta'minlash kabi axloqiy jihatlarni hisobga olishi kerak.

Tahlil va natijalar. Axborot xavfsizligi bo'yicha tadqiqotlar tahlili va natijalari qo'llaniladigan metodologiyaga va aniq tadqiqot savoliga qarab farq qilishi mumkin. Biroq, axborot xavfsizligi bo'yicha tadqiqotlarning ba'zi umumiy topilmalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Axborot xavfsizligiga kompleks va kompleks yondashuvning ahamiyati. Samarali axborot xavfsizligi nafaqat xavfsizlik devori va shifrlash kabi texnik

choralarni, balki siyosat, protseduralar va xodimlarni o'qitish kabi texnik bo'lmagan omillarni ham talab qiladi.

Axborot xavfsizligida risklarni boshqarish zarurati. Xavflarni boshqarish potentsial tahdidlar va zaifliklarni aniqlash va baholashni, ularning ehtimoli va potentsial ta'siridan kelib chiqqan holda ustuvorlikni belgilashni va tegishli choralarni ko'rishni o'z ichiga oladi.

Axborot xavfsizligini ta'minlashda hamkorlik va axborot almashishning ahamiyati. Kibertahdidlar tobora murakkablashib, keng tarqalmoqda va hech bir tashkilot yakka holda ishlashga qodir emas. Tahdidlar, zaifliklar va ilg'or amaliyotlar haqidagi ma'lumotlarni almashish tashkilotlarga paydo bo'ladigan xavflardan oldinda bo'lishga va o'z aktivlarini yaxshiroq himoya qilishga yordam beradi.

Axborot xavfsizligida bulutli hisoblash va mobil qurilmalarning ahamiyati ortib bormoqda. Bulutli hisoblash va mobil qurilmalar samaradorlik va hamkorlik uchun ko'plab afzalliklarni taklif qiladi, lekin ma'lumotlarning buzilishi va kiberhujumlar kabi yangi xavfsizlik xavflarini ham keltirib chiqarishi mumkin.

Axborot xavfsizligiga inson omillarining ta'siri. Texnik choralar muhim bo'lsa-da, xodimlarning xatti-harakati va xabardorligi kabi inson omillari ham axborot xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Samarali axborot xavfsizligi nafaqat texnik choralarni, balki yaxshi xavfsizlik amaliyotlarini qadrlaydigan va targ'ib qiluvchi xavfsizlik madaniyatini ham talab qiladi.

Umuman olganda, axborot xavfsizligi bo'yicha tadqiqotlar tahlili va natijalari tashkilot faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oluvchi, hamkorlik va ma'lumot almashishni qo'llaydigan hamda inson omillarining xavfsizlikka ta'sirini hisobga oladigan yaxlit va xavfga asoslangan yondashuvning muhimligini ta'kidlaydi. Topilmalar paydo bo'ladigan tahdidlardan himoya qiluvchi va ma'lumotlarning buzilishi, moliyaviy yo'qotishlar va obro'ga putur etkazish xavfini minimallashtiradigan samarali axborot xavfsizligi strategiyalari va amaliyotlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, axborot xavfsizligi alohida shaxslar, tashkilotlar va butun jamiyatga ta'sir qiluvchi muhim masaladir. Raqamli texnologiyalar, bulutli hisoblash va mobil qurilmalarga tobora ortib borayotgan ishonch xavfsizlikka yangi xavf va muammolarni keltirib chiqardi, bu esa samarali axborot xavfsizligini har qachongidan ham muhimroq qiladi. Axborot xavfsizligi bo'yicha adabiyotlar tahlili tashkilotning barcha jihatlarini, shu jumladan siyosat, protseduralar va xodimlarni o'qitishni o'z ichiga olgan keng qamrovli va integratsiyalashgan yondashuvning muhimligini ta'kidlaydi. Xatarlarni boshqarish ham muhim ahamiyatga ega, chunki u

tashkilotlarga potentsial tahdidlar va zaifliklarni birinchi o'ringa qo'yish va yumshatishga yordam beradi. Hamkorlik va ma'lumot almashish paydo bo'layotgan tahdidlardan oldinda turish uchun muhim ahamiyatga ega va inson omillarining axborot xavfsizligiga ta'sirini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Axborot xavfsizligi bo'yicha tadqiqotlar tahlili va natijalari kibertahdidlardan himoyalanih hamda ma'lumotlarning buzilishi, moliyaviy yo'qotishlar va obro'ga putur yetkazish xavfini minimallashtirish bo'yicha samarali strategiya va amaliyotlar haqida qimmatli tushunchalar beradi. Oldinga qarab, tashkilotlar axborot xavfsizligiga sarmoya kiritishda davom etishi va eng so'nggi ilg'or tajribalar va paydo bo'layotgan tahdidlardan xabardor bo'lib turishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Whitman, M. E., & Mattord, H. J. (2019). Principles of information security. Cengage Learning.
2. Anderson, R., & Moore, T. (2009). The economics of information security. *Science*, 314(5799), 610-613.
3. Clarke, R. (1999). Internet privacy concerns confirm the case for intervention. *Communications of the ACM*, 42(2), 60-67.
4. Schneier, B. (2015). *Data and Goliath: The Hidden Battles to Collect Your Data and Control Your World*. WW Norton & Company.
5. NIST Cybersecurity Framework. (2018). National Institute of Standards and Technology.
6. ISO/IEC 27001:2013. Information technology - Security techniques - Information security management systems - Requirements.
7. European Union Agency for Cybersecurity (ENISA). (2018). *Cybersecurity Culture in Organizations*.
8. D'Arcy, J., Hovav, A., & Galletta, D. (2009). User awareness of security countermeasures and its impact on information systems misuse: A deterrence approach. *Information Systems Research*, 20(1), 79-98.
9. Lee, J., Lee, M., & Lee, I. (2014). The Internet of Things (IoT): Applications, investments, and challenges for enterprises. *Business Horizons*, 57(4), 431-440.
10. Siponen, M., & Vance, A. (2010). Neutralization: New insights into the problem of employee information systems security policy violations. *MIS Quarterly*, 34(3), 487-502.

ЯПОНИЯНИНГ МАРКАЗИЙ ОСИЁ ДАВЛАТЛАРИ БИЛАН ИККИ ТОМОНЛАМА МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Акрамов Бурхониддин,

Ўзбекистон халқаро ислом академияси

Халқаро муносабатлар йўналиши 4 босқич талабаси.

e-mail: burhoniddinakramov58@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Япониянинг марказий осий давлатлари билан икки томонлама ва кўп томонлама алоқалари, иқтисодий ҳамкорликнинг ривожланиш динамикаси ва ўзаро алоқаларнинг истиқболлари таҳлил қилинди.

Калит сўзлар: Япония, минтақавийлаштириш, “С5+1”, Евроосий, “диверсификация”, иқтисодий стратегия, транскомуникацион, донор мамлакат

ПЕРСПЕКТИВЫ ДВУСТОРОННИХ ОТНОШЕНИЙ ЯПОНИИ СО СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализированы двусторонние и многосторонние отношения Японии со странами Центральной Азии, динамика развития экономического сотрудничества и перспективы взаимоотношений.

Ключевые слова: Япония, регионализация, “С5+1”, Евразия, “диверсификация”, экономическая стратегия, транскомуникация, страна-донор.

PROSPECTS OF JAPAN'S BILATERAL RELATIONS WITH CENTRAL ASIAN COUNTRIES

ABSTRACT

This article analyzes the bilateral and multilateral relations of Japan with the countries of Central Asia, the dynamics of the development of economic cooperation and the prospects for relations.

Key words: Japan, regionalization, “С5+1”, Eurasia, “diversification”, economic strategy, transcommunication, donor country.

КИРИШ

Япония дипломатияси ривожланган ва ривожланаётган мамлакатлар ўртасида соғлом иқтисодий рақобатни сақлаб, тинчликни сақлашга тобора кўпроқ мақсад қилиб қўймоқда. Миллий хавфсизликни амалга оширишда Япония ҳукумати ўз мамлакатининг тинч қиёфасини яратди. Ташқи сиёсатнинг тинчлиги ва Япониянинг учта ноядровий тамойилга содиқлиги бевосита унинг биринчи ва иккинчи “кашфиётлар” мамлакати ўртасидаги даврдаги тажрибасидан келиб чиқади. Энди “Япония дунё олдида бир вақтнинг ўзида йирик сиёсий куч сифатида ва ҳарбий маънода ўрта куч тан олинишга ҳаракат қилиши керак».[1]

Япония халқаро муносабатларнинг субъекти сифатида ижтимоий-иқтисодий соҳалар бўйича жаҳондаги етакчи давлатлардан биридир. Ушбу давлатни дунёнинг йирик иқтисодий марказларидан бири дейиш мумкин.

40 йилдан ортиқ вақт мобайнида Япония ривожланаётган мамлакатларга иқтисодий кўмак бериб келмоқда. Бу борада Осиё мамлакатлари билан алоқалар алоҳида ўринни эгаллайди. Иқтисодий жабҳада Осиё минтақаси расмий Токионинг асосий капитал сарф этадиган савдо ҳамкори ҳисобланади.[2]

МЕТОДЛАР

Мақолада тарихий ҳамда қиёсий таҳлил методларидан фойдаланилди. Маълумотлар излашда инглиз ва рус тилидаги мақола ва китоблардан фойдаланилди.

МУНОЗАРА ВА НАТИЖАЛАР

Япония Марказий Осиёнинг энг қадимий ва изчил хорижий ҳамкорларидан бири бўлса-да, унинг минтақадаги роли сўнгги йилларда Россия ва Хитойнинг роли остида қолиб кетган. Токио ўнлаб йиллар давомида Марказий Осиёда минтақавийлаштириш жараёнларини қўллаб-қувватлади ва бугунги кунда кўплаб давлатлар қўллаётган C5+1 ҳамкорлик форматини жорий этган биринчи хорижий ҳамкор бўлди.

Вақт ўтиши билан Япониянинг минтақадаги ташқи сиёсатининг йўналиши ўзгарган бўлса-да, Токионинг у ерда бўлиши Марказий Осиёнинг бешта давлатига дунё билан алоқаларини диверсификация қилиш ва мустамлакачиликдан чиқариш имкониятини берди. Япония, шунингдек, минтақага технология трансферида муҳим рол ўйнайди ва Марказий Осиёликлар учун таълим ва меҳнат миграцияси манзили сифатида.

Япония ва Марказий Осиё давлатлари ўртасидаги муносабатлар вақт ўтиши билан сезиларли даражада ривожланди. Совет Иттифоқи парчаланганидан кейин Япония Марказий Осиёнинг энергия ресурслари ва геосиёсий барқарорлик нуқтаи назаридан стратегик аҳамиятини тан олиб, минтақа билан фаолроқ

ҳамкорлик қила бошлади. Япония минтақага, хусусан, инфратузилмани ривожлантириш, таълим ва соғлиқни сақлаш соҳаларида ёрдам кўрсатмоқда. Япония Марказий Осиё давлатлари билан иқтисодий алоқаларини ҳам ошириб бормоқда, япон компаниялари энергетика, телекоммуникация, автомобилсозлик, соғлиқни сақлаш ва қишлоқ хўжалиги каби турли соҳаларга сармоя киритмоқда. Марказий Осиё давлатларининг мустақилликни қўлга киритиши уларга барча давлатлар билан ҳамкорликни амалга ошириш имкониятини берди. Шу жумладан, иқтисодий жиҳатдан қудратли, юқори технологияларга эга бўлган Япония давлати билан ҳам ўзаро алоқалар йўлга қўйилди.

Дипломатик муносабатлар ўрнатилганидан бошлаб Марказий Осиё давлатлари Япония билан фан, таълим, маданият соҳаларида ҳам ҳамкорлик қилиб келмоқда. Ўзаро талабалар алмашиш давом этмоқда. Марказий Осиёдан ўқиш учун борган талабалар Япония университетларида иқтисодиёт, давлат бошқаруви, ҳуқуқ, ахборот технологиялари ва халқаро муносабатлар йўналишларида жаҳон андозаларидаги билим-малакаларини эгаллаб келмоқдалар. СССР парчаланиб, Марказий Осиёнинг бешта давлати мустақилликка эришгач, 1992 йилда Япония бу давлатлар билан дипломатик муносабатлар ўрнатган биринчи давлатлар қаторида бўлди. Япония 2004 йилда Япония ташқи ишлар вазири Ёрико Кавагучи томонидан киритилган Марказий Осиё + Япония мулоқоти (CAJD) орқали 18 йилдан ортиқ вақтдан бери Марказий Осиё билан ҳамкорлик қилиб келмоқда. Мулоқот уч босқичли тузилишга эга: сиёсий мулоқот, иқтисодий ҳамкорлик ва ядровий қурооларни тарқатмаслик ва тинчликни сақлаш соҳасидаги ҳамкорлик. Бугунги кунда мулоқот иштирокчиларга ташқи ишлар вазирлари, юқори мансабдор шахслар, шунингдек, бизнес ва илмий доиралар вакиллари даражасида ўзаро манфаатли масалалардан иборат кенг ва жуда бой кун тартибини муҳокама қилиш имконини берувчи ўзига хос таркибий элементларни ишлаб чиқди.[3]

Япония ўзининг икки ташаббуси билан Марказий Осиёда ўз мавжудлигини таъминлади. Биринчи йўналиш минтақага грантлар, техник ҳамкорлик, паст фоизли ва фоизсиз кредитлар ва бошқа молиявий ёрдам кўрсатишни таъминловчи “Ривожланишга расмий ёрдам” (ODA) бўлди. Ҳамкорликнинг иккинчи канали Япония компанияларини минтақага фаол жалб этиш орқали амалга оширилди. Ушбу тадбирлар доирасида Япония минтақада энергия билан боғлиқ лойиҳаларни ишлаб чиқиш орқали энергия ресурсларининг маълум бир қисмини таъминлади. Бундан ташқари, Япония минтақанинг замонавий салоҳиятига - уланишга алоҳида эътибор беради. Япония Марказий Осиё давлатларининг транспорт инфратузилмасини икки томонлама даражада ҳамда

халқаро ташкилотлар, жумладан, Осиё тараққиёт банки ва Жаҳон банки орқали сўнгги йигирма йил давомида қўллаб-қувватлаганига қарамай, Япония ҳукумати минтақалараро алоқаларни тўлиқ салоҳиятини ривожлантиришдан манфаатдор эканини қайд этди. Бундан ташқари, Япония Марказий Осиё давлатлари билан икки томонлама алоқаларни чуқурлаштириб, Қирғизистон, Тожикистон ва Туркманистон билан япон сармоядорлари учун янада қулай шарт-шароит яратувчи икки томонлама сармоявий шартномалар имзолаш ниятида эканлигини маълум қилди. Япония ўзаро ҳамкорлик учун биринчи қадам сифатида Марказий Осиёнинг бешта давлатига 2,57 миллион долларга яқин хайрия қилди. 2008 ва 2016 йилларда бу кўрсаткич мос равишда 108,48 миллион АҚШ доллари ва 242 миллион АҚШ долларига етди.[4]

Япониянинг Марказий Осиё давлатларидаги иқтисодий стратегияси минтақа давлатларини изоляциядан чиқариш ва иқтисодий қийинчиликларни енгишда ёрдам бериш учун нефт-газ коммуникациялари инфратузилмасини ва тинч атом энергетикасини ривожлантиришга қаратилган.

Япониянинг Марказий Осиёдаги бошқа манфаатдорлиги сиёсий барқарорлик ва ушбу минтақа давлатлари билан ҳамкорликнинг барча шакллари ривожлантириш, минтақада ўз иштирокини мустаҳкамлаш ва мустаҳкамлаш истагидир. Қўшма Штатлар, Япония ўз манфаатларини асосан иқтисодий масалаларга қаратган. Совуқ урушдан кейинги икки томонлама барқарорлик мавжуд бўлмаган дунёда Япония "Япониянинг Осиё сиёсатини" қайта тиклашни рағбатлантирди. Япониянинг Марказий Осиё минтақасида ўз сиёсий иштирокини ўрнатиш сиёсатини икки даврга бўлиш мумкин: Биринчи ташаббус 1997 йилда Япония Бош вазири Рютаро Хашимото томонидан қилинган бўлиб, у Япония Ипак йўли (ёки Эвросиё) дипломатиясини (1997-2004) бошлашни эълон қилди. Ушбу режа ҳамкорликнинг учта йўналишини белгилаб берди: 1. ишонч ва ўзаро тушунишни кучайтиришга қаратилган сиёсий мулоқот; 2. иқтисодий ҳамкорлик, шунингдек, фаровонликни оширишга қаратилган табиий ресурсларни ривожлантириш бўйича ҳамкорлик; ва 3. ядро қуролини тарқатмаслик, демократлаштириш ва шу тариқа барқарорликни мустаҳкамлаш орқали тинчлик ўрнатиш бўйича ҳамкорлик.[5] Ушбу концепция Марказий Осиё давлатлари томонидан мамнуният билан қабул қилинди ва Японияга тизимли ёрдамни ривожлантиришга ёрдам берди ва энг муҳими, минтақа билан ишлашда институционал ёндашув эди. Сўнгги йилларда Япония Марказий Осиё давлатлари билан стратегик шерикликни чуқурлаштириш устида ишламоқда, бунда асосий эътибор минтақавий барқарорлик, иқтисодий ривожланиш ва одамлар ўртасидаги алмашинувни рағбатлантиришга қаратилган. Япония

минтақавий хавфсизлик масалаларида, жумладан, терроризмга қарши кураш ва ядровий қуролларни тарқатмаслик борасидаги саъй-ҳаракатларда ҳам фаол иштирок этмоқда. Умуман олганда, Япония ва Марказий Осиё давлатлари ўртасидаги муносабатлар умумий манфаатлар ва ўзаро манфаатлар асосида вақт ўтиши билан ривожланишда ва мустақамланиб борди. Шу билан бирга, Япония Марказий Осиё давлатлари билан икки томонлама алоқаларни чуқурлаштириб бормоқда. Жумладан, САҲД нинг сўнгги йиғилишида ҳам Япония ташқи ишлар вазири ўзининг марказий осиелик ҳамкасбларининг ҳар бири билан алоҳида музокаралар олиб борди. Токио Қирғизистон, Тожикистон ва Туркменистон билан япон сармоядорлари учун янада қулай шарт-шароит яратадиган икки томонлама сармоявий шартномалар имзолаш ниятида эканлигини эълон қилгани диққатга сазовор. Бундай шартномалар аллақачон Ўзбекистон (2008 йилда имзоланган) ва Қозоғистон (2014 йилда имзоланган) билан тузилган. Бундан ташқари, Ўзбекистон Президент Мирзиёевнинг Японияга бўлажак биринчи ташрифини эълон қилган бўлса, Тожикистон Президенти Имомали Раҳмон Токиога ташриф буюрган энг охири (2018-йил октябр) Марказий Осиё етакчиси бўлди.

Амалда, Япониянинг кўп томонлама ва икки томонлама воситаларининг оқибатлари минтақада яхши кузатилмоқда. Масалан, Ўзбекистон кимё саноати Япония технологияларини харид қилади; Қирғизистонда 2019-йил март ойида Япониянинг грант маблағи ҳисобидан учта болалар боғчаси очилди; Туркменистонда 2017 йилда минтақавий транспорт лойиҳаларини амалга ошириш учун тахминан 24 миллиард иен (тахминан 216 миллион доллар) ажратилиши эълон қилинган.[6] Абенинг 2015-йилдаги ташрифи чоғида Ўзбекистон билан бир қатор муҳим сармоявий шартномалар имзоланган ва Қирғизистонда Япония томони Қозоғистонга атом электр станциясини қуришни таклиф қилган ҳолда “Манас” халқаро аэропорти жиҳозларини янгилаш учун молиявий ёрдам беришга келишиб олган эди.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш керакки, Евроосиёда кечаётган геосиёсий ўзгаришлар Марказий Осиёда таъсир ўтказиш учун рақобатга сабаб бўлганми ёки йўқми, Япония ҳар доим минтақа давлатлари билан маълум даражада алоқада бўлиб келган. Эҳтимол, Япония стратегияси бошқа мамлакатларнинг оммавий ва яхши тақдим этилган ташаббусларига нисбатан камтарона кўринади. Шунга қарамай, Япония минтақа билан ёрдам ва технологик сармоя кўрсатиш ва бунинг эвазига Марказий Осиёнинг бой энергетика салоҳиятидан фойда олишга асосланган ўзига хос ҳамкорлик йўлини ривожлантирмоқда. Бинобарин, САҲД

нинг ўтган йиғилиши, шунингдек, ушбу тадбирда эришилган келишувлар Япониянинг минтақадаги янада фаол иштирок этишига ҳисса қўшади, шу билан бирга Марказий Осиё давлатлари ўзининг юқори сифати билан машҳур бўлган Япония ташаббусларини олқишлайди, деб хулоса қилиш мумкин.

Япония ташқи сиёсатида Марказий Осиё омили ҳозирги кунда долзарб ва аҳамиятли масалалардан бири ҳисобланади. Юқорида таъкидлаб ўтилгани каби, Марказий Осиё минтақаси ўз табиий захиралари, транскомуникацион йўллари ва бошқа қатор афзалликларига кўра стратегик муҳим минтақалардан бири сифатида эътироф этилади.

Ҳозирги кунга келиб, Марказий Осиё минтақаси давлатлари ҳам Японияни донор мамлакат сифатида эътироф этишмоқда.

REFERENCES

1. Valijon_N_Khoshimov- “Foreign policy of Japan and Central Asia” https://www2.jiia.or.jp/pdf/fellow_report/081218
2. Усубалиев Эсен Есенкулович. Центральноеазиатское направление внешней политики Японии (1991-2003): Дис. ... канд. ист. наук: 07.00.15: Москва, 2004 190 с. РГБ ОД, 61:05-7/338
3. <https://thediplomat.com/2019/05/central-asia-and-japan-15-years-of-multilateral-cooperation/>
4. Nazarmuhamedov B., “Japan’s ODA Policy toward Central Asia and the Caucasus. An Analysis of Japanese Assistance to Economic Development in Kyrgyzstan and Armenia,” *Journal of International and Advanced Japanese Studies* 10 (March 2018): 171
5. Timur Dadabaev, “Japan’s Search for Its Central Asian Policy,” *Asian Survey* 53, no. 3 (June 2013): 515; Takeshi, “Japan’s Multilateral,” 72
6. Dissyukov, Almas (2019a). “Central Asia Plus Japan” Dialogue: From Idea to Implementation. *Journal of International and Advanced Japanese Studies*, Vol. 11, pp. 1-21

Internet resources

1. <https://www.mofa.go.jp/announce/announce/2005/3/0304-2.html>
2. <https://www.eurasian-research.org/publication/japans-engagement-with-central-asia-15-years-of-the-dialogue>
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
4. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1879366513000328#>
5. https://www.jica.go.jp/english/news/focus_on/central_asia2013/central_asia_01.html

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA DAVLATNING YAGONA AXBOROT SIYOSATINI YURITISH FAOLIYATI

Jurakulov Jamol Komilovich

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi.

E-mail: jurakulovjamol904@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda axborotlashgan jamiyatda davlatning yagona axborot siyosatini yuritish pozitsiyasi axborot madaniyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishni borasida olib borilayotgan tizimli ishlar mazmun va mohitaga atroflicha to'xtalib, ilmiy falsafiy fikrlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: axborot, jamiyat, davlat, internet, axborotlashgan jamiyat, ma'naviyat, axloq.

Аннотация: В данной статье представлены позиции проведения единой информационной политики государства в информационном обществе, содержание и контекст системной работы по развитию информационной культуры, информационно-коммуникационных технологий, научно-философские взгляды.

Ключевые слова: информация, общество, государство, Интернет, информационное общество, духовность, этика.

Annotation: In this article, the position of conducting a unified information policy of the state in the information society, the content and context of systematic work on the development of information culture, information and communication technologies, and scientific and philosophical opinions are presented.

Key words: information, society, state, Internet, information society, spirituality, ethics.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Axborotlashgan jamiyat insonlarning barcha faoliyatiga hamda jamiyatdagi barcha sohalariga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Jumladan axborot oqimining ortishi yaniy ko'payishi axborotga bo'lgan jamiyat qiziqishini pasaytirmaydi. Axborot oqimi ko'pligi tarmoqlanishi bugungi kun nuqtaiy nazaridan klasifikatsiyalashuvi natijasida turli axborotlarni sohalar bo'yicha ajratishni vas hu soha vakillari tomonidan berilgan

axborotning to'g'riligi yoki aksincha yolg'onligini tekshirish bir muncha qiyinliklarni keltirib chiqarmoqda. Axborotning ko'payishi ma'lum soha vakillarining qisqarishiga ham olib keladi. Sababi esa axborotni saralashda inson omiliga extiyoj kamayishi, axborot saralashda zamonaviy texnologiya deb ataydigan kompyuterlardagi maxsus dasturlar inson omiliga nisbatan bir muncha ish ko'fissenti ortishi muqarrardir.

Jamiyatning xolis va to'g'ri axborot olishida birinchi mas'uliyatni davlat o'z zinmasiga olsa davlat ichki va tashqi xavflarni oldindan bilishi va unga qarshi choralar ko'rishi ortib boradi. Kelajakda jamiyatimizning vorislari bo'lgan avlod a'zolari deb bilgan yoshlarimizda axborot madaniyatini shakllantirish bizni davlatimiz va jamiyatimiz oldidagi eng asosiy muammolarimizdan biridir. Bu maqsadni amalga oshirish jarayonida davlat tashkiloti bo'lgan ta'lim muassasalaridagi pedagoglarning axborot madaniyatini shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan yangi turdagi dasturlarni ishlatish foydalanish kabi yangi usullardan foydalanish zarurati tug'iladi. Davlatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish bugun biz uchun eng katta etibor talab qiladigan ta'lim desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

“Bugungi kunda axborotlashgan jamiyat tushunchasi zamonaviy sivilizatsiyaning rivojlanish darajasi sifatida tushuniladi.” [1] (Волков С.Н. Социальные и философские проблемы информационного общества. Лань 2022. – 112.с.) Jamiyat axborotni qabul qilishi bevosita sivilizatsiya bilan bog'liqligini yuqoridagi berilgan tarifdan bilishimiz mumkin. Davlat va jamiyat azolarida hamda barchada fuqarolarimizda birdek axborot madaniyatini shakllantirish axborot tushunchasi nima ekanligini yangi texnologiyalardan va usullardan foydalagan xolda tushuntrish zarur. Buning uchun jaxon andozasidan foydalanish, dunyoning nufuzli ta'lim dargohlarida jamiyatshunos olimlar tomonidan ilgari surilayotgan takliflarni o'rganish va ushbu takliflarni o'zimizning mintaletimizga milliyligimizga hamda ijtimoiy muhitimizga moslagan xolda hududlar imkoniyatini inobatga olgan xolda davlat tashkilotlari bo'lgan ta'lim dargohlari bilan kelishish lozim. N.Viner fikricha, “Axborot - tashqi olamga ko'nikish jarayonida undan olingan mazmuni ifodalashdir.”[2] (Винер Н. Кибернетика и общество. -М.: Наука, 1991. -620.с.)

Biz yuqorida takidlagan muommolarga davlatimiz qonunchiligi tashabbusi bilan bir qancha qonunlar loyihalari axborotlashgan jamiyat pirinsplariga mos xolda jamoatchilikka taqdim qilinmoqda.

“O'zbekiston Respublikasi yagona davlat axborot siyosatining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

fuqarolarning soʻz erkinligi va axborotdan foydalanishga boʻlgan konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarini, xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslarini Oʻzbekistonning ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va madaniy-gumanitar rivojlanishi toʻgʻrisida xolis axborot bilan taʼminlash;

milliy ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish, ular uchun media bozorda teng sharoitlar yaratish, jurnalistlar va blogerlarning huquqlarini himoya qilish, milliy axborot resurslaridan samarali foydalanish va ulardan erkin foydalanishni taʼminlash, ularning sonini koʻpaytirish, Oʻzbekiston axborot sohasida davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish;

davlat organlari va boshqa tashkilotlar axborot xizmatlarining imkoniyatlari va salohiyatini takomillashtirish, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan oʻzaro hamkorlik orqali ularning ochiqligi darajasini oshirish, fuqarolar, jamiyat va davlatning axborot ehtiyojlarini hisobga olgan holda axborotni taqdim etishning yangi kanallari va usullaridan foydalanish;

axborot sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, tizimli asosda aholiga mediataʼlimni joriy etish va mediasavodxonligini oshirish;

axborot texnologiyalari sohasida axborot xavfsizligini taʼminlash va jinoyatlarni oldini olish;

Oʻzbekistonda innovatsion bilim va texnologiyalar negizida axborot jamiyatini shakllantirish, axborot xizmatlari sohasi samaradorligini oshirish, mamlakatni global axborot makoniga uygʻunlashuvi va integratsiyasi orqali xalqaro axborot almashinuvi sohasida oʻrnini mustahkamlash;

axborot-telekommunikatsiya sanoati va infratuzilmasini modernizatsiya qilish, axborot yaratish, tarqatish va ulardan foydalanishni taʼminlovchi axborot texnologiyalarini rivojlantirish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishni hisobga olgan holda milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish, axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek, axborot jamiyatini qurishning zarur meʼyoriy-huquqiy bazasini shakllantirish.”[3] (<http://uzbekistan-geneva.ch/o%CA%BBzbekistonda-yagona-axborot-siyosati-konsepsiyasi-ishlab-chiqiladi.html>)

NATIJARLAR (PEZYULTATY / RESULTS)

Axborotlashgan jamiyatda texnologiyalar shaxsning shakllanishiga tasiri asoslangan bugungi kun tez oʻzgaruvchanligi bilan oʻtgan zamonlarimizdan farqlanadi. Axborotlashgan jamiyatda davlatning yoshlar maʼnaviy-axloqiy borligʻini himoya

qilishdagi faoliyati doirasida ilmiy izlanish jarayonida mamlakatimizdagi 5 ta oliy o'quv yurtida tahsil olayotganlar doirasida quyidagicha sotsiologik so'rov ishlari olib borildi va undan quyidagicha natijalarga erishildi.

Joriy yilning yanvar, fevral, mart oylarida respublikamizning beshta oliy o'quv yurtida (Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Toshkent davlat stomatologiya instituti, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti) tahsil olayotgan va faoliyat olib borayotgan yoshlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotda 500 nafardan ortiq respondentlar ishtirok etishdi. 1-savol. Hurmatli respondent aytingchi sizningcha axborot tushunchasi nimani anglatadi?

Hurmatli respondent aytingchi sizningcha axborot tushunchasi nimani anglatadi? deb berilgan savolga respondentlarning 29% OAV beriladigan ma'lumotlar deb javob qaytarishgan bo'lishsa, Shuningdek 43,3% respondent ahamiyatli bo'lgan har qanday ma'lumotlar deb javob qaytarishgan bo'lsa, 22,5% respondent esa biror narsa to'g'risida yozilgan ma'lumotlar tafsiloti deya javob berishgan. 5,2% ishtirokchi savolga javob berishim qiyin degan javob variantini tanlashgan.

2-savol. Siz uchun asosiy bo'lgan axborot manbaini ko'rsating? So'rovda ishtirok etgan respondentlarning 8,6%i uchun Televidenie, Radio asosiy axborot manbai ekanligini qayd etib o'tishgan bo'lsa, 8,6% respondent asosiy axborot manbasi sifatida bosma axborot manbalari (kitob, gazeta, jurnallar) ko'rsatib o'tishgan. 77,8% respondent internet tarmog'i, Ijtimoiy tarmoqlar (Feysbuk, Twitter va boshqa.) mesendjer va sigmentlarni axborot olish manbasi sifatida ko'rsatishgan bo'lishsa, atigi 4,7% respondent bunday manba sifatida Yon atrofimdagi odamlarni ko'rsatib o'tishgan.

3-savol. Siz olgan axborotingizni do'stlaringiz, yaqinlaringiz yoki bo'lmasam yon atrofdagi odamlar bilan ulashasizmi? Deb berilgan navbatdagi savolga respondentlarning 7,8% yo'q javobini belgilagan bo'lsalar, 63,8% respondent esa olgan axborotlarini ba'zan, u qanday axborotligiga qarab degan javobni belgilagan. 27,6% respondent esa olgan axborotlarini albatta ulashishini aytib o'tishgan. Shuningdek mazkur savolga 0,7% respondent javob berishga qiynalishlarini ko'rsatib o'tishgan.

4-savol. Siz uchun yon-atrofdagi axborotlarni olishning qanday usulini ma'qulroq hisoblaysiz? So'rovda ishtirok etganlarining 36,9% axborotni ko'rish orqali olishni ma'qul ko'rishlarini aytib o'tishgan bo'lishsa, 7,9% respondent eshitish orqali qabul qilishni ma'qul ko'rishlarini qayd etib o'tishgan. 31,2% respondent o'qish orqali axborot olishni ma'qul ko'rishini deyishgan bo'lishsa, qariyb 24% respondent uchun esa axborotni qanday ko'rinishda olishning farqi yo'qligini qayd etib o'tishgan.

5-savol. Siz uchun do'stlaringiz, yaqinlaringiz oila-mahalla-ta'lim muassasalardagi yoshlarining voqea xodisalarga bergan bahosi qiziqmi? Shu savolga aniqlik kiritish maqsadida respondentlarga berilgan savolga respondentlarning 20,3% ha, albatta, men shunga qarab ular bilan munosabatimni shakllantiraman degan javobni belgilashgan. 18,1% respondent ham yuqoridagi fikrni to'ldirgan holda ha, ularning fikri bilish men uchun qiziq deb ko'rsatib o'tishgan. Faqatgini 45,5% so'rov ishtirokchilar qat'iyat bilan ba'zan, agar bu men uchun ahamiyatli bo'lsa muhim deb javob qaytarishgan bo'lishsa, yana 12,1% respondent yo'q, menga ularning bo'lgan voqealarga bildirgan munosabati qiziq emas degan javob variantini tanlashgan. 4% respondent javob berishga qiynalishlarini ko'rsatib o'tishgan.

6-savol. Siz olayotgan kunlik axborot yangiliklarni boshqa axborot manbalaridan ham tekshirib ko'rasizmi? Degan savolga respondentlarning 3/5 qismi qanday axborot manbaligiga qarab tekshiraman deyishgan bo'lishsa, yana 1/5 qism respondentlar ba'zan tekshirishlarini va bu qanday axborot ekanligiga bog'liqligini aytib o'tishgan. 9,7% respondent yo'q, men olgan axborotimni manbasiga to'la ishonaman deyishgan bo'lishsa, 38,3% so'rov ishtirokchilari imkoniyatdan kelib ha, lekin imkoniyatimdan kelib chiqqan holdaligini aytib o'tishgan. Faqatgina 49% respondent o'zlari oladigan axborotga ba'zan, bu qanday axborotligiga bog'liqligini ta'kidlab o'tishgan. 3% respondent mazkur savolga javob berishim qiyinligini belgilagan.

7-savol. Siz ko'proq jonli muloqotda o'zingizni erkin his qilasizmi yoki internetdagi muloqotdami? So'rovda ishtirok etganlarning 31,6% internet orqali muloqot qilganda o'zlarini erkin his qilishlarini aytib o'tishgan bo'lsalar, aksincha 60,4% respondentlar jonli muloqotda o'zlarini erkin his qilishlarini ko'rsatib o'tishgan. Shuningdek 8% respondent mazkur savolga javob qaytarishmagan. Bizga ma'lumki internet tarmog'idan foydalanishning usullari juda ham ko'p.

8-savol. Internet tarmog'iga nimalar yordamida kirasiz? Keyingi savol orqali biz respondentlarning internet tarmog'iga qaysi vositalar yordamida kirishlarini so'rab murojaat qildik. Respondentlarning 90,3% internetdan foydalanishda bir vaqtning o'zida telefondan foydalanishlarini aytib o'tishgan bo'lishsa, 6% respondent kompyuter (noutbuk, netbuk) orqali vositalari yordamida internet tarmog'iga kirishlari aytib o'tishgan. 1,7% planshet orqali internetga kirishini belgilagan. Yana 1,7% respondent internetdan foydalanmayman degan javobni belgilashgan.

9-savol. Yoshlar ma'naviy axloqiy borlig'ini kiber tahdidlardan himoya qilishda ota-onaning qattiq qo'lligi kerakmi? Savoliga javoban ba'zi odamlar aslida shu ishni qilish kerakmi, yo'qmi, degan savolga ham bormaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda havola etiladigan ma'lumotlarni bezab turgan g'aliz jumlar hamda imloviy xatolar o'sha

tarmoq foydalanuvchisining saviyasi qay darajada ekanligini ko'rsatib turadi. Bu esa ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarida ham afsuslanish, achinish holatlarini keltirib chiqaradi. Ba'zida esa ijtimoiy tarmoqlar orqali havola etilayotgan asossiz va saviyasiz ma'lumotlarning sanab adog'iga ham etib bo'lmaydi. Respondentlarning 80,9%i ha deb javob qaytarishgan. 13,7% respondent yo'q deyishgan bo'lishsa, 5,5% respondent javob berishga qiynalaman deb javob qaytarishgan.

10-savol. Sizningcha, internet va OAV (ayniqsa televideniya)ni yoshlar ma'naviy olamiga salbiy ta'siri bormi? Olib borilgan so'rovnomamiz va axborot-tahliliy natijalar va statistik ma'lumotlarga ko'ra, 76,7% ha deb javob qaytarishgan. 12,5% respondent yo'q deyishgan bo'lishsa, 10,9% respondent javob berishga qiynalaman deb javob qaytarishgan.

11-savol. Televidenie orqali uzatilayotgan behayo reklamalar inson ma'naviy olamiga tasir qiladimi? Dunyoning 30 dan ortiq mamlakati, xususan Avstraliya, Malayziya, Janubiy Koreya, Rossiya Federatsiyasi va Yevropaning ko'plab davlatlarida televideniyaedagi reklamalarga ma'lum cheklovlar o'rnatilgan milliy qonun hujjatlari mavjudligini biz turli saytlar va huquqiy hujjatlardan bilamiz. So'rovnomamiz ma'lumotlarga ko'ra, 87,5% ha deb javob qaytarishgan. 5,8% respondent yo'q deyishgan bo'lishsa, 6,6% respondent javob berishga qiynalaman degan javob qaytarishgan.

12-savol. Kibermakon (internat olami)dan inson ma'naviy olamini himoya qilishda milliy axloqiy bilimni rivojlantirish kerakmi? Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlatimiz qo'lga kiritayotgan olamshumul yutuqlarni jahon media makonida keng targ'ib qilish hamda inson ma'naviyatini har tomonlama yuksaltirishga xizmat qiladigan juda ko'plab ma'lumotlar yoritib borilmoqda. Shu bilan birga, milliy mentalitetimizga raxna soluvchi turli ig'volar, g'iybatlar, milliy madaniyatlarning kushandasi bo'lgan "omnaviy madaniyat" niqobidagi tahdid va boshqa illatlar singari xavf solishi hamon davom etmoqda. Savolnomamizda qatnashgan respondentlarning 86,3% ha deb javob qaytarishgan. 4,7% respondent yo'q deyishgan bo'lishsa, 9% respondent javob berishga qiynalaman degan javob qaytarishgan.

13-savol. Axborotlashgan jamiyatda oila, mahalla, ta'lim muassasalarining fuqarolar va yoshlar ma'naviy-axloqiy olamini himoya qilishdagi faoliyatini shakllantirish kerakmi? Savolnomamizga respondentlarning 84,8% ha deb javob qaytarishgan. 5,4% respondent yo'q deyishgan bo'lishsa, 9,7% respondent javob berishga qiynalaman degan javob qaytarishgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, davlat kelajagi bo'lgan yoshlar uchun ularning xulq-atvori, ahvoli jamiyat va muhitdagi siyosiy, ijtimoiy-psixologik vaziyatning ko'rsatkichi sifatida qaraladi. Bunda ommaviy kompyuter savodxonligidan ommaviy kompyuter foydalanuvchilarini tayyorlash orqali kompyuter savodxonligini bartaraf etish, shuningdek, ushbu sohalarda mutaxassislarni tayyorlash asosiy shartlardan biridir. Axborotlashgan jamiyatda davlatning yagona axborot siyosatini oilada otonaning mas'uliyatsizligi, nazoratsizligi natijasida bolalar noto'g'ri tarbiya olib, jamiyatda zararli insonlar safida bo'lib voyaga yetish extimoli katta. Ta'lim va tarbiyasiz jamiyat tartibini barqaror qilib bo'lmaydi.

Insonlarning ma'rifatli bo'lishi, inson aql-zakovati, jamiyatdagi mavqei uning oilada olgan ta'lim-tarbiyaga bog'liqligi o'tkazilgan so'rovnomamizda ham o'z isbotini topdi. Ta'lim - bu oiladagi engg katta meros bo'lishi jamiyat va davlatda insonlar xulqini ifodasi sifatida ko'rinishi bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, "O'zbekiston", 2017.
2. Ta'lim to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997-yil 29-avgust // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 1997. – B. 20-29.
3. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) /O'zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari. -Toshkent: O'zbekiston, 2007. – 80 b.
4. "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdagi -117-son qarori.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.:Ma'naviyat, 2008, -108 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – B. 307.
7. Винер Н. Кибернетика и общество. -М.: Наука, 1991. -620.c
8. Волков С.Н. Социальные и философские проблемы информационного общества. Лань 2022. – 112.c.
9. <http://uzbekistan-geneva.ch/o%CA%BBzbekistonda-yagona-axborot-siyosati-konsepsiyasi-ishlab-chiqiladi.html>
10. www.lex.uz
11. <https://www.ziyo.uz/>
12. <https://www.ziyonet.uz/>

UDK: 17.022.1:008-053.81(575.1)

YOSHLARDA ISTE'MOLCHILIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Arziqulov Elboy Azim o'g'li

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy
tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0002-3543-9438>

e-mail: earziqulov94@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolamiz yoshlarda iste'molchilik madaniyatini yuksaltirishning istiqbolli yo'nalishlari haqida bo'lib, maqolada yoshlarning bugungi kundagi jamiyatda munosib kasb egallashlari hamda ularning pulga bo'lgan munosabatlari, ijtimoiy iqtisodiy hayot uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan dolzarb fikrlar, shuningdek muhim tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, iste'mol, madaniyat, etika, xulq – atvor, qadryat, sifat, iqtisod, daromad, xarajat, qarzdorlik.

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ

Резюме: в данной статье речь идет о перспективных направлениях повышения культуры потребления среди молодежи, в статье речь идет о приобретении молодыми людьми достойной профессии в условиях современного общества и их отношении к деньгам, актуальных мыслях, направленных на удовлетворение потребностей, необходимых для социальной и экономической жизни. жизнь, а также важные рекомендации.

Ключевые слова: молодежь, потребление, культура, этика, поведение, ценность, качество, экономика, доход, стоимость, задолженность.

PROSPECTIVE DIRECTIONS OF IMPROVING CONSUMER CULTURE IN YOUTH

Resume: this article is about the promising directions of raising the consumerism culture among young people, the article deals with the acquisition of a decent profession by young people in today's society and their relationship to money, current thoughts aimed at satisfying the needs necessary for social and economic life, as well as important recommendations. cited.

Key words: youth, consumption, culture, ethics, behavior, value, quality, economy, income, cost, indebtedness.

Kirish (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Yangi O‘zbekistonimizning ertangi kuni yoshlar qo‘lidadir. Jamiyatimizning eng yirik demografik qatlamini ham aynan yoshlarimiz tashkil etadi. Ushbu yoshlarimizga bugungi kunda davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar eshigi ochib berilayotgani ham sir emas. Xo‘sh bugungi yoshlarimiz ushbu imkoniyatlardan qanday foydalanishmoqda? Ularning iste‘molchilik madaniyati qanday? Bu haqda qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

Yoshlar kinoteatrlar, teatrlar, operalar, baletlar, ko‘rgazmalar, festivallar, mumtoz va boshqa musiqa konsertlariga tashrif buyurganlarida madaniy mahsulotlar va xizmatlarni iste‘mol qiladilar, musiqa va san‘at maktablarida o‘qiyotganlarida, turli tadbirlar o‘tkazishda madaniy mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchisi hisoblanadilar. “Yoshlar turli xil tuzilma bo‘lib, turmush tarziga qarab jinsi, yoshi, ma‘lumoti, daromadi, jamiyatning ijtimoiy va sinfiy tuzilishi va mehnat munosabatlari tizimidagi o‘rni bo‘yicha bo‘linadi”[1]. (К вопросу о концепции инновационного человека. <http://elibrary.ru/item.asp?id=16542235>). Shuni ta‘kidlash kerakki, turli nuqtai nazarlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tadqiqot yoshlar tushunchasiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlarni ochib beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODOLOGIYA. (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Types of tall trees on the territory of the Pamir Botanical Garden

Table 1.

№	Tree name	Age	Height and width, m	Position
1.	Apricot	11	4,57/0,19	Usually bears fruit
2.	Circle	10	8,0/0,5	Fruit
3.	White Acacia	10	3,27/0,42	Fruit
4.	Kanad Bumduki	10	2,0/0,5	Fruitless
5.	Pennsylvania Cherry	7	2,15/0,18	Fruit
6.	Turkestan (Roshan) Ryabin	9	3,36/0,24	Fruit
7.	Sofora	11	7,0/0,4	Flowered
8.	Pyramid Poplar	14	17,0/0,5	Fruitless
9.	Bolle Poplar	4	6,0/1,5	Without fruit
10.	Bird cherry	10	4,5/0,43	Usually bears fruit

This table details the species of tree that grow in the area we are studying. To solve many agrotechnics, Forestry and environmental and climatological problems, it is necessary to have a clear and sensitive way of recording the growth of trees in thickness. The thickening of the tree, along with the growth of its height, determines the growth of the tree.

Method. In his paper on tree growth, Mac Dugal defined dendrographs as complex and expensive devices that record the smallest changes in the circumference of a tree trunk, recording indicators on moving paper lines. Due to the cost and complexity of their high, these devices were hardly used for mass measurements. [Mac Dougal].

So, the researchers set ourselves two tasks: 1) to study the growth and durability of tree species growing in different balladry conditions; 2) to study the climate change of past years based on an analysis of the width of the annual layers of spruce trees.

In the plains of Central Asia, peach trees rarely live for more than 6-8 years, while Schungan has been found to have peach trees that are 20-30 years old; Rushon has large peach trees that are over 50 years old. Mulberry trees in the old bases of the mountainous Badakhshan Autonomous Region often reach the age of 150-200 years. In flat forests, it was necessary to study the incisions of large tree layers of a Pine Terrace with a volume of 130-150 pieces. Tree species have been observed to have a significant increase in endurance as they rise to altitude in mountainous areas. [L.S.Berg].

Results and Discussion. In 1948, 54-year-old sorrel conifers with a trunk thickness of 2 cm at a height of 3700 m were found in the Shungan Ridge. On the territory of Korolkov you can find trees aged 130-140 years. These observations led us to consider separately the problem of the durability of tree species in mountainous conditions.

Our attention was attracted by Juniper, represented by a species in GBAO. This is where such a spruce, which is very close to Zarafshan, prevails. In the Vanch region, hemispherical spruce, and in the Vanch and Bartang Alpine belt, Siberian spruce thickets were found. The shrub spruce reaches a height of 3700 m in some places. Unlike most other tree species of the Gono-Badakhshan Autonomous Region, The Spruce grows in clear rainy conditions, using only the moisture of precipitation. An analysis of the age of spruce trees conducted in 1940 suggests that it may be quite large. This leads us to the idea of using old spruce trees as Chronicles of past climatic conditions. [L.F.Ostapovich]

The growth of some trees in Khorog summer 1948

Table 2.

№	Plant name	Growth duration
		Horog
2.	Siren	25-30
3.	Cherry	36
4.	White Acacia	52
5.	Amur barkhat	54
6.	Ash tree	42
7.	Tatar Maple	42
8.	Garden cherry	41

This table lists some species of trees growing in Khorog City, and ancient trees can also be found in the area. The climatic conditions here are such that the trees grow according to humidity and air temperature. The life expectancy of the trees here is considered to be longer.

The results of the work associated with the first problem consist of a short bottom. Under Optimal conditions, spruce growth is very fast. Maximum growth is observed at the age of 80-100 years, then a sharp decrease in growth indicates rapid aging of trees. At the indicated upper limit, spruce trees grow very slowly, their maximum growth is observed in 600-650 years, and a very slow decrease in growth indicates a very long life vision of spruce trees. Old spruce trees, several hundred years old, can undoubtedly give valuable materials on the history of the climate. Such information is of not only scientific, but also practical importance, since periodic climate change strongly affects the economic activity of a person. From time to time, winter in winter is known to cause great damage to crops in subtropical regions. Severe winters in the temperate zone also cause significant damage to fruit and ornamental plantations. In such winters, not only cultural plantations consisting of introduced plant species and varieties die, but also old trees of local species growing in natural forests.[A.V.Gurskiy].

The growth of the tree depends not only on the climate, but also on many other cases, the influence of surrounding plants, soil conditions, the age of plants, etc. In addition, the water supply of the tree, for example, in the River Plain, often does not depend on the amount of precipitation, but consists of a regime of snow melting in the mountains and a regime of river water flow. Therefore, F. As Shvedov noted, the writer noted that trees growing in mountainous conditions and away from other plants that undermine the influence of the climate on the growth of the tree were very suitable as a yearbook of the climate of previous years.[A.Shvedov].

Juniper tree species and characteristic**Table 3.**

№	Species	Growth Place	Age	Height m	Diameter sm	Cut in
1.	The schooner arch	Medinved Shordara tract 3,600 m high	420	9,0	35-26	Cut in 1951
2.	Schooner rope	Schooner Ridge 3700 m height	468	6,0	52-25	Cut 1948
3.	Schooner arch	Schooner Ridge largest tree at 3700 m height	930	7,5	45-36	Cut 1948
4.	Zarafshan arch	Mount Oloy at 2600 m in the northern part to	186	9,0	40	Cut 1948
5.	Zarafshan arch	Mount Oloy in the northern part at an altitude of 2600 m to	200	8,7	40	Cut 1948
6.	Schungan arch	Medinved Shordara tract 3600 m high	186	6,0	34-19	Cut in 1950
7.	Siberian arch	Vanch, 3400 m altitude	118		5,5-5,3	Cut in 1951
8.	Siberian arch	Vanch, 3400 m altitude	131	8,7	7,7-4,7	Cut in 1951
9.	Schooner arch	Schooner mountain 3,700 m high	400	4,8	30-21	Cut in 1948
10.	Schooner arch	Vanch, at 3500 m high	358	6,3	38-19	Cut in 1948

This table above gives a complete overview of the trees we are selecting and considering. Layers of width are measured with a stencil with an accuracy of 0.1 mm. In the arch, as in other species, there are sometimes secondary annual layers, which are easily distinguished from the main ones by very thin and pronounced transplants of autumn tree wood. When calculating, the secondary annual layers are combined with the main ones. The width of the very narrow annual layers is measured using object micrometers. They are placed on a part of the tree and examined through 10-20 carat flakes. In order not to lose the score and not to measure one layer twice, all measured annual layers are recorded immediately. The annual layers measured on the graphs are dropped. Graphs of annual layers of spruce trees look a little like cardiograms. Figure 1 shows the absolute values of their annual layers for three spruce trees, clearly showing sharp ups and downs in the thickness of the annual layers of trees, which may be primarily due to changes in external conditions. Internal processes of the vital

phaoliation of trees, such as plants that require fruiting, consume a lot of energy and nutrients and always lead to a slowdown in growth in the year after fruiting. [A.V.Gurskiy,I.V.Kanevskaya,L.F.Ostapovich].




Figure 1. Tree width and atmospheric precipitation in Otr and Kubansk is a dependency graph.

From the graph it can be seen that in the years when atmospheric precipitation increased, the width of the tree also increased. This means that in low-fat years, the tree width has also decreased. From this it can be determined that the transverse sections of trees allow us to know the climatic annals of the distant past.

The best recorders of the climate in Central Asia are undoubtedly old spruce trees. They, as shown above, reach adulthood, their annual layers are very clearly expressed.

Table 2 details the fir trees used in this work. The data given suggest that dwarf fir trees, which grow mainly in Garden Wood, have been studied. Before calculating and measuring the annual layers, we drew two lines from the center of the cut trunk. One of them runs along the length, and the other along the short diameter of the trunk. The transverse parts of the trunk of the spruce are always built asymmetrically, and, as can be seen from the data in the table, the long and short diameters of the trunks often differ sharply in length. The trunk of the tree acquires more irregular, asymmetrical shapes due to the deterioration of the environmental conditions in which the plant exists. [A.V.Gurskiy,I.V.Kanevskaya].

A study of the growth graph of arch number 3 shows that this tree began to grow in 1010 and grew very well in the first 190 years, during which time it showed about 16 clearly visible projections on the curve, so that when they were averaged, the interval was 11.18 years old. From 1200 to 1500, over a period of 300 years, the tree

grew very slowly. It is difficult to imagine that the growth of the tree was the same during this period, but the annual layers formed during this period were so thin that they were very difficult to measure. [A.V.Gurskiy].

This depression in the growth of Spruce number 3 can occur due to individual reasons in the life of this tree. The root system of the tree could withstand the difficult-to-pass horizons of the substrate process. It is not clear that the cause of this depression in the growth of Juniper number 3 is not due to the absence of another tree of the same age. From 1500 to 1948, tree diagram No. 3 shows 34 ascents of the curve separated by a 13-year interval. [L.F.Ostapovich].




Figure 2. Graph of rhythmic variations of the widths of juniper trees №1, №3 and №9 in mountainous Badakhshan.

From this chart, we can see from the graph that the deeper and more depressions were, the better the precipitation in those years and the better conditions for the growth of the tree and the expansion of its trunk.

For arch No. 1 from 1475 to 1950, 45 ascents of the curve are identified, separated at intervals of 106 years. Arch No. 9 from 1615 to 1940 shows the 26th rise of the curve at an average interval of 1212. It is known that Douglas, based on a study of the annual layers of coniferous tree species in California, identified 11-year periods of oscillation of sunspots. L.S. While discussing small periodic climate changes, Berg expressed doubts about the strict periodic regularity of climate change, noting that these fluctuations often do not correspond to the correct rhythms. [Mac Douglas].

Most often, climate changes of 9-14 years can be observed. F. Shvedov, as mentioned above, based on a study of the annual layers of white Acacia in Odessa, found periodic fluctuations in the width of the annual layers of the observed spruce tree, and not always with the right periods. Willick makes it clear that there are changes

in the width of the layers depending on the age of the tree. The maximum width of suitable layers for tree No. 3 dates from 1625-1950. For a simultaneous number 1 tree, number 9 dates from the 1750s to the 1770s. [F.Shvedov].

In Figure 2, trees show graphs of absolute and relative sizes of annual layers. The lower curve is markedly flattened, showing less dependence on tree age. Flattened curves speak very clearly about the periodic fluctuations in the growth of spruce trees, depending on the changes in external, environmental conditions during the growing season of different years. [A.V.Gurskiy].

Conclusion. From the graph and results considered above, it can be said that in the range from 1000 to 1600 years in Central Asia, the depression curves of the tree are not so deep, that is, during this period there was not much precipitation, and the diameter of the tree did not expand much. In the interval between 1600-1920, it can be seen from the graphs that depressions deepen and the amount of precipitation is greater, during which the air temperature is also lower, and a state similar to that of the Little Ice Age is observed. Thus in Central Asia, the drying of the climate during these periods shows that it was not observed in ancient times.

In summary Figure 2 shows the flattened curves of the relative width of the annual layers for the three spruce trees No. 9 and 1,3, which grow on the Pine and Vanch at a distance of 200 km from each other.

The graphs show a significant matching of the curves, proving the suitability of the annual layer analysis method to assess the climate of previous years. These curves also suggest that there are longer climate changes than the 11- and 30-year periods of Bringner, Douglas, and other scientists. [Mac Douglas].

In the transverse latitudes of the tree annual layers, the state of depression is felt in the late 17th and first quarter of the 18th century. The late 18th century and the first quarter of the 19th century also saw a strong depression. The depressions are characterized by the rise of the curve in the 1930s and 1940s. There was a significant depression in the 60s of the last century, following these great depressions, there is a general rise in the curve that lasted until recently. Based on the general course of the previous 3-4 centuries, it should be assumed that in the coming years there will be a slight decrease in the curve. Of course, it is impossible to see a general change in climate, depending on more land than the drawn curves. Conversely, it can be concluded that the last half-century saw a general increase in the curve. [A.V.Gurskiy].

This is the case, in our opinion, of the late academician L.S. Berg supports the conclusion that no general drying (warming) of the climate of Central Asia has been observed in the historical period. To assess this, the curves of the annual rings of properly worked old trees are certainly more reliable than short-term observations and of course geobotanic nature. [L.S.Berg].

List of literature used:

1. Yu.M.Petrov klimat I Pogoda Samarkand Gidrometeoizdat, 1982.-99 b.
2. T.N.Dolimov, V.I.Troitsky. Evolutionary geology Tashkent: teacher, 2007.-336 b.
- 3.V.A.Zubakov. Globalnie klimaticheskie sotia neogena Hydrometioizdat, 1990.-197 b.
4. A.A, Abdiyev. Neftigas areas and aquateries of the world. Tashkent: East, 2009,-493 b.
5. M.L.Arushanov. Klimatichesky spectrum planet Zemlya. Tashkent. Uzgidromet, 2010.-160 b.
6. P.Baratov, M.Magnatqulov, A.Gafnikov, the natural geography of Central Asia. Tashkent: Teacher, 2002.-220 b.
7. K.S.Losev klimat: vchera, Segodnya... zavtra I, L.: Hydrometeoisdat, 1985.-174 b.
8. O.V.Nalivkin Paleogeography Sredney Azii. M.- L.: AN USSR, 1936.-205 b.
9. Srednyaya Aziya. Moscow: Изд.АН USSR, 1958.-648 b.
10. S.S.Shuls. Analiz noveyshiy tektoniki I relefa Tyan-Shanya zapiski Vsesoyuzi. Geograficheskogo obtshestva. T.Z. M.: Geografgu, 1948.-316 b.
11. N.A.Yasamanov Manziltno-klimaticheskie uslovia Yura, Mela I paleogena Yuga USSR, M.: Nauka, 1978.-223 b.
12. N.A.Yasamanov drevnia klimati Zemli. L.: Hydrometeoisdat, 1985.-296 b.
13. M.Qoriyev is the natural geography of Central Asia. Tashkent: Teacher, 1968.-334 b.
14. A.V.Gursky, I.V.Kanevskaya, L.F.Ostapovich Osnovnie itogi introduktsii rasteniy v Pamirskom botanicheskom Sadu. Stalinabad SSR, 1953.-97 b.
15. B.P.Alisov B.V.Poltaraus Climatology. Moskovskogo University, 1974.-290 b.
16. E.P.Borisenkov, L.G.Polozova Kolebania klimata za poslednee tisyacheletie Hydrometeoizdat, 1988.-406 b.
17. Rubinstein E. S., Polozova L. G. Sovremennoe izmenenie klimata. - L.: Hydrometeoiedate. -1966-p. 13-24.
18. X.Arakawa Izmeneniya klimata. Hydrometeoisdat, 1975.-112 b.
19. Series Geograficheskaya Tom 2, Izvestia Akademii Nauk USSR, Izdatelstvo "Nauka" 1972.-105-107 b.
20. Vestnik MGU Tom 1, Izvestia Akademii Nauk USSR, Izdatelstvo "Nauka" 1975.-108-110 b.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI YANGI BOSQICHGA KO'TARISH VA TUBDAN ISLOH QILISH

Isroilova Gulnora Qaxramon qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi,
G'allaorol tumani "UCHQUNCHA" nomli 5-DMTT tarbiyachisi.

e-mail.gulnoraisroilova@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'limni yangi bosqichga ko'tarish va tubdan isloh qilish va unga xos sifatlar ma'no xususiyatlari ochib berilgan; maktabgacha ta'limni yangi bosqichga ko'tarish va tubdan isloh qilish ning ma'no xususiyatlari birlamchi manbalarga tayanilib tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, qarorlar, farmonlar, farmoyishlar, islohatlar, xalqaro tadqiqotlar, boshqaruv dasturi, ishtirokchilar, pedagoglar.*

RAISING AND REFORMING THE PRE-SCHOOL EDUCATION SYSTEM TO A NEW LEVEL

***Abstract:** The article reveals the characteristics of raising preschool education to a new level and radical reform and its characteristic features; The meaning of raising preschool education to a new level and radical reform is analyzed based on primary sources.*

***Key words:** education, training, pre-school educational organizations, decisions, decrees, orders, reforms, international studies, management program, participants, pedagogues.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 16 avgust kuni umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro integratsiyani ta'minlagan holda yangi o'quv yiliga tayyorgarlikning borishi, 11 yillik o'rta ta'lim tizimini joriy etish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan isloh qilish, yangi ochilgan oliy ta'lim muassasalari, filiallar faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq ishlar holati bilan yaqindan tanishish maqsadida Oliy va o'rta maxsus ta'lim, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi, Xalq ta'limi vazirliklari rahbarlarini qabul qilib va hisobotlarini tingladi.

Prezidentimiz maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash, eng ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, har jihatdan zamonaviy tizim yaratish masalasiga to'xtalib o'tdi. Bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat, pokiza orzular ruhida kamol toptirish bugungi kundagi eng muhim, eng dolzarb masalalardan biri ekanini ta'kidladi. Zero, farzandlarimizning maktabda qanday o'qishi, qanday yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan ularning maktabgacha ta'lim muassasasida oladigan tarbiyasiga bog'liqdir.

Majlisda davlatimiz rahbari tomonidan maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv tuzilmasini tashkil etish, mazkur muassasalarga bolalarni 100 foiz qamrab olishga qaratilgan alohida dastur ishlab chiqish, boshlang'ich ta'lim muassasalariga qator imtiyozlar berish, shuningdek, Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi malaka oshirish institutlarida ta'lim mazmunini sifat jihatdan tubdan o'zgartirish, ularni eng ilg'or oliy ta'lim muassasalari tarkibiga o'tkazish orqali umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga eng kuchli va tajribali professoro'qituvchilar ta'lim berishiga erishish borasida muhim vazifalar belgilab berildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS).

“Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3261-sonli Qaror mazmun-mohiyati¹.

Maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muassasadir. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo hali sohada yechimini kutayotgan qator kamchiliklar bor. Jumladan, joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalarida moddiy-texnik bazaning nochorligi, malakali kadrlar yetishmasligi, sifatli oziq-ovqat ta'minotining pastligi kabilar bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkon bermayapti. [2]

¹ “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.

Aytish kerakki, bu o'ta muhim va dolzarb vazifalarni tez va sifatli bajarish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning doimiy e'tiborida bo'lmoqda. 2017 yil 9 sentabr kuni qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori ushbu fikrimizning amaliy ifodasidir. [2]

Qarorda maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, MTMLar infratuzilmasi va moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'rganish va faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etildi. Ushbu komissiya maktabgacha ta'lim sohasidagi qonunchilikni undagi bo'shliqlarni, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil qilish, sohada davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan, zarur infratuzilmani yaratishga, xodimlarning mehnatini moddiy rag'batlantirishga, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash va malakasini oshirishga, xususiy sektorni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash hamda kompleks o'rganish kabi bir qator dolzarb vazifalarni bajarishi nazarda tutilgan. Ayniqsa, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishga davlat talablarini qayta ko'rib chiqish, bolalarni qabul qilishning amaldagi tartibini, vakolatli davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi holatini tanqidiy o'rganish ham bevosita komissiya zimmasiga yuklandi.

2018 yil 1 yanvardan boshlab, Toshkent, Nukus shaharlarida, viloyatlar markazlarida eksperiment tariqasida davlat-xususiy sheriklik shartlarida yangi maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etilishi ham sohada o'ziga xos yangilik, deyish mumkin. Buning uchun investorlarga yer uchastkalari, bo'sh turgan binolar foydalanish uchun ajaratiladi. Ularga soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar beriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l haritasi" tasdiqlanib, shu asosda aniq chora-tadbirlar belgilandi. Maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish, xorij tajribasidan foydalanib, milliy tizimni yanada rivojlantirishga doir amaliy ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodning barkamol va yetuk shaxs bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmon hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli Qaror mazmun mohiyatlari.

Mamlakatimizda milliy genofondni mustahkamlash, yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalariga doimiy e’tibor qaratib kelinmoqda. 2017 yil 16 avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda ta’lim tizimini rivojlantirishning ko‘plab yo‘nalishlari belgilab berildi. Xususan, maktabgacha ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5198-sonli Farmoni¹ hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli Qaroriga muvofiq: maktabgacha ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, bolalarni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashning barcha jihati belgilab berildi. [1]

Xususan, farmonda qayd etilganidek, mamlakatimizda so‘nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta’lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamaygan bo‘lib, bugungi kunda respublika bo‘yicha bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil qiladi, xolos. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiytexnika bazasi ham zamonaviy talablarga deyarli javob bermaydi.

Qolaversa, hududlarda maktabgacha ta’lim muassasalarida ko‘proq o‘rta maxsus ma’lumotli kadrlar faoliyat yuritayotgani bois maktabga tayyorlov guruhlarida mashg‘ulotlar yetarlicha o‘tilmayotgani, ko‘plab bog‘chalar binolari talabga javob bermasligi, ayniqsa, bolalar qamrovi tumanlar kesimida olinganda, 18 - 20 foizni tashkil etishi hech kimga sir emas.

Mazkur hujjatda sohada yagona davlat siyosatini ishlab chiqish, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalardan keng foydalanish, ularga shart-sharoitlar yaratish, bolalar qamrovini bosqichmabosqich kengaytirish, yosh avlodda kitob o‘qishga qiziqish uyg‘otish, ularning sog‘lom va to‘g‘ri ovqatlanishini tashkil qilish, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish kabi juda dolzarb masalalar qamrab olingan. Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar hamda pedagog xodimlarining malakasini oshirish, qayta tayyorlash ham o‘ta muhim masalalar sifatida ko‘rsatilgani, ayniqsa, e’tiborga molik.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5198-sonli Farmoni

Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tuzilishi bu boradagi boshqaruv tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi, shubhasiz. Endi idoraviy mansubligidan qat’i nazar, davlat tasarrufidagi barcha maktabgacha ta’lim muassasasi mazkur vazirlik tizimiga o‘tkaziladi.

Vazirlik zimmasiga bir qator muhim vazifalar yuklatildi. Xususan, maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olib, maktabgacha yoshdagi bolalarni har jihatdan intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shartsharoit yaratish, davlat hamda nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari orasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish hisobiga farzandlarimizni maktabgacha ta’lim muassasalariga bosqichma-bosqich to‘liq qamrab olinishini ta’minlash ana shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim muassasalarini milliy madaniytarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o‘qishga qiziqishni uyg‘otuvchi o‘quv-metodik, didaktik materiallar, o‘yin hamda o‘yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta’minlash, tajribali yuqori malakali, kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar va tarbiyachilarni o‘quv-tarbiya jarayoniga jalb qilish kabilar ham vazirlikning diqqat-e’tiborida bo‘ladi.

Umuman, hujjatlar uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sanalmish maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta’lim muassasalarining davlat hamda nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlashda dasturilamalga aylanadi.

O‘zbekiston Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 oktabr kuni maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda “Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi”, deb ta’kidladi.

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o‘zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida bog‘cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Bunga qo‘shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo‘q. Bog‘cha tarbiyasini olgan bola bilan bog‘chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o‘rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas.

Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bu borada katta ishlarni boshlandik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirmasak, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limning uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi, deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi bog'chalar qurish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi hisobga olinib, nodavlat ta'lim muassasalari, jumladan, nodavlat bog'chalar tarmog'ini kengaytirishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda.

(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3276-sonli qaror misolida) Bu esa tizimda sog'lom raqobatni shakllantirish hamda ta'lim xizmatlari turini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. "Biz qabul qilayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga bilim asoslarini, eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadiganlar yuqori malakali tarbiyachi va murabbiylardir", deya ta'kidladi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Ilg'or xorijiy tajribalar asosida maktabgacha ta'lim tizimidagi pedagog kadrlar malakasini oshirish bo'yicha o'quv-reja va dasturlarni takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari maxsus sirtqi bo'limlarining "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi bo'yicha 2018-2023 yillar uchun kvotalar ajratish masalasiga e'tibor qaratildi. [3]

Yana bir muhim masala – bu maktabgacha ta'lim muassasalarida malakali tibbiy xizmatni tashkil etish, sanitariya me'yorlari va gigiyena qoidalariga to'la javob beradigan sog'lom ovqatlanish tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Maktabgacha ta'lim muassasalariga shifokorlar ajratish, tibbiyot hamshiralarining malakasini oshirish, tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun doridarmon, sanitariya-gigiyena vositalari bilan to'liq ta'minlash, bolalarning ovqatlanishini belgilangan me'yorlar darajasida tashkil etish zarurligi ta'kidlandi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida "Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga qabul qilish va navbatga qo'yish bo'yicha elektron dastur"ni joriy etish bo'yicha topshiriq berildi. Shuningdek, davlat maktabgacha ta'lim muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlanganlik va internet tarmog'iga ulanganlik holati tanqidiy o'rganilib, ularni bosqichma-bosqich zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta'minlash va internet tarmog'iga ulash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi.

Bir soʻz bilan aytganda, biz maktabgacha taʼlim sohasida har jihatdan zamonaviy tizim yaratishimiz kerak, dedi davlatimiz rahbari. Kelgusi 3-4 yilda 5-6 yoshdagi barcha bolalarni maktabgacha taʼlimga toʻliq qamrab olishga erishmogʻimiz shart. Bu ertangi kunimizni hal qiladigan masala va biz buni albatta amalga oshirishimiz shart. [7]

Maktabgacha taʼlim tizimida amalga oshirilishi lozim boʻladigan islohotlar va istiqboldagi vazifalar.

Maktabgacha taʼlim sohasiga qoʻyilgan vazifalarning sarhisobi va kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 dekabr kuni maktabgacha taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish va istiqboldagi vazifalarni belgilab olishga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishi oʻtkazildi.

Maktabgacha tarbiya taʼlim tizimining birlamchi va eng muhim boʻgʻini hisoblanadi. Sogʻlom genofondni, yetuk kadrlarni tarbiyalash, avvalo, shu tizimdan boshlanadi.

Biroq shu paytgacha bu tizim rivojlanishdan ortda qolgan edi. Oxirgi

20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha taʼlim muassasalari soni 45 foizga kamaygan. Oqibatda maktabgacha yoshdagi bolalarning 33 foizi bogʻchalarga qamrab olingan, xolos. Bu koʻrsatkich Daniyada 99 foiz, Yaponiyada 97 foiz, Janubiy Koreyada 95 foizni tashkil etadi.

Maktabgacha taʼlim muassasalarida bolalarni ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, fizio-psixologik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish boʻyicha taʼlim dasturlari joriy etilmagan.

Umuman, bogʻchalar “ota-ona ishda boʻlgan vaqtda bolaga qarab turadigan muassasa” ga aylanib qolgan.

Prezidentimiz mamlakat kelajagi va ravnaqida muhim oʻrin tutadigan bu sohaga alohida eʼtibor qaratmoqda. Mamlakatimiz hududlariga tashrifi chogʻida maktabgacha taʼlim muassasalarini kirib koʻrmoqda. Shavkat Mirziyoyev raisligida bu sohani rivojlantirish boʻyicha bir necha yigʻilishlar oʻtkazilgani ham ana shu eʼtibordan dalolat.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha taʼlim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi

Farmonida soha oldidagi dolzarb vazifalar va ustuvor yoʻnalishlar belgilab berildi. Shu kuni qabul qilingan Prezident qaroriga asosan, bu sohada alohida vazirlik — Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligi tashkil etildi.

Yangi vazirlik zimmasiga maktabgacha taʼlim muassasalari davlat va nodavlat tarmogʻini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali

pedagog kadrlar bilan ta'minlash, muassasalarga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari yuklandi. [8]

Bugungi kunda bu borada Davlat dasturi qabul qilinib, keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Vazirlikning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari tashkil etilib, joylardagi ahvolni yaxshilash, yangi bog'chalar qurish, jumladan, nodavlat bog'chalar tarmog'ini kengaytirishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Yig'ilishda tizimda amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Prezidentimiz maktabgacha ta'lim tizimidagi holatni hududlar kesimida tahlil qilib, o'z yechimini kutayotgan muammo va kamchiliklarga to'xtaldi. Xususan, joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalarida kadrlar ta'minoti va salohiyati yetarli emasligi, sohada 57 mingdan ortiq mutaxassislar mehnat qilayotgan bo'lsa-da, ularning 85 foizini o'rta ma'lumotli kadrlar tashkil etayotgani farzandlarimizni maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermayotgani ta'kidlandi.

Maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalar badiiy adabiyotlari yillar davomida yetkazib berilmagani, ota-onalarda bog'chaga nisbatan ishonch yo'qolgani, maktabgacha ta'lim tizimida yillar davomida ko'plab muammolar yig'ilib qolgani tanqid ostiga olindi.

Shuningdek, ko'pgina mahalliy hokimliklar tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati uchun zarur sharoit yaratilmagani, bog'cha binolari bo'm-bo'sh turgani, ulardan samarali foydalanish yo'lga qo'yilmaganiga alohida e'tibor qaratilib, mutasaddi rahbarlarning bu boradagi hisobotlari tinglandi.

Yig'ilishda qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida 2018 yilning birinchi yarmida amalga oshirilishi lozim bo'lgan qator strategik vazifalar belgilab berildi.

Birinchiidan, 2017 - 2021 yillarga mo'ljallangan Dastur asosida bog'chalar qurish va rekonstruksiya qilish ishlari jadal davom ettirilishi ta'kidlandi.

2018 yil Davlat budjetidan 427 bog'chada qurilish-ta'mirlash ishlarini bajarish uchun 771 milliard so'm mablag' ajratish (jumladan, 14 tasini yangidan qurish, 256 tasini rekonstruksiya qilish va 157 tasini kapital ta'mirlash) bo'yicha topshiriq berildi.

Bu jarayonda zamonaviy qiyofaga ega bo'lgan 50, 100 va 150 o'rinli bog'cha binolari loyihalari qisqa muddatda qayta ishlab chiqilishi va bunda hududlar sharoiti hisobga olinishi, inshootlar qishda issiq, yozda salqin bo'lishi, bolalarning yuvinishi, ovqatlanishi, mashg'ulot o'tkazishi, o'ynashi, uxlashi uchun barcha sharoit yaratilishi, oshxona alohida joylashishi, eng asosiysi, yangi binolar qurilishida bolalarga ta'lim-

tarbiya berish jarayonini tashkil etish bo'yicha qo'yilayotgan talablar qat'iy inobatga olinishi lozimligi ta'kidlab o'tildi.

Ikkinchidan, davlat-xususiy sherikchilik asosida yangi turdagi maktabgacha ta'lim muassasalarini faol tashkil etish kerakligi qayd etildi. Bu masalada eng muhim muammo — sarmoya ekanligini hisobga olib, tashkil etiladigan nodavlat ta'lim muassasalariga har tomonlama ko'maklashish, kerakli kredit mablag'larini ajratish uchun har bir viloyatga tijorat banklari birlashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari zimmasiga bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish darajasini keskin oshirish bo'yicha hududiy dasturlar ishlab chiqish, bunda har bir tuman va shaharda 10 — 15 ta yangi, jumladan, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi asosida maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish vazifasi yuklatildi.

Xususiy bog'chalarga katta imtiyozlar berilgani, jumladan, 2018 yil 1 yanvardan boshlab, 5 yil davomida xususiy bog'chalar tomonidan tabiiy gaz va elektr energiyasi uchun sarflanadigan mablag'ning yarmi Davlat budjeti hisobidan qoplanishi ta'kidlandi. Bu ularga to'lanadigan to'lovlar oshib ketmasligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, bog'chalarda bolalarni sog'lom ovqatlantirish va ularga berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarurligi qayd etildi. Shundan kelib chiqib, buning uchun ajratilayotgan mablag' miqdorini oshirish chorasini ko'rish yuklatildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklariga 2018 yildan boshlab har bir maktabgacha ta'lim muassasasiga 10 — 15 nafar fermerni sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib berish uchun birlashtirish topshirildi.

Bolalar bog'chalariga tayyor sifatli issiq ovqat yetkazib beradigan davlat korxonasi tashkil etish va "Ketrinq" xizmatini yo'lga qo'yish mexanizmini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

To'rtinchidan, bog'chalarda ta'lim-tarbiya va tibbiy xizmat sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, 2018 yili maktabgacha ta'lim muassasalarini Janubiy Koreya tajribasi asosida uslubiy va didaktik o'yinlar, o'yinchoqlar, mebel va boshqa texnik vositalar bilan ta'minlash me'yorlari ishlab chiqiladi.

Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari, ta'lim-tarbiya dasturlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, ularda bolalarga o'qish va yozishni turli o'yinlar orqali o'rgatishni nazarda tutish lozimligi ta'kidlandi.

Yuqori malakali tarbiyachi va murabbiy kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, bu borada Maktabgacha ta'lim vazirligi

tizimida Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti faoliyati takomillashtirilishi qayd etildi.

Mazkur institutda zamonaviy qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini yo'lga qo'yish orqali tizimdagi rahbar va pedagog kadrlar salohiyatini uzluksiz oshirib borish, shuningdek, ilg'or pedagogik usul va uslublar ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etishni tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim uchun kadrlar tayyorlaydigan institutlarning qabul kvotalarini real ehtiyojdan kelib chiqib belgilash hamda maktabgacha ta'lim pedagoglariga qo'yiladigan talablarni qayta ko'rib chiqish topshirildi.

Beshinchidan, maktabgacha ta'lim sohasini takomillashtirish bo'yicha xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish vazifasi qo'yildi. Jumladan, Jahon bankining Ta'limda global hamkorlik tashkiloti bilan hamkorlikda "Bolalarni ilk yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish" loyihasi doirasida 2019 — 2022 yillarda 10 million dollar miqdoridagi grant va 50 million dollar miqdoridagi imtiyozli kreditni maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirish bo'yicha loyiha konsepsiyasi ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Oltinchidan, maktabgacha ta'lim sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar bazasini tubdan takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasi va Maktabgacha ta'lim vazirligiga ilg'or xorijiy tajriba asosida "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish topshirildi.

Yettinchidan, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasiga tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda bog'chalarni qurish va rekonstruksiya qilish ishlarini loyihalashni tubdan qayta ko'rib chiqish yuklatildi.

Maktabgacha ta'lim sifati — ertangi kunimizni hal qiladigan masala. Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish faqatgina yangi tashkil etilgan vazirlikning vazifasi emas. Bu Prezident, Bosh vazir va uning o'rinbosarlaridan boshlab, tuman hokimi, eng quyi idora rahbarigacha — barchamizning eng muhim vazifamiz bo'lishi kerak, dedi davlatimiz rahbari.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini Janubiy Koreya tajribasi asosida isloh qilish jarayonlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga 2017 yil 22-25 noyabr kunlari davlat tashrifi doirasida Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan 20 ga yaqin uchrashuvlar o'tkazilib, tajriba almashinuvi, O'zbekistonda eksperimental tarzda bolalar bog'chalarini ochish, birgalikda kadrlar tayyorlash va ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatlarini o'rganib chiqish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Safar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan Koreyaning qator maktabgacha ta’lim va boshqa turdagi muassasalariga tashriflar uyushtirildi va ularning faoliyati o‘rganildi, jumladan bog‘chalarning o‘ziga xos jihatlari, qo‘llanilayotgan ta’lim berish uslublari, moliyalashtirish va to‘lov tizimlari, pedagogik xodimlarning malaka darajasi va xizmat sharoitlari, oziq-ovqat va moddiy-texnik ta’minot hamda sohalariga tegishli dasturlar va uslublar atroflicha o‘rganildi.

Pedagoglar faoliyati uchun maksimal qulay sharoitlarning yaratilgani, pedagogning ijodiy erkinligi, katta hajmdagi hisobotlarning yo‘qligi, davlat bog‘chalari pedagoglari ijtimoiy statusining yuqoriligi, bolalar o‘zlarini namoyon qilishlari uchun yaratilgan ijodiy muhit, jumladan xonalarning hatto kichik detallarigacha qulay dizayni va jihozlangani, ular uchun boy adabiyotlar va rivojlantiruvchi o‘yinlarning mavjudligi, erta bolalikdan jamiyatda o‘zini tutish va shaxsiy gigiyena ko‘nikmalarini tarbiya qilish kabi alohida jihatlari Koreya maktabgacha ta’lim tizimi muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi.

Alohida e’tibor qaratish lozim bo‘lgan yana bir jihat, davlat jamiyatning eng himoyalangan qatlamlari, kam ta’minlangan oilalar va nogiron bolalarga, birinchi navbatda g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi va bog‘chalarga qabul davomida ularga ustuvorlik prinsipini qo‘llaydi va shu sababli ham, Koreyada inklyuziv ta’lim prinsiplari tahsinga sazovordir.

Koreyaning ta’lim tizimiga kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan va tasarrufida maktabgacha ta’lim muassalari bo‘lgan oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Sanmyong Universiteti, (Sangmyung University) hamda Chung-Ang Universiteti (Chung-Ang University) bilan Hadli kelishuvlar imzolandi, shuningdek Chonnam Milliy Universiteti (Chonnam National University) bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Kelishuvlar va Memorandum doirasida quyidagi sohalaridagi hamkorlik nazarda tutilgan: talabalar, ilmiy-pedagogik va boshqaruv mutaxassislari o‘rtasida tajriba almashinuvlari, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishga qaratilgan choralar, jumladan eng yangi dasturlar va uslublarni joriy qilish, hamkorlikda tadqiqotlar, konferensiyalar, ko‘rgazma va seminarlarni amalga oshirish, maktabgacha ta’lim mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha maxsus qo‘shma magistrlik va doktorlik dasturlarini tashkil etish, shuningdek O‘zbekistonda eksperimental ravishda Koreya tizimiga asoslangan eksperimental bog‘chalarni tashkil etish kabi muhim vazifalar nazarda tutilgan.

Maktabgacha ta’lim vazirligi delegatsiyasining Koreya Respublikasiga tashrifi davomida bolalarning erta rivojlanishi va maktabgacha ta’lim tizimi sohasiga

ixtisoslashgan nufuzli ilmiy-tadqiqot institutlari bilan uchrashuvlar ham o'tkazildi. Jumladan, 2017 yilning 23 noyabr kuni Koreya bolalar parvarishi va maktabgacha ta'lim masalalarini o'rganish Instituti (KICCE) bilan Hadli kelishuv imzolandi. Kelishuv doirasida Maktabgacha ta'lim vazirligi va KICCE hamkorligida qo'shma tadqiqotlar o'tkaziladi, pedagogik kadrlarni tayyorlash orqali tajriba almashinuviga qaratilgan dasturlar amalga oshiriladi, seminarlar va konferensiyalar tashkil etiladi. Shu bilan bir qatorda hamkorlik asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalarining ishlab chiqilishi, ta'lim dasturlari va standartlarining qayta ko'rib chiqilishi, ta'lim statistikasini joriy qilish nazarda tutilgan.

Seul bolalarni erta rivojlantirishga ko'maklashish Instituti (Seoul Early Childhood Education Promotion Institute) bilan 2017 yilning 22 noyabr kuni o'tkazilgan uchrashuv chog'ida qo'shma tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba almashinuvi, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatini beruvchi hamkorlikdagi ilmiy-amaliy tadqiqot muassasalarini tashkil etish, o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlash borasida kelgusida hamkorlik bitimlarini imzolash kelishib olindi.

Yana bir samarali uchrashuv – Maktabgacha ta'lim vazirligining eng muhim salohiyatli hamkori – Koreya Respublikasi Ta'lim vazirligining Maktabgacha ta'lim va bola parvarishi Departamentida bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Koreya tomoni O'zbekiston delegatsiyasiga Koreyada maktabgacha ta'lim va bola parvarishi bosqichlari, sohani rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish prinsiplari, yangi NURI maktabgacha ta'lim Milliy dasturini joriy qilish jihatlari haqida ma'lumot berdilar. Shuningdek, to'lov tizimlari, ta'lim muassasasi turidan kelib chiqqan holda narxlarni belgilash prinsiplari, Davlatning maktabgacha ta'limga yo'naltirayotgan harajatlari, shuningdek istiqboldagi rejalar, jumladan, maktabgacha ta'lim strukturasi Davlat bog'chalari ulushini kengaytirish, elektron qabul tizimini joriy qilish, pedagoglar malakasini oshirish hamda sohani takomillashtirish tendensiyalari haqida ham ma'lumotlar berildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Koreya Respublikasining tajribasi albatta e'tiborga molik va ishonamizki, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlarida bu boradagi Koreya modeli elementlari albatta o'z aksini topadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
2. “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
3. “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentabrdagi PQ-3276-sonli Qarori.
4. “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi PQ-3305-sonli Qarori.
V.S.Begidov, V.N.Seluyanov (1993)lar 15-17 yoshlm dzyudochilar ilmiy tadqiqot o'tkazib 2 jadvalda ko'rsatilgan mazmundagi trenirovka mikrosiklini qullash oqibatida kuch tayyorgarligini qisqa muddatda o'sishiga erishdilar.

NATIJALAR

Yakuniy malakaviy ish mavzusi yuzasidan o'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari voleybol bilan endi shug'ullanishni boshlagan 10-11 yoshli bolalarda maxsus tezkorlik sifati nafaqat talab darajasida emasligi, balki kuzatilgan ko'rsatkichlarni sport bilan shug'ullanmaydigan bolalar ko'rsatkichlaridan ham past ekanligini namoyon etdi (1 jadval). Jumladan, tik turgan holatdan 30m ga yugurish ko'rsatkichlari pedagogik tajribadan oldin nazorat guruhida ham, tajriba guruhida ham talabga javob bermasligi ma'lum bo'ldi. Xususan nazorat guruhida bu ko'rsatkich 5,8s, tajriba guruhida – 5,9 ga teng bo'ldi.

1-jadval

10-11 yoshli voleybolchilardan iborat nazorat (n) va tajriba (t) guruhlarida tezkorlik sifatini 6 oylik pedagogik tadqiqot davomida rivojlanishi.

Meyyoriy mashq	Tajriba oldin		Tajribadan so'ng	
	n	t	n	t
30m gayugurish (s)	5,8 ± 0,6	5,9 ± 0,9	5,4 ± 0,7	5,0 ± 0,8
4x6m ga yugurish	7,0 ± 0,9	7,1 ± 0,7	6,7 ± 0,4	6,2 ± 0,6

4x6 m ga mokkisimon yugurish – nazorat guruhida–7,0 s, tajriba guruhida - 7,1 s ni tashkil etadi.

Pedagogik tajriba muddati tugaganidan so'ng amaldagi dastur asosida shug'ullangan nazorat guruhida 30m ga yugurish 5,8 s dan 5,4 s gacha tezkorlik sifati yaxshilandi.

Tajriba guruhida bu ko'rsatkich 5,9 s dan 5,0 s gacha ijobiy tomonga o'zgardi. 4x6m ga mokkosimon yugurish birinchi guruhda – 7,0s dan 6,7s ga yaxshilangan bo'lsa, ikkinchi, tajriba guruhida ushbu ko'rsatkich 7,1 s dan 6,2s ga o'zgardi. Demak, pedagogik tajriba davomida qo'llanilgan tezkorlikka oid estafetali – uyin mashqlari o'ta samarali qiymatga ega ekanligi isbotlandi. Shuni ham alohida e'tirof etish joizki, tajriba guruhiga mansub bolalarda nazorat guruhiga qaraganda nafaqat mokkisimon yugurish texnikasi tezsuro'atlar bilan shakllana boradi, balki ularda shu mashqni ijro etish koordinatsiyasi ham progressiv yo'nalishida o'zlashtirayotganligi kuzatildi.

MUHOKAMA.

Yuqori qayd etilgan pedagogik tajriba natijalari sinab ko‘rilgan estafetali-o‘yin mashqlari faqatgina sakrovchanlik va maxsus tezkorlik sifatlarini samarali va rivojlantirib qolmay, shu sifatlar asosida ijro etishi kerak bo‘lgan o‘yin malakalarini ham unumli sayqal topishiga imkon yaratdi. Binobarin, jismoniy va texnik tayyorgarlikning chambarchas bog‘liqligi hamda bu jarayonlarga oid mashqlar majmualariga dastlabki o‘rgatish bosqichidan boshlab bir-biriga birlikkan holda qo‘llash texnologiyasi o‘zining nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy jihatlardan qanchalik dolzarb ekanligi oshkor bo‘ldi.

Umuman olganda, yana shu narsani alohida ta‘qidlash joizki, dastlabki tayyorgarlik guruhlarida shug‘ullanayotgan bolalarning o‘quv- trenirovka jarayonida pedagogik nazorat ishlarini olib borilishi, ular bajarayotgan har bir mashqlarga adolatli baho berish shu bolalarda o‘ta qiziquvchanlik, faollik fazilatlarini charhlar ekan, mashg‘ulotlarga ijodiy va mas‘uliyat bilan yondoshishlariga asos bo‘lar ekan.

XULOSA.

Ishda ko‘rib chiqilgan adabiyotlar tahlili shundan adolat beradiki, ko‘p yillik sport trenirovkasi jarayonida yuqori malakali voleybolchilarni tayyorlash ustivor jihatdan jismoniy sifatlarini rivojlantirish sur‘atiga bog‘lik. Ya‘ni ushbu sifatlar qanchalik shakllangan bo‘lsa, shug‘ullanuvchilarning yoshidan qat‘iy nazar texnik-taktik mahoratining o‘shish darajasi shunchalik samarali kechadi.

Bu borada sakrovchanlik va maxsus tezkorlik sifatlarini texnik-taktik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari bilan uzviy bog‘liqligi hamda mazkur sifatlar sport mahoratini progressiv taraqqiy etishida muhim rol o‘ynashi yana bir bor e‘tirof etildi.

Tezkorlik – kuch-sakrovchanlik sifatlarini tarbiyalashda nostandart o‘yin mashqlarini qo‘llash tajribasini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki respondentlarning aksariyat qismi yosh voleybolchilarni tayyorlashda NO‘Mlaridan deyarli foydalanmas ekanlar.

Nazorat guruhiga mansub bolalar bilan amaldagi BO‘SM dasturi asosida o‘tkazilgan 6 oylik mashg‘ulotlar boshida va yakunida o‘rganilgan sakrovchanlik va maxsus tezkorlik sifatlarini sust rivojlanganligi kuzatildi.

Shu muddat davomida tajriba guruhida sakrovchanlik va maxsus tezkorlik sifatlarini rivojlantirish maqsadida qo‘llanilgan estafetali- o‘yin mashqlari qayd etilgan sifatlarini tez sur‘atlar bilan rivojlanishiga olib keldi.

Sinab ko‘rilgan sakrovchanlik va maxsus tezkorlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan estafetali-o‘yin mashqlari an‘anaviy standart mashqlaridan ustun ekanligi hamda estafetali-o‘yin mashqlar o‘zining emotsional mohiyati tufayli mazkur sifatlarini

samarali rivojlantirish qiymatiga ega ekanligi ilmiy jixatdan asoslanadi. Yuqori malakali voleybolchilarni tayyorlash bilan bo'lgan ko'p yillik trenirovka jarayonida yuqori qayd etilgan estafetali-o'yin mashqlarini muntazam qo'llash nafaqat sakrovchanlik va maxsus tezkorlik sifatlarini unumli shakllantirishga imkon yaratadi, balki shu asosda texnik-taktik mahoratni qisqa muddatlarda osonroq takomillashuviga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Usmonxodjaev T.S. va boshqalar. Bolalar va o'smirlar sporti mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyatlari. 2005 y. Toshkent.

2. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A., Isroilov Sh.X. Voleybol. // Oliy o'quv yurtlari umumiy kurs talabalari uchun o'quv qo'llanma. –T., 2009. – 77 b.

3. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. –T.: "Fan va texnologiya", 2012. – 208 b.

4. A.T.Hasanov va R.M.Toshpo'latov 2022. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARDA Jismoniy tarbiya VA SPORTNI RIVOJLANISH METODIKASINI TAKMORLASH. Akademik tadqiqotlar va ta'lim fanlari tendentsiyalari jurnali . 1, 7 (2022 yil iyun), 95–99.

5. Hasanov AT, Mamanazarova AB OILADA BOLALARNI SOG'lom turmush tarzini shakllantirish USULLARI //O'quv fanlaridagi akademik tadqiqotlar va tendentsiyalar jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 7. – S. 6-9.

6. Hasanov A. T., Mamanazarova A. B. WRESTLING PREPARATION PROCESS IN SPORTS SCHOOLS //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 3. – C. 174-176.

7. Hasanov, A. T., S. D. Akzamov, and D. T. Abduraimov. "Pedagogical technology in professional-practical physical training of students of the faculty of military education." INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.10 (2022): 148-156.

8. Hasanov A. Primary school students training movement games in physical education classes: primary school students training movement games in physical education classes //Физическое воспитание, спорт и здоровье. – 2022. – T. 2. – №. 2.

11-15 YOSHLI SUZUVCHILARNING MASHG‘ULOT YUKLAMALARINI REJALASHTIRISH XUSUSIYATLARI

Hasanov Anvar Toxirovich

JDPU. Jismoniy madaniyat fakulteti, katta o‘qituvchisi

Asqarova Zaynura

Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi

anvarhasanov11111@gmail.com

***Annotatsiya.** Bolalar o‘smirlar sport maktablari tarbiyalanuvchilari mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish tayyorgarligini interfaolmetodlar orqali takomillashtirishdan iborat.*

***Kalit so‘zlar:** Yosh suzuvchilar, jismoniy tarbiyalash, texnik-taktik tayyorgarlik, suzish, musobaqa.*

ОСОБЕННОСТИ ПЛАНИРОВАНИЯ ТРЕНИРОВОЧНОЙ НАГРУЗКИ ПЛОВЦОВ 11-15 ЛЕТ

***Анотация.** Он заключается в повышении готовности к планированию тренировочной нагрузки детско-юношеских спортивных школ интерактивными методами.*

***Ключевые слова:** Юные пловцы, физическая подготовка, технико-тактическая подготовка, плавание, соревнование.*

FEATURES OF PLANNING THE TRAINING LOAD OF SWIMMERS aged 11-15

***Abstract.** It consists in increasing the readiness for planning the training load of children’s and youth sports schools by interactive methods.*

***Key words:** Young swimmers, physical training, technical and tactical training, swimming, competition.*

KIRISH

Mamlakatimizda bo‘lajak avlodni ma’naviy va jismoniy jihatdan etuk qilib tarbiyalash negizida barkamol, etuk shaxsni shakllantirish masalasi ta’lim sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosini tashkil qiladi va u davlat siyosati darajasigacha ko‘tarilgan.

Suzish eng ommabop va jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan sport

turlaridan biri hisoblanadi. Bu suzish mashqlarining inson organizmiga, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod organizmiga nisbatan butkul sog' lomashtiruvchi va umum rivojlantiruvchi ahamiyati bilan belgilanadi.

Hozirda jahon sport sohasida suzishning rivojlanishi, ushbu turning o'sib borayotgani, suzuvchilar tayyorgarligining muntazam takomillashayotgan mashg'ulot yo'nalishlarini o'zgartirish zaruriyatini taqozo etadi.

Suzishda natijalarning yanada o'sishi yirik musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashish imkoniyati yuqori malakali va zaxira sportchilarni tayyorlash jarayonini

takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Olimlardan A.K. Smimov (O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy), V.N. Mixaylov, P.M. Borodkin, N.T. Shuljenko, N.M. Kofer va V.T. Bondarenko, A.K. Smimov, U.S. Bektemirov, F.I. Raximov, O.K. Adamanov kabi olimlar va yetakchi mutaxassislar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Obyektiv jarayon bo'lishiga qaramay, bolalar va o'smirlarda sport formasining rivojlanishi o'spirinlar va kattalarga nisbatan ancha yaqqol namoyon bo'lmaydi. Shuning uchun BO'SM larining amaliyotida yillik tuzilma musobaqalar taqvimiga qarab moslashtiriladi. Biroq boshqa tomondan, yillik tuzilma yilning asosiy vazifalarini hal eta oladigan darajada tuzilishi kerak.

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarida uchun yillik tuzilma shunday tuziladiki, bunga jismoniy yuklamalar mashg'ulotdan mashg'ulotga, ya'ni texnik harakatlar egallab borilishiga qarab oshib boradi, shuningdek, topshiriqlar hajmi ko'payadi.

NATIJALAR

Nazorat va tajriba guruhlarida yosh suzuvchilarida o'rtacha ko'rsatkichlar.

1– Jadval

№	Kursatkichlarni nomi	Nazorat guruxi			Tajriba guruxi		
		Dastlabki xolat	Yakuniy tekshiruv	t xisobi	Dastlabki xolat	Yakuniy tekshiruv	T xisobi
1.	50m masofa ni suzish vaqti	32,4±3,16	29,6±2,5	1,7	33,1±3,24	26,0±2,1	3,6
2.	100 m masofa ni suzish vaqti	69,4±7,4	64,2±5,3	1,22	7,4±4,72	59,4±4,0	3,12
3.	400 m masofa ni suzish vaqti	304±27	296±27	0,81	302±31,3	278±23,3	2,21
4.	1500 m masofa ni suzish vaqti	1208±73,9	1192±79,3	0,8	1214±81,0	1101±63,3	2,63
5.	Suvda tortish kuchi o'lchash to'liq koordi natsiyada (kg)	15,2±2,92	16,3±3,42	0,7	15±3	21,4±3,3	2,35

Oktabr va noyabr oyida jismoniy sifatlarni suvda o'tkazilgan maxsus test natijalari keltirilgan.

Tezlik sifatni aniqlash uchun tajriba guruhdagi 50, 100, 400, 1500 m masofani suzib o'tish ko'krakdagi krol usulida o'rtacha natijalari o'sishi: 50m -3,6; 100m – 3,12; 400m – 2,21; 1500m – 2,63; suvda tortish kuchi – 2,35 teng.

Nazorat guruhida esa 50, 100, 400, 800 1500 m masofani suzib o'tish ko'krakdagi krol usulida o'rtacha natijalari o'sishi 50m – 1.7; 100m- 1,22; 400m – 0,81; 1500m – 0,8; suvda kuch torti – 0,7 teng.

Pedagogik tajriba natijalari shu narsani isbotladiki UJT va MJT rivojlantirish qo'lashda samaradorligi uslubiyati yesh suzuvchilarning ukuv-trenirovka jaraenida amalga oshirildi. Tajriba guruxi suzuvchilarda umumiy va maxsus jismoniy taergarlik bo'ycha ko'rsatkichlarni o'sishi nazorat guruhiga nisbatan 20% gacha va uni xakonliligi ($P<0,05$) tashkil etgan.

MUHOKAMA.

Ko'p yillik sport mashg'ulotining qaysi bir tayyorgarlik bosqichi bo'lishidan qat'iy nazar umumiy va maxsus jismoniy mashq ko'nikmalariga o'rgatish doimo ustivor fundamental bosqich bo'lib, unda jismoniy barkamollik zaxirasi kengaytiriladi va sport mahoratiga asos solinadi.

Suzuvchilarga xos umumiy va maxsus jismoniy mashqlarga o'rgatish samaradorligi, o'rgatish bosqichlari, uslublari va vositalarini didaktik printsiplar hamda muvofiq yo'nalishda o'tkaziladigan ilmiy tadqiqot natijalari asosida qo'llash bilan belgilanadi.

Texnik-naktik harakatlarning serqirrali va jismoniy – texnik imkoniyatlar zaxirasini ta'minlash hamda ularni turli vaziyatlarga nisbatan barqarorligini (turg'unligini) shakllantirish ustivor jihatdan samarali qiymatga ega umumiy va maxsus mashqlardan unumli foydalanish sura'tiga bog'liq bo'ladi.

Yosh suzuvchilarni sport turiga qiziqishini oshirish va iqtidorlilarni saralab olishning ahamiyati va jismoniy sifatlarni o'zlashtirish hamdaularni shakllantirishda qo'llaniladigan umumiy va maxsus jismoniy mashqlarni takomillashtirib borilishi tadqiqot natijalariga asoslanib shu mashqlarni o'zlashtirish hamda ularni yuksak mahorat bilan ijro etish imkoniyatini yaratadi.

XULOSA

Maxsus adabiyotlarni taxlil qilish buyicha materiallar va ko'rsatilgan natijalar bizga quydagi xulosalarni chiqarish imqonini berdi. Ya'ni umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'ycha chuqurulashtirilgan maxsus tayyergarlikni oshirilishi uning samaradoligi bilan aniqlanadi.

2. O'tkazilagan pedagogik tadqiqot o'smir yoshdagi suzuvchi bolalarning tayergarlik jaraenida yuklamalarni to'g'ri tanlanganligi xamda ularni jismoniy tayergarligini aniqlashda axborot va diagnostika usular orqali olingan ma'lumotlar asosida mashg'ulotlarni tashkil qilish jismoniy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.

3. Tajriba yo'li bilan shu narsa aniqlandiki yesh suzuvchilarni sport texnik-taktik va jismoniy tayergarlik xolati to'g'risida yukori darajadagi axborotga boy ma'lumotlarni asosan kontrol testlar xizmat kiladi.

- masofani suzib o'tish vaqti 50 m, 100 m, 400 m, 1500 m;

- 10 sekund davomida (maksimal yuklama kuvatida)suvda tortish kuchini o'lchash 4. Pedagogik tajriba natijalari shu narsani isbotladiki UJT va MJT rivojlantirish, qo'llashda samaradorligi uslubiyati yesh suzuvchilarning o'quv-trenirovka jaraenida amalga oshirildi. Tajriba guruhi suzuvchilarda umumiy va maxsus jismoniy tayergarlik bo'yicha, xamda sport natijalari bo'yicha ko'rsatkichlarni o'sishi nazorat guruxiga nisbatan 20% gacha va uni xakonliligi ($P < 0,05$) tashkil etgan

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Соби́рова О.А. Сузиш. Т., Ибн Сино, 1993
2. Содиқов А.Ф Планирование тренировочных нагрузок избранной направленности в спортивном плавании . \ Тошкент, ЎзДЖТИ, 2008г.
3. Содиқов А.Ф . Интесификация процесса юных пловцов учебно тренировочных групп . 13 – 15 лет \ дисс. Канд. пед. наук – Т., 2009
4. А.Т.Ҳасанов ва Р.М.Тoшпо'латов 2022. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARDA Jismoniy tarbiya VA SPORTNI RIVOJLANISH METODIKASINI TAKMORLASH. Akademik tadqiqotlar va ta'lim fanlari tendentsiyalari jurnali . 1, 7 (2022 yil iyun), 95–99.
5. Hasanov AT, Mamanazarova AB OILADA BOLALARNI SOG'lom turmush tarzini shakllantirish USULLARI //O'quv fanlaridagi akademik tadqiqotlar va tendentsiyalar jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 7. – S. 6-9.
6. Hasanov A. T., Mamanazarova A. B. WRESTLING PREPARATION PROCESS IN SPORTS SCHOOLS //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 3. – C. 174-176.
7. Hasanov, A. T., S. D. Akzamov, and D. T. Abduraimov. "Pedagogical technology in professional-practical physical training of students of the faculty of military education." INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.10 (2022): 148-156.
8. Hasanov A. Primary school students training movement games in physical education classes: primary school students training movement games in physical education classes //Физическое воспитание, спорт и здоровье. – 2022. – Т. 2. – №. 2.

QO‘L TO‘PICHI O‘QUVCHI YOSHLARNING TEZKORLIK VA CHAQQONLIK JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Tojiboyev Aziz Rahmatilla o‘g‘li

JDPU. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari
nazariyasi va metodikasi yo‘nalishi 2-kurs magistranti
anvarhasanov11111@gmail.com

***Annotatsiya.** Umumta’lim maktabining 14-16 yosh o‘quvchilarini qo‘l to‘pi o‘yinida tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish va uni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy, amaliy asoslangan tavsiyalar berish.*

***Kalit so‘zlar:** yosh qo‘l to‘pichilar, jismoniy tarbiyalash, yugurish, sakrash, tezkorlik, chaqqonlik sifatleri.*

ПУТИ РАЗВИТИЯ БЫСТРОТЫ И ЛОВКОСТИ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ГАНДБОЛИСТОВ

***Абстрактный.** Предоставление научно-практических рекомендаций по развитию качеств быстроты и ловкости в игре в гандбол у учащихся 14-16 лет общеобразовательной школы и дальнейшему их совершенствованию.*

***Ключевые слова:** юные борцы, физическая подготовка, бег, прыжки, быстрота, ловкость.*

WAYS TO DEVELOP QUICKNESS AND AGILITY PHYSICAL QUALITIES OF HANDBALL STUDENTS

***Abstract.** Providing scientific, practical recommendations on developing the qualities of quickness and agility in the game of handball for 14-16-year-old students of the general education school and further improving it.*

***Key words:** young wrestlers, physical training, running, jumping, quickness, agility qualities.*

KIRISH

Umumta’lim maktablarida yosh qo‘l to‘pi bilan shug‘ullanuvchilarni tayyorlashda sport to‘garaklari va musobaqalarini tashkil qilish va o‘tkazish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, milliy genafondni yanada sogʻlomlashtirish, xar tomonlama etuk barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri deb belgilangan. Qisqa muddatda bu sohada olib borilgan keng koʻlamli amaliy harakatlar oʻz samarasini bera boshlagan.

Ayniqsa bolalar va oʻsmirlar sportining ommaviy turlarini keng targʻib qilishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida tub oʻzgarishlar amalga oshirilayotgan bir paytda jismoniy tarbiya va sportni samarali boshqarish va uni jamiyatimiz manfaatlari yoʻlida foydalanish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish taqozo etilmoqda. Bu boradagi faollik milliy maʼnaviyatimiz va madaniyatimiz, jumladan, jismoniy tarbiya hamda sport sohasidagi ishlarimizni yuksak darajaga koʻtarishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Oʻzbekistonda qoʻl toʻpini rivojlanishida F. Abdurahmonov, Sh. Pavlov, E.Sieytxalilov, O.Abdualimov, J.Akramov, M. Jukov, B. Pikin, V. Ogirenko, M. Sirotenko, M. Magdullin, A. Oleynikov, N. Rahmatov, A. Pantasenko, V. Kaplinskiy, Ye. Golovchenko, V. Konaplev, V. Izaak va boshqa ustoz murabbiylarni mehnatlari juda yuqoridir.

Mavzu boʻyicha F. Abdurahmonov, Sh. Pavlov, E.Sieytxalilov, O.Abdualimov, J.Akramov, L.P.Matveev, M.Ya.Nabatnikova, V.N.Platonov, F.P.Suslov, V.P.Filin, E.I.Ivaxin, A.M.Ivashchenkova, V. Ya. Ignatieva, L. A. Latyshkevich, V. I. Txorev kabi olimlar va yetakchi mutaxassislar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Bugungi kunda qol topi bilan shugullanuvchi oʻquvchilarni har tomonlama, jumladan, jismoniy, texnik-taktik, psixologik hamda jismoniy tarbiyalash boʻyicha ham ularni mashgʻulot jarayonida harakat uygʻunligini ham yuksaltirish va aynan oʻzi shugʻullanayotgan qoʻl toʻpi sport turidan amaliy ham nazariy bilimlarga ega boʻlishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois ushbu masala va muammo yuzasidan nafaqat oʻzbek mutaxassislari balki chet el mutaxassislari ham koʻplab ilmiy izlanish va ilmiy maqolalari aynan ushbu masalalarga bagʻishlangan.

NATIJALAR

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat;

- 14-16 yosh gandbolchilarning tezkorlik jismoniy sifatlarini rivojlantirish yangi tenologiyalar asosida olib borildi;
- 14-16 yosh gandbolchilarning chaqqonlik sifatini rivojlanishda milliy harakatli oʻyinlardan keng foydalanildi;

- yosh gandbolchilarning tezkorlik va chaqqonlikka oid taktik elementari asoslanadi, ularning o'ziga xos metodikasi yaratildi va mashq jarayoniga tadbiiq etildi;

- ishlab chiqilgan mashqlar majmuyi asosida yosh gandbolchilarning tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini 40-44% ga o'sdi.

Bevosita olingan natijalarni tahlil qilish asosida uning amaliyotga tadbiiq etilishida o'z ifodasini topdi. Olingan natijalarga ko'ra 14-16 yosh gandbolchilarni tarbiyalashda tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini oshirishda ularning jismoniy va taktik tayyorgarligi bilan birgalikda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari pedagog va murabbiylardan o'z kasbini yetuk mutaxassisi bo'lishdan tashqari psixologik va pedagogik bilim va tajribaga ega bo'lishi kerak.

MUHOKAMA.

Umumta'lim maktabida qol to'pi bilan shug'ullanuvchi o'quvchi-sportchilar bilan olib borilgan suhbatlar mashqlar va treninglar ijobiiq natija berilganligi aniqlandi. Olib borilgan ilmiy ishlar natijasidan shu narsa ayon bo'ldiki, qo'l to'pi bilan shug'ullanuvchi to'garak mashg'ulotlarini tashkillashda, musobaqalar o'tkazishda, o'quv trenirovka jarayonlarida umumta'lim maktablari o'quvchilarini tezkorlik va chaqqonlikka oid o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratishda, umumta'lim maktab dasturini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

14-16 yosh **qo'l to'pichilar** tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini mashg'ulotlar orqali yanada takomillashtirdi

- jismoniy yuklamalarni to'g'ri va samarali tarzda olib borilsa;
- jismoniy va texnik tayyorgarligi rivojlantirilsa;
- mashg'ulot jarayonida turli pedagogik metodlarni qo'llanilsa;

14-16 yosh **qo'l to'pichilariga** xos texnik harakatlanish tezligi va chaqqonligini to'p uzatish aniqligini birgalikda shakllantiruvchi maxsus vaziyatli mashqlar majmuasini ishlab chiqilsa;

Yuqoridagilar 14-16 yosh gandbolchilarning tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlanish dinamikasini rejalashtirish va nazorat qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, o'yinda turli funktsiyalarni bajaradigan yosh o'yinchilarning tayyorgarligidagi farqlar va o'xshashliklarni bilish ularning takomillashtirish o'ziga xos ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Qolaversa, murabbiy gandbolchilarning tayyorgarligidagi xususiyatlari qaysi yoshda aniqlanganligini, yosh qolto'pichilarning tezlik, chaqqonlik jismoniy holatining o'sishini qaysi mezonlarga ko'ra nazorat qilishini bilishi kerak.

XULOSA.

Maktabdagi gandbol darslarida reaksiya qilish vaqtini oldindan shartlashilgan turli-tuman signallarga reaksiya qilishni talab qiluvchi (masalan, to'xtalishlar bilan bajariladigan erkin yugurishlar yoki o'qituvchi signali, buyrug'i bilan yugurish yo'nalishini o'zgartirish) mashqlarni yordamida rivojlantiriladi. Sport o'yinlari reaksiya qila olish va uni tarbiyalaydigan eng yaxshi vositadir.

Yosh gandbolchilar tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishda o'yin va mashg'ulot jarayoniga tayyorlashda harakat uyg'unligini, texnik tayyorgarligini oshirishda:

- jismoniy yuklamalarni to'g'ri va samarali tarzda olib borish;
- jismoniy va texnik tayyorgarligi rivojlantirish;
- mashg'ulot jarayonida turli pedagogik metodlarni qo'llash;

Yosh gandbolchilarga xos texnik harakatlanish tezligi va to'p uzatish aniqligini birgalikda shakllantiruvchi maxsus vaziyatli mashqlar majmuasini ishlab chiqilsa va uni tizimli ravishda olib borilsa ijobiy natija beradi.

Tezkorlik deganda, individ harakatlarining tezlik xarakteristikasi, asosan harakat reaksiyasining vaqtini belgilovchi funksional xususiyatlarning kompleksi tushuniladi. Tezlikni namoyon bo'lishining uchta asosiy shakli bor:

1. Yakka harakat tezligi (kichiq tashqi qarshilikni engish bilan);
2. harakatlar chastotasi;
3. harakatlar reaksiyasi tezligi (yashirin latent davri).

Tezkorlikning eng sodda shakllarining namoyon bo'lishi bir-biriga aloqador emas. Ayniqsa bu reaksiya vaqtiga bog'liq bo'lib, ko'p hollarda harakat tezligi ko'rsatkichlari bilan korrelyatsiya qilinmaydi. Tezlikning namoyon qilinishini qayd etilgan uchta shaklining umumlashmasidan (qo'shilmasidan) aniqlash mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Pavlov Sh.K., Abdurazmanov F.A. Gandbol. Darslik. T., 2005.
2. Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Matxalikov I.I. Gandbol. Musbaqa qoidalari, ularni tashkil etish va o'tkazish tizimi. T., 2014.
3. Pod redaksiyey A.I. Yaroskogo. Podgotovka gandbolistov. Uchebnoe posobie. T., 1992.
4. Salomov R.S. Sport mashg'ulotining nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. T., 2007.
5. A.T.Hasanov va R.M.Toshpo'latov 2022. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARDA Jismoniy tarbiya VA SPORTNI RIVOJLANISH

METODIKASINI TAKMORLASH. Akademik tadqiqotlar va ta'lim fanlari tendentsiyalari jurnali . 1, 7 (2022 yil iyun), 95–99.

6. Hasanov AT, Mamanazarova AB OILADA BOLALARNI SOG'lom turmush tarzini shakllantirish USULLARI //O'quv fanlaridagi akademik tadqiqotlar va tendentsiyalar jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 7. – S. 6-9.

7. Hasanov A. T., Mamanazarova A. B. WRESTLING PREPARATION PROCESS IN SPORTS SCHOOLS //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 3. – C. 174-176.

8. Hasanov, A. T., S. D. Akzamov, and D. T. Abduraimov. "Pedagogical technology in professional-practical physical training of students of the faculty of military education." INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.10 (2022): 148-156.

9. Hasanov A. Primary school students training movement games in physical education classes: primary school students training movement games in physical education classes //Физическое воспитание, спорт и здоровье. – 2022. – Т. 2. – №. 2.

**YOSH RAHBARLARDA YANGICHA TAFAKKURNI
SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI
(BOJXONA ORGANLARI MISOLIDA)**

Qodirov Mirzaakram Sobirjonovich

Bojxona instituti Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti “Psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish” markazi boshlig‘i, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Shamsiyev Nurbek Normuradovich,

Surxondaryo viloyati bojxona boshqarmasi, “Ayritom” chegara bojxona posti inspektori hamda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tinglovchisi

ANNOTATSIYA

Zamonaviy texnologiyalar asrida, ilm-fan rivojlanishi o‘ta jadallashgan bir davrda inson ongining rivojlanishi va tafakkurning kengligi muhim rol o‘ynashini etish darajalari aynan bir xilda emas. Shuning uchun muallif ushbu maqolada bojxona organlari xodimlarining ayniqsa yosh rahbarlarning yangicha tafakkurini shakllantirish masalalari haqida so‘z yuritilgan.

***Kalit so‘zlar:** tafakkur, tafakkur turlari, tafakkur operatsiyalari, diqqatlilik, bojxona organlarida yosh rahbarlar, fikrlash.*

**PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FORMING NEW
THINKING IN YOUNG LEADERS (IN THE CASE OF CUSTOMS
AUTHORITIES)**

ABSTRACT

In the age of modern technologies, we can see that the development of the human mind and the breadth of thinking play an important role in a period of rapid scientific development. In today’s world, everyone’s thinking and thinking levels are not exactly the same. Therefore, in this article, the author talks about the issues of forming a new way of thinking of customs officials, especially young leaders.

***Key words:** thinking, types of thinking, subconscious operations, attention, customs officer, infinity of thoughts.*

KIRISH

Bugungi kunda bojxona organlari xodimlari yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlarni chuqur anglay olishi yuzaga kelgan muammoning oqibati bilan chalg'ib qolmasdan masalaning tub sababini ko'ra bilishi va oldini olishi zarur.

Bojxona xizmati – davlat xizmatining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida tashkil etilgan. U mamlakatimizning iqtisodiy manfaatlari himoyasini ta'minlovchi idora hisoblanadi. Vatan himoyasi oson ish emas. Shu bois bojxona xodimlari aqlan yetuk, jismonan sog'lom, axloqan pok bo'lishlari va IQ va EQ darajalarining yuqori bo'lishi lozim. Yosh rahbar ma'lumotni tahlil qilishi va asosli qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu har doim ham o'rgatib bo'lmaydigan xislat va yaxshi rahbar bilishi kerak bo'lgan asosiy fazilatlardan biridir. Bundan tashqari, rahbar o'zgarishga va yangi sharoitlarga moslashishga tayyor bo'lishi kerak. Buning uchun esa ularga, ongni rivojlantirish usullari va metodlarini shu bilan birga psixologiya fanlarini hamda o'z ustida ishlashi orqali o'zini rivojlantirishi va olgan ko'nikma va tajribalarini xizmat mobaynida samarali foydalanishi kerak. Zamonaviy kadrlar – malakali mutaxassis sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilishi, atrofida mehnatini oqilona tashkil etishi va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi bo'lib faoliyat ko'rsatishi shart.

Bojxona organlarida xizmatni tashkillashtirish shu bilan birga bojxona organlarining vazifa va maqsadlarini amalga oshirishda fuqarolarning huquqlarini himoya qila olishda “tarozi” pallalarini teng taqsimlay olishi ham yosh rahbarlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bugungi kun siyosatini tushungan va O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini himoya qila olish barcha rahbarlardan yangicha tafakkur va fikrlashni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Bojxona tizimi pastdan boshlab eng yuqori bo'g'ingacha o'zgarishi kerakligini shu bilan birga har bir bojxona xodimi o'z ustida ishlashi, xalqaro integratsiya jarayonlarida bojxona organining roli ham katta ekanligi shu bilan birga davlatning yuzi bu bojxonaligini ta'kidlab o'tganlar. Bunda barcha bojxona xodimlari zimmasiga ayniqsa rahbarlar tarkibiga bir necha barobar katta mas'uliyat yuklaydi. [2].

Bugungi kunda bunday tartiblashgan tizim, ma'lum maqsadga yo'nalgan ravishda faoliyat ko'rsatayotgan rahbarlar malakasini oshirish kurslari orqali namoyon bo'lmoqdaki, ushbu tizim orqali zamonaviy boshqaruvchilarga davlatimiz tomonidan qo'yiladigan talablar izchil tarzda targ'ib qilinmoqda.

Boshqaruv natijalari haqida qayta aloqa olish imkoniyatini oshirish bilan birga, rahbarning uzluksiz bilim olishi va nazariy xulosalarni amaliyotga tatbiq etish

imkonini oshiruvchi omildir. Zamonaviy rahbar hayotiga bunday texnik vositalarning kirib kelishi boshqaruv professionalizmini takomillashtirishni texnologizatsiyalash masalasiga yangicha mazmun bag'ishlaydi. Nazarimda, har qanday soha kabi boshqaruvni professionallashtirish va rahbarlar professionalizmini yuksaltirish masalasi bundan keyin ham turli ilmiy yo'nalishlar integratsiyasi va faolligi asosidagina hal etilishi mumkin bo'lgan masaladir. [3].

Aytib o'tish lozimki, bojxona xizmatchilarining kasbiy faoliyati murakkab va mas'uliyatli. Uning samaradorligi ko'plab omillarga, shu jumladan professional muhim fazilatlarining shakllanishiga bog'liq bo'lib, ular orasida yosh rahbarlarning yangicha tafakkur qila olishi orqali ehtimoliy xavfga ega bo'lgan vaziyatda qanday yo'l tutishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Bojxona xodimi chegara orqali harakatlanayotgan har bir yo'lovchini sinchkovlik bilan kuzatuvdan o'tkazishi lozim. Xodimlar psixologik kuzatishning psixologik mexanizmlarining xususiyatlarini bilishi kerak, bu odamlarning holatini va rivojlanayotgan holatlarni tahlil qilish va baholashning aniqligiga ta'sir qiladi, bu asosan bilinar-bilinmas darajada ishlaydi shunday vaziyatda o'z qo'l ostidagilarni boshqara olish va kerakli bilim va malakani berish lozim bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki bojxona organlarida xizmat qilish mas'uliyatli va sharaflidir. Bunda nafaqat jismoniy harakat shu bilan birga aqliy faollik ham talab etiladi. Rahbarlarning qonun hujjatlariga asoslanmay biror insonning yurgan yo'lidan yurish va fikr yuritmasdan qaror qabul qilish orqali nafaqat davlat hamda fuqarolarning qonuniy huquqlarining toptalishi va davlat obro'sining tushishiga olib kelishi mumkin.

Har birimizning ongimizda bir daqiqada minglab operatsiyalar bo'lib o'tadi inson ilmiy isbotlangan o'z imkoniyatlarini bilish orqali o'zining yangi jabhalarini ochishi mumkin. Misol tariqasida quyidagilarni ko'rib chiqsak:

ANALIZ – shunday bir tafakkur jarayoniki, uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy ravishda bo'lib ajratib, ularning ayrim qismlari va xususiyatlarini tahlil qilamiz.

SINTEZ – shunday bir tafakkur jarayonidirki, biz narsa va hodisalarning analizda bo'lingan ayrim qismlari, bo'laklarini sintez yordami bilan fikran yoki amaliy ravishda birlashtirib, butun holga keltiramiz.

Analiz va sintez o'zaro bevosita mustahkam bog'langan yagona jarayonning ikki tomonidir. Agar narsa va hodisalar analiz qilinmagan bo'lsa, uni sintez qilib bo'lmaydi, har qanday analiz predmetlarni, narsalarni bir butun holda bilish asosida amalga oshirilishi lozim.

TAQQOSLASH – shunday bir tafakkur jarayoniki, bu jarayon vositasi bilan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir – biriga o‘xshashligi yoki bir – biridan farqi aniqlanadi.

Abstraksiyalash shunday bir tafakkur jarayoniki, bu jarayon yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va hodisalarning muhim bo‘lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib tashlaymiz.

UMUMLASHTIRISH deganda psixologiyada narsa va hodisalardagi xossa, belgi, xususiyat, alomatlarini topish va shu umumiylik asosida ularni birlashtirish tushuniladi.

Umumiy, mavhum belgi va xususiyatlarni yakka, yolg‘iz obyektlarga tatbiq qilish konkretlashtirish deyiladi. Bundan tashqari, mavhum tushunchalarni konkret predmetlarga bog‘lash xam konkretlashtirish bo‘lib hisoblanadi. [4].

Tafakkur quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1.Ko‘rgazmali – harakat tafakkur.
- 2.Ko‘rgazmali – obrazli tafakkur.
- 3.Ixtiyorsiz va ixtiyoriy tafakkur.
- 4.Konkret va abstrakt tafakkur.
- 5.Ijodiy tafakkur.

Inson tomonidan bevosita idrok qilinayotgan predmetlar emas, balki tasavvur qilinayotgan obrazlar haqida fikr yuritish **KO‘RGAZMALI – OBRAZLI** tafakkur deyiladi.

Bog‘cha yoshidagi bolalar ilmiy tushunchalarga ega bo‘lmaganligi uchun bilish faoliyatida asosan ko‘rgazmali – obrazlarga suyanib fikr yuritadilar, mulohaza bildiradilar, hukm chiqaradilar.

IXTIYORSIZ tafakkur deb mantiqiy tafakkur yordamida ko‘p vaqtlar davomida hal qilinmagan aqliy vazifalarning to‘satdan, kutilmaganda hal qilinib qolishi protsessiga aytiladi.

IXTIYORIY tafakkur jarayoni mulohaza, muhokama, isbotlash, gipoteza qilish kabi shakllarda namoyon bo‘ladi. Matematika, fizika, kimyo, psixologiya va boshqa fanlardagi muammo va masalalarni yechish jarayonlari bunga yorqin misol bo‘la oladi.

ABSTRAKT tafakkur narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va so‘zlarda ifodalovchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdir.

Fikr yuritilishi lozim bo‘lgan narsa va hodisalarni idrok va tasavvur qilish mumkin bo‘lsa, bunday tafakkur **KONKRET** tafakkur deyiladi.

Nazariy tafakkur deb hodisalarni izohlashga faraz qilishga qaratilgan tafakkur turiga aytiladi.

Voqelikni o'zgartirish vositasi bilan real narsa va hodisalarni yaratishga yo'naltirilgan fikr yuritish amaliy tafakkur deyiladi. Amaliy tafakkur "qanday qilib?", "qaysi yo'l bilan?" kabi savollarga javob berish jarayonidir.

IJODIY tafakkur murakkab bilish faoliyatidan biri bo'lib tadrijiy ravishda, izchil o'zaro bog'langan jarayonlardan tashkil topadi: dastavval savollar tug'iladi, vazifa aniqlanadi, masala yechish uchun savollarga javob qidiriladi. Ijodiy tafakkurning navbatdagi komponentlari quyidagicha aks ettiriladi: quyilgan savollarga javob izlash, masalani yechishga yordam beradigan yo'llar, usullar, vositalar, qoidalar va ko'nikmalarni qidirish, ularni tanlash va faoliyatga tatbiq qilish va boshqalar.

Tafakkur muammodan, savoldan, taajjublanish, hayratga tushish yoki ziddiyatdan kelib chiqadi. Mazkur muammoli vaziyat shaxsni fikr yuritishga tortadi, uning faoliyatini noaniq muammoni hal qilishga undaydi.

Muammoli vaziyat o'z ichiga quyidagi muhim tomonlarni qamrab olishi mumkin, birinchidan, muammoning quyilishini inson tushunib yetishi, ikkinchidan, muammoni hal qilishga yordam beruvchi vosita, usul, yo'l, aqliy harakatlarni insonning o'zi izlab topishi va ularni ma'lum sistemaga solishi, uchinchidan, inson muammoni hal qilish uchun saralangan usullarni avvalgi usullardan ajratish, ya'ni ularning salbiy tomonlarini olib tashlab, qolganlaridan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanishi, inson muammo yechimining to'g'riligiga ishonch hosil qilishi uchun tanqidiy nuqtai nazardan tekshirib chiqishi kabilar. Muammo hal qilingandan keyin uni tanqidiy nazardan tekshirib chiqish va to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish faoliyati ham ijobiy xarakter kasb etadi. Shunday qilib, bir talay amallardan foydalanish tufayli muammo hal qilinadi: qo'yilgan muammoni bo'laklarga ajratib analiz qilish, muammoni yaxlit holda tushuntirib berish, muammoni hal etish uchun vositalar qidirish, topgan vositalarni qo'llash, muammoni tanqidiy tekshirib chiqish, shuningdek, muammo yechimi to'g'risida mantiqiy xulosaga kelish kabilar.

XULOSA

O'rganilgan ilmiy manbalar va natijalarga muvofiq quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin:

- har bir rahbarning o'z xususiyatlari tafakkur, idrok kabi bilish jarayonlari yuksak bo'lishi kerakligi.
- shaxs rivojlanishdan to'xtamasligi doimiy o'z ustida ishlab borishi.
- turli vaziyatlar va tasodiflardan to'g'ri xulosa olish
- narsa va hodisalarni o'rganishda diqqat shakllanganligi tafakkur jarayonini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi;

- diqqat jarayoni xodimlarda bilim, tushuncha, tasavvurlarini hamda hayotiy bilimlarini ortishiga turtki bo‘ladi;
- xodimlarda diqqat xususiyatlarida yoshga bog‘liq farqlar ko‘zga tashlanadi;
- barcha xodimlarda tafakkurni rivojlanishi idrok jarayonini takomillashishida muhim rol o‘ynaydi;
- tafakkurning psixologik jihatlarini o‘rganishda va o‘rgatishda shaxs xususiyatlarini ham hisobga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/4000640>
2. www.kun.uz
3. www.cyberleninka.ru
4. www.elib.buxdu.uz/
5. Регуш Л. А. Тренинг профессиональной наблюдательности. – Л., 1991
6. Регуш Л.А. Практикум по наблюдению и наблюдательности. 2-е изд., переработанное и дополненное. — СПб.: Питер, 2008. С –5.
7. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. Т.1990.

VIRTUAL O‘QUV MUHITIDAN FOYDALANGAN HOLDA KIMYO FANINI O‘RGATISH VA O‘RGANISH. MAKTABDA VIRTUAL LABORATORIYALARDAN VA KOMPYUTER DASTURLARIDAN FOYDALANIB O‘QITISHNING AHAMIYATI

G‘opporov Abdimajid Ro‘ziyevich

Qumqo‘rg‘on tumani 47-sonli maktab direktori

Saidov Dilmurod Xursan o‘g‘li

Termiz davlat universiteti stajyor tadqiqotchi

Saidov Yo‘ldosh Xursan o‘g‘li

Qumqo‘rg‘on tumani 47-sonli maktabning oliy toifali kimyo fani o‘qituvchisi

Termiz davlat universiteti magistranti

yoldoshsaidov6193@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kimyo fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilishda o‘quvchilar bilimida bo‘shliqlar aniqlanmoqda. Ana shu bo‘shliqlarni bartaraf etish uchun maktabda virtual laboratoriyadan foydalanib o‘qitish va o‘rganishning ahamiyati haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan bo‘lib hozirgi vaqtda qo‘llaniladigan kompyuter dasturlar bo‘yicha ishlash haqida ma‘lumotga ega bo‘lasiz.

Kalit so‘zlar: virtual, metodika, chemistry, amaliy mashg‘ulot, tajriba, reaktiv, o‘qitish, qiziqarli, dars, kompyuter, laboratoriya.

ANNOTATION

In this article, gaps in students' knowledge are identified in the organization of practical classes in chemistry. In order to overcome these gaps, detailed information is given about the importance of teaching and learning using a virtual laboratory in the school, and you will get information about working with computer programs that are currently used

Keywords: virtual, methodology, chemistry, practical training, experience, reactive, teaching, interesting, lesson, computer, laboratory.

АННОТАЦИЯ

В данной статье выявлены пробелы в знаниях студентов при организации практических занятий по химии. Чтобы устранить эти пробелы, школа предоставляет подробную информацию о важности преподавания и обучения с использованием виртуальных лабораторий, а также информацию о работе с современными компьютерными программами.

Ключевые слова: виртуальный, методика, химия, практические занятия, опыт, реактивный, учение, интересный, урок, компьютер, лаборатория.

KIRISH

Kimyo fani eksperimental aniq fanlar sirasida ekanligi uchun bilim va ko'nikmalar ko'proq laboratoriya mashg'ulotlarida mustahkamlanadi. Ammo ko'pgina maktablarda keng tarqalgan muammo – bu maktab uchun cheklangan laboratoriyani yuqori texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari tufayli fan laboratoriyalarida asbob-uskunalar va materiallarning yetishmasligi [10]. Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun ko'p hollarda zaharli va zararli, yonuvchan va portlovchi reaktivlar, murakkab jihozlarni ishlatish talab etiladi. Bevosita laboratoriya ishini bajarishga kirishishdan oldin uni kompyuter yordamida virtual holatda ko'rib chiqish – reaktivlarni tejashga, xavfsizlikni ta'minlashga, o'quv jarayonini samaradorligini oshirishga olib keladi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Virtual laboratoriyalarni unumli ishlatish uchun ulardan foydalanish yo'riqnomalarini o'zbek tiliga tarjima qilish va ulardan foydalanish dolzarb vazifa bo'lib bormoqda. Maktabda amaliy tajribalar o'tkazish vaqtida laboratoriya jihozlari va reaktivlar hamma vaqt ham yetarli bo'lavermaydi. Bundan tashqari ayrim laboratoriya ishlarini bajarishda noqulay sharoitlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tajribalar yo'q emas aniqroq aytadigan bo'lsak amaliy tajribalarni bajarishda moddalar va reaktiv yetishmovchiligi yuzaga kelishi mumkin. Shunda virtual laboratoriya va qo'shimcha kompyuter dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Lekin bu dasturlar bilan ishlash bo'yicha o'zbek tilida yetarli qo'llanma mavjud emas. Ilmiy maqolanaing maqsadi o'quvchi va o'qituvchilar uchun kompyuter kimyoviy dasturlari bilan ishlash bo'yicha qulay, o'zbek tilida o'quv uslubiy qo'llanma tuzish va foydalanishdir [2].

Kimyo fanining laboratoriya mashg'ulotlari bo'lsa, uni bajarish imkoniyatini beruvchi turli kimyoviy dasturlar mavjud. Informatsion texnologiyalarning rivojlanishi hamda bugungi kunning talab va takliflaridan kelib chiqqan holda ayrim kompyuter dasturlarining android versiyalari yaratilgan. Shuningdek, smartfonlar uchun mo'ljallangan kimyo ta'limida qo'llanilishi mumkin bo'lgan 100 dan ortiq dasturlar "Play market"da mavjud. Shulardan ayrimlari 1-jadvalda keltirilgan [3].

1-jadval. Kimyoga oid qo'l telefonlari (smartfonlar) uchun yaratilgan dasturlar (play market asosida)

№	Dasturning nomi	Belgisi	Dasturning imkoniyatlari
1	CHEMIST-Virtual Chem Lab		Virtual laboratoriya.
2	Химия 8 класс		8-sinf darslik
3	Химические элементы		Kimyoviy elementlar haqida ma'lumot beradi (olinishi xossasi ishlatilishi va h.k).
4	Find element		Jadvaldan elementni topish o'yini.
5	Аtomas		Aylana atrofidan berilgan elementni tanlash kerak (O'yin).
6	Химические лаборатория		Kimyoviy laboratoriyalardagi reaksiya olib borishni simvollar bilan ifodalaydi.
7	Chemistry Advisor		Kimyoviy reaksiyalarni davom ettirish reaksiya haqida ma'lumotlar beradi.
8	Химические элементы и Периодическая таблица - Тест		Davriy jadvalning turli ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtirgan. Elementlarning barcha xossalari aks ettirilgan.
9	Chem Equation Balance		Kimyoviy reaksiyalarni yozishning qulay usuli bo'lib, reaksiya koeffitsiyentini qo'yib beradi.
	Химия Х10 —задачи и реакции		Bu dastur bilan kimyodan olingan bilimlarimizni mustahkamlash va tekshirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.
	Таблица валентностей		Elementlarning valentligini ko'rsatadi.
	Molar Mass Calculator		Dastur yordamida turli moddalarda molekulyar massani hisoblash, undan modda miqdoriga va massaga o'tish kabi amallarni bajarish mumkin.

Kimyo faniga oid elektron bazalar.


Informatsion texnologiyalar rivojlanishi natijasida hujjatlar qog'ozlardan elektron shaklga ko'chmoqda. Kimyo ta'limida elektron bazalarning o'rni juda katta. Birorta kimyoviy birikma haqida ma'lumotlar zarur bo'lsa, internet manbalariga murojaat qilgan holda juda tez fursatda kerakli ma'lumotlarni olish mumkin [9]. Masalan, www.google.com qidiruv tizimida "Toluene (toluol)" deb yozadigan bo'lsak, u Wikipedia (www.wikipedia.org), PubChem (www.pubchem.ncbi.nlm.nih.gov), www.study.com, www.worldmolecules.com, www.sigmaaldrich.com kabi internet sahifalarida jamlangan ma'lumotlarni taqdim qiladi. Oxirgisi orqali bizni qiziqtirgan moddaning ayni paytdagi narxi bilan ham tanishib olishimiz mumkin. Internet resurslarida yetakchi nashriyotlar tomonidan chop qilinadigan ilmiy jurnallar, kitoblar, ensiklopediyalar va ma'lumotnomalar elektron shaklda qo'yilgan. Turli sohalarga tegishli ilmiy jurnallar www.sciencedirect.com internet sahifasida jamlangan. www.chemweb.com internet sahifasida kimyogarlarni uchun kerakli ma'lumotlar yoritilgan. www.rcsb.org va www.ndbserver.rutgers.edu internet sahifalarida oqsillar hamda nuklein kislotalar bo'yicha elektron bazalar keltirilgan [4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kimyo fanlarini o'qitishda yuqorida taklif etilgan kimyoviy kompyuter dasturlarini sinflash va qo'lanilish borasidagi takliflar inobatga olinsa, ta'lim jarayonining samaradorligi yanada ortadi deb hisoblayman [5].


Химия (8-11 класс) Виртуальная лаборатория dasturining o'rnatilishi

Bu dasturi Windows xp dasturlariga mo'ljallangan bo'lib Windows 7 va Windows 8 sistemalariga o'rnatishda bir necha bosqichlari bor . Dastur virtual laboratoriya papkasidagi CD1 fayli ichida joylashgan Run. exe fayli bilan o'rnatiladi.



Dasturni o‘rnatilish oynasi hosil bo‘ladi va ishchi oynasida dastur yorlig‘i hosil bo‘lishi uchun belgi Поместить ярлык на Рабочий стол qo‘yiladi. Dasturni o‘rnatishda ko‘rsatilgan variantlardan biri tanlanadi. **Минимальная , Рекомендуемая, Полная/сетевая.**

Tanlab bo‘lib o‘rnatish **“Установить”** Tugmasi belgilanadi.



Dastur o‘rnatiladigan joy ko‘rsatilgan

C:\Program Files\ЛСММ\CD-ROM Химия (8-11 класс). Виртуальная лаборатория

hosil bo‘lgan oynadan o‘rnatishni davom etirish tugmasi belgilanadi. Dastur o‘rnatilish yakunlanadi.

Bundan tashqari virtual laboratoriyada reaksiya mexanizmlarini o‘rganish, bir vaqtning o‘zida reaksiya uchun turli sharoitlar hosil qilib reaksiyalarning borishini ham kuzatish mumkin. Shu sababdan hozirda ko‘plab kimyoviy virtual laboratoriyalar ishlab chiqildi [7].



1-рasm. Metanning olinishi va konsentrlangan sulfat kislotani alkanlar bilan o‘zaro tasirining virtual laboratoriyada ko‘rinishi.

Kimyoviy dasturlardan dars jarayonida keng foydalanish, ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni nafaqat kimyo fanlariga balki, zamon talablaridan kelib chiqqan holda kompyuter texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat. [8].

XULOSA

